Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob'yektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko'rinishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, xozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq, qilinmoqda. Xatto, xar bir oila multimedia vositalarisiz xordiq, chiqarmaydigan bo'lib koldi. Multimedia vositalarining 1981 yildagi yalpi oboroti 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 1994 yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil kildi. X,ozirgi kunda esa sotilayotgan har bir komp'yuterni multimedia vosi-talarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim soxasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi, avvalombor, ular unumdorligining nixoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia ' vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yo'tish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda

30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayenida yana bir bor ishonch xosil qildik.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni te-jash imkoniyatiga erishish;
- g) olingan bilimlar kishi xotirasida o'zoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, kadrlarni qayta tayyorlash yo'lida Jaxon Valyuta Fondi, Umumjaxon banki, Yevropa Ittifoki komissiyasi kabi nufo'zli tashkilotlar katta tajribaga egadirlar. Biz bunga, ushbu tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan semi-nar va konferensiyalarning ishtirokchisi sifatida yana bir bor ishonch xosil qildik. Avvalombor, o'quv jarayonida zamonaviy kom-pyuter texnologiyalaridan foydalanish taxsinga sazovordir.

O'z o'rnida, multimedia vositalaridan keng foydalanish yo'lida ayrim ob'yektiv muammolar ham mavjud. Bulardan eng asosiysi - o'quvchilar uchun kerak bo'lgan o'quv materiallarini, qonunlarni va boshqa ko'rsatmalarni qo'llanma qilib kompyuter dasturlarini ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarida multimedia elementlarini qo'llash esa, kompakt disklarni (lazer disklari) qo'llashni talab qiladi. Xozirgi kunda bunday ko'rinishdagi kompakt disklarni respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati yo'qdir. Bular ma'lum bir miqdordagi mablag'ni oldindan jalb etishni talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy kompyuter texnolo-giyalaridan o'quvchilarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayo-nida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi.

2. Distant uslubi asosida o'quvchilarni o'qitish xozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. O'qituvchi va o'quvchining ma'lum bir ma-sofada joylashganligi, o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar,

sputnik aloqasi, kabel televideniyesi kabi vositalar asosida o'quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamo-naviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotlarni o'zlash kanallarini rivojlanishi telekommunikatsiya sohasiga o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda. Mamlakatimizdagi barcha o'quv yurtlarini va biznes bilan shug'ullanayotgan kompaniyalarni distant uslubi asosida birlashtirilsa, o'qitish jarayonini va tijorat ishlarini yanada yuqori pog'onaga olib chiqadi.

Distant uslubi asosida o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Interaktiv texnologiyalar:

- audiokonferensiyalar ;
- videokonferensiyalar ;
- ish stolidagi videokonferensiyalar ;
- elektron konferensiyalar ;
- ovoz kommunikatsiyalari ;
- ikki tomonlama sputnik aloqa ;
- virtual borliq ;

Nointeraktiv texnologiyalar:

- bosib chiqarilgan materiallar;
- audiokassetalar;
- videokassetalar;
- bir tomonlama sputnik aloqa;
- televizion va radio ko'rsatuvlari;
- disketa va CD-ROM lar.

Avvalombor, distant uslubi asosida o'qitish, juprofiy jihatdan o'zoqda joylashgan maktablar va akademik ta'lim uchun mo'ljallangan edi. Lekin, zamonaviy axborotlar va telekommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi tabiiy ta'lim-tarbiya jarayonini o'zoq masofadan turib amalga oshirishga yo'l ochib berdi. Natijada distant uslubi asosida o'qitish, tez vaqt ichida ko'pgina maktablarda, tijoratchilar ichida va

ishlab chiqarish korxonalarida keng qo'llanila boshladi va o'qitishda yangi uslublarni qo'llashga yana bir turtki bo'ldi. Distant uslubi asosida o'qitishning Xalqaro kengashining tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, xozirgi kunda jahonda 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta'lim olishmoqda. AQSH da shu uslub asosida o'qitish maqsadida yangi o'quv markazlari barpo etilmoqda. Shunday qilib, ular milliy kadrlarni zamon talabi asosida tayyorlash va qayta tayyorlash uchun olga qadam qo'yishmoqda.

Distant uslubining qo'yidagi afzalliklari mavjuddir:

a) o'qitishning ijodiy muxiti. Mavjud ko'pgina uslublar aso-sida o'qituvchi ilm tolibini o'qitadi, o'quvchi esa faqat berilgan materialni o'qiydi. Taklif qilinayotgan distant metodi asosi-da esa o'quvchilarning o'zlari kompyuterlar asosida axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va albatta o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan elektron tarmoqlari asosida almashadi. Bu esa o'quvchilarni boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi va o'z o'rnida bunday mexnat ta'lim olishni rag'batlantiradi.

b) mustaqil ta'lim olishning imkoniyati borligi. Distant uslubi asosida ta'lim berish - boshlangich, o'rta, universitet, sirtqi - kechki va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tayyorgarligi har xil darajadagi inspektorlar o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari mumkin va o'zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.

v) ish joyidagi katta o'zgarishlar. Distant uslubi asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan xam ish-lab chiqarishdan ajralmasdan ta'lim olayotganlar uchun qulay sharoit yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda judayam katta ro'l o'ynamoqda, ya'ni jug'rofiy va moliyaviy qiyinchiliklarsiz o'zining ishlab turgan o'rnida ilm opishi mumkindir.

g) o'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi. Stati-stik ma'lumotlar shuni ko'rsatmokdaki, distant uslubi asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, distant uslubi asosida ta'lim olish universitet tomonidan qo'yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta'lim olayotgan talabalar yoki o'quvchilarning boshqalardan ustunligi - ularning eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchilar bilan ta'minlanishidir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda, o'qituvchi auditoriyada o'qitish shartlaridan xoli bo'lishi kerakdir. Distant uslubi asosida o'qitishning o'quv qoidalaridan kelib chiqsak, soliq, inspektorlari INTERNET turi orqali jaxon bo'yicha sayyohat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, ta'lim berish uslubining o'zgarishi bilan uning shakllari ham o'zgarishi shartdir.

Xozirgi kunda to'g'ridan-to'g'ri INTERNET tarmog'iga kirish xizmati distant uslubi asosida ta'lim berish uchun elektron pochta, kompyuter konferensiyalari va ma'lumotlarning elektron bazasida foydalaniladi. Axborotlashgan tezkor kanalning rivojlanishi yangi gipermedia tizimini berib, u o'z ichida INTERNET tarmog'iga kirishning uchta asosiy xizmatini mujassamlashtiradi va foydalanuvchining interfeysini (muloqoti) yanada takomillashtirishga yordam beradi. Masalan, maltikast texnologiyalarining, konferensiya vositalarining va multimedia kompyuterlarining mavjudligi INTERNET tarmog'i orqali video-konferensiyalarni yulga qo'yishga imkoniyat berdi. Shunday qilib, bunday gigant axborotlashgan tarmoq o'quvchilarning distant uslubida zamonaviy bilim olishlari uchun vaqti yoki qayerda turganligiga qaramasdan keng sharoit yaratib beradi.

Bugungi kunda matnlar va matematik formulalarni qayta ishlash uchun odatiy tusga aylangan tovush va tasvirning kompyuterli qayta ishlash imkoniyatining paydo bo'lishi, shubhasiz, butun insoniyat faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Multimedik tizimlarni ko'rish uchun foydalanilayotgan kompyuterning hisoblash kuchini oshirishigina yetarli emas, buning uchun kushimcha apparatli qo'llab-quvvatlash analogli audio va videosignallarni rakamli ekvivalentga kushish va uning teskarisi uchun zarur bo'lgan analogli-rakamli (ARU) va rakamli-analogli o'zgartirgich (RAU) videoprotsessorlar, dekodeklar maxsus integral chizmalar va boshqalar ham zarur..

Odatda, yuqorida kursatilgan kushimcha apparatli vositalar kompyuterlarning video va audio imkoniyatlarini kengaytiruvchi turli platalar ko'rinishida shakllanadi:

Ko'chmas video tasvirlar bilan ishlash uchun TARGA platasi;

- xarakatlanuvchi videotasvirlarni yozish va aks ettirish uchun Video Blaster, Video Spigot, Intel Smart, Video Recorder platalari;

- Microsoft firmasining Sound Blaster, Sound Galaxy Sound for Windows audioplatalari.

Video va audio axboroti bilan ishlashning zaruriyati ma'lumotlarning katta hajmi va ularni o'zlashning yuqori tezligi bilan bog'lik, ko'plab muammolarni yuzaga keltirdi. Bu, audio-video axborotning yangi texnologiyalarini rivojlantirish va katta sig'imdagi jamgaruvchilarning yangi namunalarini yaratishning boshlanishi bo'ladi. Masalan, 650 Mb sig'imli va 150 kb/s hisoblash tezligidagi SD-ROM optik kompakt diski shu jumladandir.

Multimedia uchun zamonaviy SD-ROM texnologiyalar takdimnomasi ilk marta 1987 yili Sietldagi konferensiyada (Second Microsoft SD - ROM Sopotense) bo'lib

o'tdi va bu sana video va audioaxborotli to'laqonli multimedaning paydo bo'lishi boshlanishi deb hisoblanadi.

Multimedia tarkib topishining bundan keyingi qadami CD-I texnologiyasi (Compact Disk Interactive - interaktiv videodisklar) bo'ladi, ular kompyuter yordamida lazerli video-murvatni boshqarish yo'li bilan kompakt diskdan axborotni ixtiyoriy tanlashni tashkil etishga imkon beradi. Bu texnologiyani Philips Electronics firmasi ishlab chiqadi va u Sony, IVM va Microware firmalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

IVM va Intel firmalari tomonidan ishlab chiqilgan va mul-timedia tizimlari ko'rilishi uchun foydalaniladigan DVI tex-nologiyasi to'rt bazaviy unsurdan tashkil topgan:

- videotizimning asosi bo'lgan ixtisoslashgan mikro-protssessor turkumi (masalan, tasvirlar kompressiyasi va dekompressiyasi uchun Intel firmasining I 82750RV piksel protssessori; signallarni raqamli qayta ishlash uchun Texas Instrument firmasining TMS320S10 protssessori; tasvirning videoxotirasida joylashgan ifoda uchun Iptel firmasining i82750DV displeyli protssessori va boshqalar); oxirgi paytlarda bulardan ham zamonaviylari bozorda taklif qilinmoqda;

- drayverlar (Video Driver, Audio Driver va VRAM Driver hamda SD - ROM Driver) va alohida kichik tizimlar darajasidagi dasturiy interfeys: grafika va videoeffektlar ma'lumotlari kompressiyasi va dekompressiyasi AVSS (Audio-Video Support System); RTX (Real Time Executive) STD (Standart) multivazifadorligini ta'minlash, xotirani, kirish-chiqishni boshqarish va boshqalar;

- galma-gal paydo bo'luvchi audio va video axborot saqllovchi, ma'lumotlarni SD - ROM jamg'aruvchisidan foydalanilganda tezligi bir tekisligini ta'minlovchi maxsus shaklli fayllar;

- sub'yektiv qabul qilishga yo'naltirilgan va ba'zi yo'qotish yoki bo'zib ko'rsatishlarga yo'l qo'yuvchi axborotning turli namunalari tiklash algoritmlari. Bu texnologiyani qo'llashning eng oddiy misoli bo'lib, siyraklash algoritmi, ya'ni tasvirning diskretligini kamaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. JPEG (Joint Photographic Exerts Group) statik tasvirlarni siqishning eng ko'p tarqalgan algoritmidan jarayonlar natijasida ko'chmas tasvirlarning vizual zararsiz 20, ..., 50 martagacha siqilishga olib borish mumkin.

Xarakatlanayotgan tasvir va audioaxborotlar uchun prediktiv kodlash (Predictive Coding) algoritmlaridan foydalaniladi.

Bu gurux algoritmlari orasida MREG (Moving Pictures Experts Groups) algoritmlarini ajratib ko'rsatish mumkin, ular 25...50 marta siqish koeffitsentini

ta'minlaydi. Jumladan, agar 24-betli rangli va 30 kadrlar /s.li 640x480 o'lchamli siqilmagan rakamli television tasvir uchun 27 Mb/s ma'lumotlarni o'zlash tezligi talab etilsa, unda MREG1 algoritmi talab etilayotgan o'zlash tezligini 550 kb/s. gacha kamaytiradi. MREG1 algoritmi, shuningdek, siqish koeffitsenti 5 ...10 marta bo'lgan audioaxborot kompressiyasi uchun ham qo'llaniladi.

DVI texnologiyasida foydalaniladigan video siqish al-goritmlarini ikkiga bo'lish mumkin:

- JPEG rusumli simmetrik chizmalı algoritmlar, ular real vaqt miqyosida siqishni amalga oshirish va huddi videomagnitafondagi kabi sifat darajasida kompyuter (Real Time Video) vinchesteriga ma'lumotlarni yozishga imkon beradi, bunda SD - ROM ni tayyorlashga zaruriyat qolmaydi;

- MREG rusumli nosimmetrik kompressiya algoritmlari, ular SD-KRM (Production Level Video) ga yozish uchun mahsulotni bozorbop yo'sinda yaratishda foydalaniladi va multimedaning tizimida videoni fakat aks ettirishni ta'minlaydi. Bunda videoni siqish darajasi 100...160 martaga yetadi, videomagni-tafon yozuviga yaqin sifat saqlanadi.

25:1 siqish koeffitsenti displeyning chorak ekranida yaxshi sifatli videotasvirni olish uchun kifoya. 10:1 nisbatda siqilganda DVI texnologiyasi bo'lgan (Real Time Video) videotasvirli darcha to'liq ekranning 1/5 qismini egallaydi.

Audioaxborot yomon siqiladi (mumkin bo'lgan siqish koeffi-senti 1,9-2,5), bu xol tinglash a'zolarining bo'zib kursatishlarga befarq emasligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib DVI texnologiyalari video va audioni aks ettirish uchun zarur bo'lgan axborot hajmini keskin qisqartirishga imkon beradi, bu xol ma'lumotlar umumiy hajmini kamayishiga va multimedaning fan, ta'lim, biznes va aloqa sohalariga keng kirib borishiga olib keladi. Bunda foydalanuvchiga interaktiv lazerli videodisklar tayyorlovchilari xizmatiga murojaat etmay, o'z amaliy multimedaning tizimlarini yaratish, axborotning barcha turlarini saqlash uchun oddiy vinchesterdan foydalanish imkoniyati beriladi. Bundan tashqari, hozirdayoq, multimedia ovoz berilgan, tasvirli hujjatlarni Ethernet tarmoqli platasi orqali kompyuter tarmog'iga jo'natish mumkin. Biroq, videotasvirli, to'liq tarmoqli multimedaning tizimlar uchun taxminan 200:1 siqish koeffitsenti zarur. Bunday ko'rsatkichga hozirdayoq erishish mumkin va bu boradagi ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

3. Ishlanma vositalar: xolati va istiqbollari

Multimedia asr oxirigacha kompyuter texnikasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi kutilmoqda. Hozirgi paytda kompyuter texnikasi

va dasturiy ta'minotni ishlab chiqaruvchi ko'pgina yetakchi firmalar bu axbo-rot texnologiyasini xayotga quyidagi uch yo'nalish bo'yicha tadbiq, qilmoqdalar:

- AT 80x86 shaxsiy kompyuterlarida DOS, Windows muhitida multimediani professional va tijoriy maqsadlarda qo'llash;
- Macintosh SHK lari uchun unimli va ta'lim beruvchi ilova-lar yaratish;
- ishchi bekatlardagi UNIX muxitida professional va ti-joriy ishlanmalarni tayyorlash.

Bu barcha tayyorlanayotgan vositalar asosida assotsiativ aloqalarning umumiy ob'yektlari yo'naltirilgan uslubiya-tni o'z ichiga olgan "gipermatn" (Nurertex) konsepsiyasi yotadi. Rasman gipermatn deganda foydalanuvchiga boshqa mavzuga o'tishga imkon beruvchi ichki o'zaro murojaat qiluvchi matnli, tuzilmaviy axbo-rot tushuniladi. Gipermatn avval materialga kiritilgan assotsiatsiyalar bo'yicha interaktiv rejimdagi so'zlar, fayllar va paragraflarni jadal birlashtirish uchun foydalanilgan. Giper-matn vositalari foydalanuvchi istalgan tartibda varaqlab ko'rishi mumkin bo'lgan multimediane-ing hujjatlarni yaratishga imkon bergan. Foydalanilayotgan kompyuterlarning hisoblash qobiliyati oshib borgan sari bu assotsiativ aloqalarning ishlashi mualliflik tizimlarining yangi avlodlarida kengayib bordi. Bunda mualliflik tizimi deganda ishlab chiquvchilarga dasturlarni ko'p mexnatli jarayonsiz yaratishga imkon beruvchi ta'minot tushuni-ladi. Bugungi kunda raqamlashgan statik tasvir, audio va video ma'lumotlarga muallifning istagi bo'yicha tanlangan ob'yektlar sifatida qaralishi mumkin.

Quyidagi kompyuterli platformalar: Macintosh, DOS, Windows, UNIX, Philips firmasining SD-I va IVM firmasini Multimedia kompyuterlariga qo'llaniladigan multimedia ishlanmalari holatini ko'rib chiqamiz.

Masalan. Ko'p yillar mobaynida Arrle Somruter Ins mul-timedia ishlanmalari sohasida yetakchi o'rin tutadi. Avvalboshda ishlanmalar audioni o'z ichiga olgan multimedia maxsulotlarini ko'rish uchun gipermatn - Nuregsagd - firma dasturi im-koniyatlarini kengaytirish va yuqori sifatli audioaxborot bilan bog'liq edi. So'ngra multimedia tizimiga fotoga yaqin bo'lgan yuqori sifatli statik tasvirlarni kiritish va aks ettirish imkoniyati ko'shildi. Natijada Macintosh kompyuterlari platformasi multimediane-ing aniq bir ilovalarida yetakchi o'rinni egalladi.

Biroq, videoni qo'llab-quvvatlash nisbatan yaqin paytda, MAS 6.07 va 7.0 imkoniyatlarini kengaytiruvchi Quicktime tizimining kiritilishi bilan ta'minlandi. Xozirda - Nuregsagd da-sturi va yuqorida ko'rsatilgan kengaytirishlarni birlashtiruvchi multimediane-ing tizimlar ishlanmasi ustida ish olib borilmoqda. Bu

tizimning asosiy komponentlari dasturiy ta'minoti, fayllar shakllari, kompressorlar va foydalanuvchi interfeyslaridir. Tizimning eng muxim unsuri - Movie Toolbox - tasvirlarni siqishni boshqaruvchi va animatsiyalar, statik tasvirlar xamda video algoritmlarini amalga oshiruvchi dasturlardir.

Foydalanish jihatidan oddiy bo'lgan Media Text mualliflik tizimi yaqinda Michigan Universitetida (Ann Arbor) Macintosh kompyuterlari uchun ishlab chiqildi. Foydalanuvchi o'z dasturiy maxsulotini audio, grafika va animatsiyaga kiritishi hamda ularni xar bir bosqichda sichqonning ikki chikillashidan oshirmagan holda bajara borib boshqa fragmentlar bilan birlashtirishi mumkin.

4. IVM Vetimedia /OS-2. IVM Sogr firmasi multimedia ish-lanmalari sohasida ancha faol ish olib boradi. Firma Windows interfeysidan grafik foydalanishni qo'llab-quvvatlashdan tashkari o'zining OS/2 operatsion tizimini multimediyaning ko'pgina imkoniyatlari bilan jixozlagan. Ular orasida, eng avvalo, MM RM/2 nomini olgan Rgesentation Manageg (prezenta-siya menejeri) dasturini ajratib ko'rsatish mumkin. U audio-platalar, SD-ROM rusumidaga ommaviy xotira va video proigrovatelni qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, Audio Visual Connection adapterining IVM uchun drayverini o'zida saqlaydi.

IVM firmasi RS/2 turkumidan keyingi o'z kompyuterlari uchun Ultimedia sifatida mashhur multimedia vositalari paketini ishlab chiqqan. Bu vositalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompakt-diskda yetkazib beriladigan va operatsion tizim turlarini tanlash hamda multimedia dasturlarini namoyish etishga imkon beruvchi M57 va M77 qurilma modullari;
- amaliy dasturli multimedia kioski (o'yinli, ta'lim beruv-chi, xizmat ko'rsatuvchi va hokazolar);
- Storyboard Livel, Linkway Livel va Audio Visual Connestion singari multimedia ishlab chiqishning foydalanuvchi vosita-lari turkumi;
- konferensiya ishtirokchilariga umumiy axborotlarni ekranda taqsimlashga imkon beruvchi kompyuterli videokonferen-siyalarni qo'llab-quvvatlash uchun R2R moduli (IVM Regson to Regson);
- turli manbalardagi audio va video axborotlar yuqori sifatini kafolatlagan holda videoni 30 kadr/s chastotali qamrab olish, siqish va aks ettirishni ta'minlovchi IVM RS/2 Astion Media II Display Adapters moduli.

UNIX. Ishchi stansiyalar uchun ham multimedyaning maxsu-lotlarini yaratish tizimlari ishlab chiqilmoqda, lekin firmalarning harakatlari shaxsiy kompyuterlar uchun tizimlarni ishlab chiqish kabi birlashmagan. Mavjud tizimlar ishchi stansiyalarning aniq bir rusumlarida foydalaniladi, masalan, Mpower tizimi Hewlett-Packard Corp firmasi kompyuterlarida, DECspin tizimi - (Digital Equipment Corp firmasi EXM larida qo'llanmoqda.

Biroq, umumiy foydalaniluvchi ishlanmalar ham mavjud. Jumladan. Gain Technology Ins (A+Sh) kompaniyasi Gain Momentum tizimini taklif etdi, u UNIX OT muhitida X Window, OSF/Motif va OpenLook grafik interfeysi bilan ishlashda multimedia imkoniyatini ta'minlaydi. Bunga qo'shimcha ravishda Massachusetts texnologiya instituti X Window Assotsiatsiyasi X Window muhitida ishlovchi standart dastur uchun VEX videokengaytirishni ishlab chiqdi va foydalanishga taqdim etdi. Gain Momentum tizimi asosan MBBT, ob'ektlar birlashishi (aloqasi) tili va kutubxonalar turkumidan iborat. MBBT moduli matnli fayllar, fayl turkumlari, rakamlashgan tovush va tasvirlar o'rtasidagi aloqani o'rnatadi. Ob'ektlarni birlashti-ruvchi Arrle firmasining Nurmedia Yengine tili foydalanuvchiga multimedia ma'lumotlari bazasida yo'nalish topishga yordam beruvchi 30 modulli kutubxonalar turkumini o'zida namoyon etadi. Tizim kompyuterli ishchi stansiyaga moslashishga imkon beruvchi amaliy dasturlarning portativ interfeysini (ARI - Arrlication Rgogram Interface) ham o'z ichiga oladi.

1993 yilda chiqarilgan multimedyaning MRoveg tizimi foydalanuvchining videomuxitini (Visual User Environment) aks ettiradi.

Video Live, Multimedia Mailer, Shared-X va SharedWhite Board modullari tizimining bazaviy komponentlaridir. Video Live moduli qo'shimcha plata yordamida videokadrlarni qo'yishni va ularni ishchi stansiya ekrani darchasida aks etishini qo'llab-quvvatlovchi utilitani namoyon etadi.

Multimedia Mailer moduli, nomidan ham ko'rinib turganidek, UNIX operatsion tizim taklif etadigan ma'lumotni elektron pochta xabarlaridagi audio, ko'chmas tasvir va videokadrlarga stan-dart imkoniyatlarini kengaytiradi. Shared-X moduli foydalanuvchiga X Window stansiya ekranida boshqa istalgan hisoblash tarmog'i foydalanuvchisi bilan birgalikda qo'llash imkonini beradi. SharedWhite Board moduli konferenszaldagi taxtadagiga o'xshash tasvirdan birgalikda foydalanishni ta'minlaydi.

DECspin multimedia tizimi qo'shimcha audio va videoplatalar bilan Decstation 5000 kompyuterlarida Xmedia Tools muhitida ishlaydi. Yaqinda Digital firmasi uni o'zining boshqa ishchi stansiyalariga tarqatdi. Tizim axborotning barcha turlarini

qo'llab-quvvatlaydi, videokadrlarni taxrir qilish va videokonferensiyalar rejimida ishlashga imkon beradi.

Aftidan, ishchi stansiyalari uchun eng oddiy mualliflik ti-zimi Standford universitetida yaratilgan va elektron pochta bo'ylab bepul tarqatiladigan MAYestro tizimidir.

Xozirgi jamiyatimiz uchun multimedialarning ahamiyatini tasdiqlovchi - 1987 yilda Vashingtonda AKSH kongressi kutubxonasida Interaktiv axborot texnologiyalari milliy namoyishlar laboratoriyasi va original multimedia - ilovalar va dasturlarning doimiy ko'rgazmasi ochilganligi diqqatga sazovordir. Multimedia va distant uslublari asosida ta'lim berish yildan-yilga ortib, takomillashib bormoqda.

Multimedial taqdimot – bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma'lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktorga jo'rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o'lchamli

grafika tarzidagi dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin. Taqdimotning ma'lumot

taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaolligidir, ya'ni belgilangan shaklda o'zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir. Bundan tashqari, taqdimot Sizning saytingiz kaliti ham bo'lishi mumkin. Ya'ni Internetga chiqish imkoniyati mavjud bo'lgan paytda sichqonchani bir martagina bosish orqali taqdimotni ko'rib, kompaniya saytidan eng yangi ma'lumotni olish mumkin.

Multimedial texnologiya Multimedial texnologiya (multi – ko'p, media – muhit) bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz.

Multimedial texnologiyaning eng muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirligi hisoblanadi. So'nggi yillar davomida ko'plab multimedial dasturiy mahsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqalar.

Kompyuter taqdimotlari (Kompyuter vositasida tayyorlangan taqdimotlar)

Ma'ro'za, doklad yoki boshqa chiqishlarda odatda ko'rgazmali namoyish etish

vositasi sifatida plakatlar, qo'llanma, laboratoriya tajribalaridan foydalaniladi. Bu maqsadda diaproyektorlar, kodoskoplar, grafik tasvirlarni ekranda namoyish etuvchi slaydlardan foydalaniladi. Kompyuter va multimedial proyektorning paydo bo'lishi ma'ro'zachi nutqini ovoz, video va animatsiya jo'rligida sifatli tashkil etishning

barcha zaruriy jihatlarini o'zida mujassam qilgan ko'rgazmali materiallarni taqdimot sifatida tayyorlash va namoyish etishga imkon berdi.

Taqdimot nima uchun samarali

So'nggi o'n yillik dunyoda kompyuter revolyutsiyasi davri bo'ldi.

Kompyuterlar asosli ravishda hayotimizga kirib keldi. Insoniyat faoliyatining aksariyat jabhalarini kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Faoliyatning eng tez o'zgaruvchan dinamik turi bo'lgan biznes ham ushbu jarayondan chetda qolmadi. Bu holatda kompyuter bilan muloqotni osonlashtirish, uning e'tiborini tortish, qiziqtirish uchun ma'lumotingizni boshqalarga qanday qilib eng qulay va samarali

tarzda yetkazish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi. Ma'lumki, inson ma'lumotning ko'p qismini ko'rish (~80%) va eshitish (~15%) organlari orqali qabul qiladi (bu avvaldan aniqlangan va kino hamda televideniya undan samarali foydalaniladi). Multimediali texnologiyalar ushbu muhim sezgi organlarining bir vaqtda ishlashiga yordam beradi. Dinamik vizual ketma-ketlik (slayd-shou, animatsiya, video)ni ovozi tarzda namoyish etish orqali insonlarning e'tiborini ko'proq jalb qilamiz. Shundan kelib chiqib, multimediali texnologiyalar axborotni maksimal samarali tarzda taqdim etishga imkon beradi.

Videodan farqli ravishda multimediali texnologiyalar axborotlarni boshqarishga imkon beradi, ya'ni interfaol bo'lishi mumkin. Multimediali taqdimot ma'lumotni to'g'ridan to'g'ri qabul qilishni ta'minlaydi. Foydalanuvchi taqdim etilayotgan barcha ma'lumotlarni ko'radi va o'zini qiziqtirgan qismlaridan foydalana oladi. Ma'lumotni qabul qilish katta mehnat va vaqt talab qilmaydi.

Ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan farqli ravishda multimediali taqdimot bir necha o'n minglab sahifa matn, minglab rasm va tasvirlar, bir necha soatga cho'ziladigan audio va video yozuvlar, animatsiya va uch o'lchamli grafikalarini o'z ichiga olgan bo'lishiga qaramay, ko'paytirish xarajatlarining kamligini va saqlash muddatining o'zoqligini ta'minlaydi.

Elektron multimedia ishlanmalari va resurslari

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali real vaqt tizimida o'qitish tezlik bilan rivojlanib borayotgan ta'lim olish turlaridan biri hisoblanmoqda. Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan hech bir to'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan real vaqt tizimidagi masofaviy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligi

yuqoriroqdir (Means, Toyama, Merfi, Bakiya va Jons, 2013). Real vaqt tizimidagi masofaviy o'qitish tizimida video ma'ruzalardan foydalanish eng samarali o'qitish usulidir. Misol keltiradigan bo'lsak, Vang (2008) Tayvand davlatida 10 yil meditsina sohasida o'qib, onlaynda o'qitilayotgan tibbiyot bo'yicha video ma'ruzalar yordamida aholi orasida tibbiy xizmatni yaxshilanganligini aytadi. Yana bir misol, Janubiy Koreyaning poytaxti Seul shahrida joylashgan Chung-Ang universitetida har bir fan bo'yicha onlayn elektron sinfi (e-class) mavjud. Fanga qatnashishga ro'yxadan o'tgan talaba "e-class" ga ham kirish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu "e-class" da nafaqat Microsoft Power Point dasturida qilingan prezentatsiyalar balki, video ma'ruzalar, uy vazifasi topshiriqlari ham mavjud. Mashg'ulotga ma'lum sabab bilan qatnasha olmagan yoki darsni yaxshi o'zlashtira olmagan talaba "e-class" ga kirib video ma'ruzalardan foydalanishi mumkin. Bu albatta ta'lim olish samaradorligini yanada oshiradi va yetuk kadrlar tayyorlashga zamin bo'ladi degan fikrdaman.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta'limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimida kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborotkommunikasiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to'xtovsiz kechmoqda.

Umuman olganda, hozirgi kunda jamiyatni standart sanoatlashgan iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishi kuzatilmoqda. Yangi iqtisodiyot mijozlari - foydalanuvchilar iqtisodiyoti hisoblanadi, shuning uchun jahon axborot va telekommunikatsiya sanoatini rivojlanishini asosiy omili keng ko'lamda yangi avlod xizmatlarini taqdim etish bo'lib kelmoqda.

Ta'limda fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil masofaviy ta'lim tizimi bilim olishni individuallashtirish, texnologiyasini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida ETdan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini ET asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'ldir. Ta'lim tizimiga elektron

axborot ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ETni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini yaratish;
- o'quv jarayoni uchun ET mo'ljallangan ta'lim texnologiyalarini yaratish va qo'llash;
- talabalarni zamonaviy ET texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- ETni joriy etish orqali ta'lim tarbiya va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Elektron axborot resurslari ta'limga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidan iborat bo'lib, u ta'limga oid turli axborotlarning yaratilishini belgilovchi ichki va tashqi omillarga bog'liq:

- ichki omillar — bu axborotlarning yaratilishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.

- tashqi omillar — bu ETning texnika uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

ETdan foydalanish esa, ular bilan muloqotda foydalanuvchilarning ko'nikma va malakalariga bog'liq. Shuning uchun, dastlab zamonaviy telekommunikasiya vositalarining o'zi nimaligini bilib olish muhim sanaladi.

Zamonaviy telekommunikasiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo'lib, unga ma'lum bo'lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, internet kabi tushunchalardan tashqari, qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimi, bilimlar ombori kabilar misol bo'lishi mumkin. "XXI asr axborotlashtirish asri" da ta'lim sohasiga elektron ta'limni joriy etish, har bir ta'lim muassasasida: o'qitish va o'qish jarayonining; ta'lim muassasasi boshqarilishining; ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi. Ta'lim muassasida ET muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda har bir ta'lim muassasida individual va maslahat mashg'ulotlar asosida pedagoglarni mustaqil va kompyuter ta'limi tizimini tashkil etish kerak. Ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimiga ETni joriy etish, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining axborotlashuviga, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqishiga bog'liq. Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasi asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim (MT) tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida ETdan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday muhim vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini ET asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi. AKTni ta'lim jarayonida (xususan, MT jarayonini) qo'llash asosan ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti, bu texnik jihozlar bo'lsa, ikkinchisi sharti esa maxsus dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligidir. Texnik jihozlar bilan ta'minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qo'rilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, video konferensiya jihozlari va hakazo. Dasturiy ta'minotga qurilmalarni ishlatadigan dasturiy ta'minotlardan tortib shu soha uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami kiradi. So'nggi yillarda g'arbda ta'lim tizimini boshqarishda qo'llanilib kelinayotgan internet tarmog'i orqali elektron shakldagi ta'lim turini Elearning (elektron ta'lim) atamasi bilan kirib keldi. Elektron ta'lim - axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosidagi ta'limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir. ET tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:- Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);

-Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

- Ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).

Axborotlashtirish soxasidagi davlat siyosati, axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlanish va takomillashuvining zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimlarini yaratishga qaratilgan. Soxalarda katta xajmdagi axborotlarni to'planishi, yaxlit axborot makonini vujudga kelishi, ularni saqlash, qayta ishlash, uzatish jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yishni bilish lozim. Shu borada ta'lim tizimida xam o'quv jarayonini olib borish uchun mo'ljallangan turli kompyuter dasturlari ishlatilib kelinmoqda va ularning soni kun sayin ortmoqda. Elektron ta'lim resurslar (ETR) - davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini elektron vositalar yordamida kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron ta'lim- uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, multimediali elektron ta'lim resurslari, baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi. ETR deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, unda davr talabidagi kerakli interfaollik, ko'rgazmalilik, mobillik, ixchamlik va ularni ko'paytirishda kam harajat sarflash, ko'p variantlilik, ko'p bosqichlilik bo'lish bilan birga bilim va ko'nikmalarni tekshirish uchun topshiriqlar, vaziyatli masalalar, keyslar va testlar to'plamining ko'p bo'lishi hamda vaqti-vaqti bilan yangilanib turishini ta'minlaydi. Zamonaviy elektron ta'lim resurslarining afzalligi, avvalo, o'quv jarayonida talabalarda mustaqillik va faollik rolini samarali tashkil etishdan iborat. Ta'lim jarayoniga ETRni joriy etish talabalarga fan bo'yicha axborotning to'liq manzarasini namoyish etish bilan birga, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, o'qitishni individuallashtirish, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beradi, ya'ni o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy elektron ta'lim resurslarning afzalligi talabaga taqdim etilayotgan o'quv axborotlarini erkin qabul qilish, ularni individuallik xususiyatiga ko'ra, o'zlashtirishida pedagogning o'qitish funksiyasi talabaning o'ziga o'tadi. Bunda pedagog o'quvchini faqat qo'llab-quvvatlaydi, o'quv axborotlari oqimidan samarali foydalanish hamda yuzaga keladigan muammolarni hal etishda kerakli ko'rsatmalar orqali muammoni hal etishda yordam beradi.

5-Ma'rura:Multimediali ilovalarni yaratish texnologiyasi

Reja:

1. Multimedia ilovalarini ishlab chiqish bosqichlari
2. Multimedia ilovalarini ishlab chiqish vositalari
3. Multimedia ilovalarining turlari
4. Multimedia ilovalarini ishlab chiqish texnologiyasi

Multimedia ilovalarini ishlab chiqish bir necha bosqichda amalga oshiriladi, ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Rejalashtirish.
2. Elementlarni ishlab chiqish.
3. Dasturiy ta'minot.
4. Tekshirish.
5. E'lon qilish.
6. Reklama.
7. Ko'zatuvi.

Ushbu bosqichlarda bajariladigan ishlarni ko'rib chiqamiz.

Rejalashtirish.

Rejalashtirish bosqichida quyidagi savollarga javob topilishi kerak:

1. Multimedia ilovasi nima uchun mo'ljallangan?
2. Multimedia ilovasi qaysi auditoriyaga yo'naltirilgan?
3. Multimedia ilovasiga qanday ma'lumot joylashtiriladi?
4. Auditoriya (foydalanuvchilar) bilan qayta aloqa qay tartibda amalga oshiriladi?

Elementlarni ishlab chiqish.

Ushbu bosqichda multimedia ilovasini dasturiy mahsulot sifatida amalga oshirish ishlari bajariladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Navigatsiya tizimini ishlab chiqish.

2. Taqdimot uchun WEB sayt yoki slaydlarning dizaynini ishlab chiqish (multimedia ilovalarini joriy etishning har ikki holati uchun ham keyingi o‘rinlarda “sahifa” deb yuritiladi).

3. Sahifalarni to‘ldirish uchun matn va ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash (jadvallar, grafiklar, rasmlar va boshqalar).

Dasturiy ta'minot.

Ushbu bosqich multimedia ilovasi sahifalarini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Tekshirish.

Multimedia ilovasini yaratishning asosiy bosqichlaridan biri uni tekshirish hisoblanadi. Tekshirish jarayonida multimedia ilovasining to‘g‘ri ishlashi tekshiriladi, jumladan:

- Gipermurojaatlarning to‘g‘ri ishlashi.
- Matn va ko‘rgazmali materiallarda xatolarning mavjud emasligi.
- Multimedia ilovasi sahifalari bo‘ylab navigatsiyaning qulayligi.
- Pochta va boshqa shakllarning to‘g‘ri ishlashi (WEB-sayt uchun).
- Grafik fayllarni yuklashning to‘g‘riligi (WEB-sayt uchun).
- Saytning turli brao‘zerlarda to‘g‘ri ishlashi (WEB-sayt uchun).

Multimediali pedagogik master shablon nashr qilish.

Tekshirish bosqichi tamomlangandan keyin WEB-sayt provayder serveriga joylashtirilib, internetda nashr qilinadi va yana qaytadan tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Multimedia ilovasi reklamasi (WEB-sayt uchun) WEB-jamiyat yangi e‘lon qilingan multimedia ilovasi haqida bilishi uchun sayt adresi va veb-saytga joylashtirilgan materiallar haqida annotatsiya orqali xabardor qilish kerak. Buning uchun quyidagi imkoniyatlardan foydalaniladi:

- Veb-sayt manzilini xatga, tashrif qog‘oziga, broshyuralarga, byulletenlarga, bukletlarga, maxsus kompyuter nashrlariga, internet

resurslarining “Sariq sahifalar” sonlariga va boshqa nashrlarga kiritish.

- Mashhur izlash saytlarida veb-saytni ro‘yxatdan o‘tkazish.
- Veb-saytlarda ishorat (ssылka) joylashtirish.
- WEB-sayt reklamasi uchun bannerlardan foydalanish. Ko‘zatib borish (WEB-sayt uchun).

Web-saytga murojaatlar uning nashr etilishi va reklamasidan so‘ng sezilarli darajada unga joylashtirilgan ma'lumotlarning foydaliligi, yangiligi va aktualligi bilan belgilanadi. Veb-sayt imidjini saqlab turish uchun undagi ma'lumotlarni doimiy yangilab borish tavsiya etiladi, aks holda saytning potensial tashrifchilari unga qayta kirmasligi ehtimoli yuqori (butunjahon o‘rgimchak to‘rida necha yillardan buyon yangilanmagan saytlar ham mavjudligini ta’kidlaymiz).

Texnologik bosqichlarni amalga oshirish chizmasi.

Texnologik bosqichlar mazmuni tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir qator ishlar va, asosiysi, bu ishlarning natijasi pedagogik multimedia master-shabloni, namoyish shakliga bog‘liq emas. Buni quyidagi chizma ko‘rgazmali ravishda namoyon

qiladi. Chizmada Veb-saytlar uchun maxsus bo‘lgan “Publikatsiya”, “Reklama”, “Ko‘zatib borish” bosqichlari yo‘q.

Multimedia ilovalarini ishlab chiqish vositalari

Maktabda foydalaniladigan multimedaning texnik va dasturiy vositalari. Maktabda foydalanilayotgan multimedia vositalari ta'rifiga rasmiy yondashuv shundan darak beradiki, har xil turdagi axborotlarni ta'limiy faoliyatga olib kirishi mumkin bo‘lgan har qanday vosita multimedia vositasi bo‘lishi mumkin. Biroq ko‘p hollarda multimedia vositalari to‘g‘risida so‘z borganda kompyuter va uning atrofidagi jihozlar tushuniladi. Shuningdek, maktabda o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan nafaqat matnlar yoki tasvirlar uchun qo‘llaniladigan, balki audio- yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqa axborotlar bilan ishlash imkonini beradigan multimedia vositalarini sanab o‘tish joizdir. Turli yillarda maktab ta'limida mutaxassislarni samarali tayyorlash maqsadini ko‘zlovchi, umumiy o‘rta ta'lim tizimida sifatli axborot ta'minotiga erishishga yo‘naltirilgan har xil vositalar kirib keldi.

Bugungi kunda maktablarda quyidagilarni uchratish mumkin:

Ovoz yozib olish va ularni tinglash uchun vositalar (elektrofonlar, magnitofonlar, CDdan o'quvchilar);

Telefon, telegraf va radio aloqa vositalari va tizimlari (telefon apparatlari, faksimil apparatlari, teletayplar, telefon stansiyalari, radioaloqa tizimlari);

- Televideniye, radioeshitirish (tele- va radiopriyomniklar, o'quv televideniye va radio, DVD) tizimi va vositalari,
- optik va proyeksion kino va fotoappaturalar (fotoapparatlar, kinokameralar, diaproyektorlar, kinoprojektorlar, epidiaskoplar),
- axborotlarni va hujjatlarni ko'paytirish va saqlash uchun mo'ljallangan poligrafiya, nusxa olish, ko'paytirish va boshqa texnikalar (rotaprintlar, kserokslar, rizograflar, mikrofilmlar olish tizimi),
- axborotlarni qayta ishlash va saqlash, elektron ko'rinishini taqdim etishga mo'ljallangan kompyuter vositalari (kompyuterlar, printerlar, skanerlar, grafiklar hosil qiluvchi), aloqa kanallari orqali axborotlarni o'zlashni ta'minlovchi

telekommunikatsion tizimlar (modemlar, o'tkazish tarmoqlari, sputnik, optik

to'lqinlar, radioreleylar va axborotlarni o'zlashga mo'ljallangan boshqa turdagi aloqa kanallari).

Kompyuterning ta'lim sohasiga kirib kelishi axborotlarni qayta ishlashning universal vositasi sanaladi. Uning universalligi bir tomondan har xil tipdagi axborotlarni qayta ishlash imkoniga egaligi bilan belgilansa (multimedia axborotlarini), boshqa tomondan bir xil tipdagi axborotlar bilan bir qator operatsiyalarni bajaradi.

Shu tufayli kompyuter o'zining atrofidagi qator vositalar bilan ta'limdagi multimedia-vositalarining barcha funksiyalarini ta'minlash imkoniyatiga ega.

Maktab ta'limida qo'llanilayotgan kompyuterlar markasi, modeli,

yaratilgan vaqti va qo'llanilishi sohasidan qat'i nazar quyidagilardan iborat umumiy xususiyatga ega:

- Yagona foydalanuvchi kompyuter vositasidan ish jarayonida faqat bir kishi foydalanadi; shunday bo'lsa-da, axborotlarni qayta ishlashda bir necha

operatsiyalarni bir vaqtning o'zida qo'llanish imkoniyati cheklanmaydi;

- Matn, raqamli ma'lumotlar, grafik tasvirlar, ovoz va boshqalar (multimedia axborotlar)dan iborat axborotlarni qayta ishlash, saqlash, taqdim etish va o'zlash imkoni;
- Foydalanuvchi bilan yagona muloqot tilining mavjudligi;
- Multimedia qurilmalarining har xil turdagi apparatlar bilan birgalikda qo'llanilishi shaxsiy kompyuterlarning har xil tipdagi axborotlarni qayta ishlash, saqlash, taqdim etish va o'zlash imkoniyatlarini oshiradi;
- Axborotlarni qayta ishlashni maxsus kompyuter dasturlari orqali amalga oshirish kompyuterni har xil tizimli vazifalar, amaliy topshiriqlarni hal etish, inson faoliyatini axborotlashtirish uchun yo'naltirishga mo'ljallangan. Multimedia texnologiyasi har xil turdagi axborotlarning mazmun va uyg'unligi ta'minlangan holda integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Bu kompyuter yordamida har xil shakldagi axborotlarni taqdim etish imkonini beradi:
- rasmlar, chizmalar, kartalar va slaydlardan nusxa olish orqali hosil qilingan tasvirlar;
- ovoz yozish, ovoz effektlari va musiqalar;
- video, murakkab videoeffektlar;
- animatsiyalar va animatsiyali imitatsiyalar.

O'z navbatida zamonaviy kompyuter multimedia vositalari jadal rivojlanayotgan kompyuter telekommunikatsiyalari bilan bog'liq. Barcha kompyuter tarmoqlarida e'lon qilingan axborot resurslari amaliy jihatdan multimedia resurslari sanaladi. Aksariyat multimedia resurslari va texnologiyalar telekommunikatsion tartibda ishlashga mo'ljallanmoqda.

Maktabda multimedia resurslari va texnologiyalaridan foydalanishda telekommunikatsiya tarmoqlarini qo'llash bir qator imkoniyatlarni yo'zaga

chiqarishga olib kelmoqda:

- o'quv-uslubiy multimedia axborotlariga kirish imkonini kengaytiradi;
- o'quvchilarda kommunikativ malakalarni, muomala madaniyatini, multimedia axborotlarini izlash uquvini shakllantiradi;
- tezkor maslahat yordamini tashkil etadi;

- mustaqil ta'lim olish uchun individual ta'lim bazasini rivojlantiradi;
- aniq vaqt birligida virtual o'quv mashg'ulotlari (seminarlar, ma'ro'zalar) o'tkazilishini ta'minlaydi;
- masofaviy ta'limni tashkillashtiradi;
- hamkorlikdagi tadqiqot loyihalarini tashkil etishni uyushtirish;
- ilmiy tadqiqot faoliyatini modellashtirish;
- o'qituvchilarning tarmoqdagi o'zaro hamjamiyatini shakllatirish;
- o'quvchilarning tarmoqdagi uyushmasini shakllantirish

Multimedia ilovalarining turlari

Multimedia ilovalari quyidagilarga bo'linadi:

- prezentatsiyalar;
- animatsion roliklar;
- o'yinlar;
- videoilovalar;
- multimediali galereyalar;
- audioilovalar;
- web uchun ilovalar.

1-jadvalda multimedia ilovalari haqida asosiy tushunchalar va ularning ko'rinishlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

1-jadval. Multimedia ilovalari asosiy tushunchalari

Multimedia ilovalari shakllari	Tushuncha
Taqdimot/prezentatsiyalar	Taqdimot (ing. presentation) – audiovisual vositalardan foydalanib ko'rgazmali shaklda ma'lumot taqdim etish shakli. Taqdimot yagona manbaga umumlashgan kompyuter animatsiyasi, grafika, video, musiqa va ovozni o'zida mujassam etadi. Odatda taqdimot

	ma'lumotni qulay qabul qilish uchun syujet, ssenariy va strukturaga ega bo'ladi.
Animatsion roliklar	Animatsiya – multimediali texnologiya; tasvirning harakatlanayotganligini ifodalash uchun tasvirlarning ketma-ket namoyishi. Tasvir harakatini tasvirlash effekti sekundiga 16 ta kadrda ortiq videokadrlarning almashinishida hosil bo'ladi.
O'yinlar	O'yin dam olish, ko'ngil ochish ehtiyojlarini qondirish, organizmdagi zo'riqishni yo'qotish hamda ma'lum malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan multimedia ilovalaridandir.
Videoilovalar	Videoilovalar – harakatlanuvchi tasvirlar ishlab chiqish texnologiyasi va namoyishi. Video tasvirlarni o'qish qurilmalari – videofilmlarni boshqaruvchi dasturlar.
Multimedia-glareyalar	Galereyalar – ovoz jo'rligidagi harakatlanuvchi suratlar to'plami.
Audioilovalar	Ovozli fayllarni o'quvchi qurilmalar – raqamli tovushlar bilan ishlovchi dasturlar. Raqamli tovush – bu elektrik signal amplitudasining diskret sonlar bilan ifodalanishi.
Web uchun ilovalar	web uchun ilovalar – bu alohida veb-sahifalar, uning tarkibiy qismlari (menyu, navigatsiya v.b.), ma'lumot o'zlash uchun ilovalar, ko'p kanalli ilovalar, chatlar va boshqalar.

Multimedia ilovalari yaratish texnologiyasini o'rganishda ularning qanday yaratilishini ifodalovchi ssenariy ishlab chiqiladi. Bundan kelib chiqib, har bir

multimedia ilovasi turli tarkibiy qismlar (turli mavzular)dan tashkil topadi, degan mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Multimedia ilovalari tarkibini quyidagi qismlarga bo'lish mumkin: yaratilayotgan multimedia ilovasi uchun mavzu tanlash, ish maydonini belgilash (masshtab va fon), kadrlar, qatlamlardan foydalanish, turli shakllar simvollarini yaratish, dasturlash tilida o'zgaruvchilar kiritish va skriptlar yozish, tovushli fayllar bilan ishlash, matn qo'shish, effektlar yaratish, rasmlardan foydalanish va import qilish, kutubxonadagi tayyor komponentlardan foydalanish, navigatsiyani yaratish, matn razmetkasi tillari va skriptlash tillaridan foydalanish.

O'z navbatida multimedia ilovalarini quyidagi turosti turlarga bo'lish mumkin. Multimedia ilovalarining turosti turlari to'g'risidagi asosiy tushunchalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Multimedia ilovalar turosti turlarining asosiy tushunchalari

Taqdimot: • Chiziqli taqdimot – murakkab grafika, videoqo‘yilma, ovoz jo‘rligidagi va navigatsiya tizimiga ega bo‘lmagan dinamik rolik. • Interfaol taqdimot – iyerarxik tamoyillar bo‘yicha to‘zilmaga keltirilgan va maxsus foydalanuvchi interfeysi orqali boshqariladigan multimediali komponentlar to‘plami.
Animatsiya: • Kadrlar animatsiyasi – tasvirlar harakati taassurotini beradigan suratlarning kadrlar bo‘yicha almashishi. • Dasturiy animatsiya – dasturlangan amallar ketma-ketligi yordamida tasvirlar almashadigan animatsiya (ya'ni algoritm va o‘zgaruvchilar yordamida). Asosiy ob'ektlarni chizish qo‘lda amalga oshiriladi yoki biror bir kolleksiya yoxud galereyadan import qilib olinadi, shundan keyingina unda qaysidir dasturlash tili imkoniyatlari ishga solinadi.
O‘yinlar: • Ko‘ngil ochuvchi o‘yinlar – foydalanuvchiga bo‘sh vaqtini o‘tkazishga imkon beradigan dasturlar. • O‘rgatuvchi o‘yinlar – taqdim etilgan yengil o‘yin shaklida foydalanuvchiga u yoki bu soha bo‘yicha o‘z malaka va ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradigan dasturlar.
Video o‘qish qurilmalari: • Film kadrlari harakatini shakllantirish – harakat taassurotini uyg‘otuvchi rasmlar, kadrlar ketma-ketligini, tasvirlarni tayyorlash va joylashtirish. • Videotasvirlar oqimini o‘qish qurilmasi – videooqim formatlari avi, mpeg v.b.ni o‘z ichiga olgan o‘qish qo‘rilmasini shakllantirish, shundan keyingina ushbu oqimni boshqarish imkoniyati tug‘iladi (masalan, videofaylni ishga tushirish, pao‘za, video boshiga tez o‘tish kabi buyruqlarni ishlatish).
Multimedia-galereyalar: • Tasvirlarning kadrlarda almashishi – tasvirlarning belgilangan vaqt oralig‘ida almashish tartibi. • Panorama – katta ochiq maydonni erkin tomosha qilishga imkon beruvchi keng va katta plandagi manzara. • Interfaol galereya – foydalanuvchiga boshqarish imkonini beradigan galereya (tasvirlar bo‘yicha harakat).
Tovush o‘qish qurilmalari: • Bitta ovoqli fayl o‘qish qurilmasi – wav, mp3 va boshqa formatdagi ovoqli faylni multimedia ilovaga qo‘shish va uni qaytadan eshitish.

- Turli ovozli fayllarni o‘qish qurilmasi – bitta ovozli fayl o‘qish qurilmasiga o‘xshash, lekin bajarish ketma ketligini o‘zgartirish imkoniyati qo‘shilgan holda.
- Virtual musiqa instrumentlari – haqiqiy musiqa instrumentlari imitatsiyasi.

web uchun ilovalar:

- Bannerlar – internetdagi reklama xarakteridagi tasvir yoki matn bloki. U reklama beruvchining Veb-saytiga yoki mahsulot yoxud xizmat turi atroflicha bayon qilingan sahifalarga giper murojaatdan iborat. Bannerlar tashrifchilarni jalb etish uchun, imidjni shakllantirish yoki shu resursni siljitish uchun turli Internet resurslarda joylashtiriladi.
- Ma'lumot o'zlash ilovalari (masalan, mehmonlar kitobi).

Multimediali mahsulot yaratish uchun ko‘plab texnik instrumentlar mavjud. Yaratuvchi gipermatn sahifalarini yaratishda ishlatiladigan dasturni tanlab olishi kerak. To‘liq funksional multimedia dasturlarini yaratishga imkon beruvchi bir qator kuchli multimedia yaratish vositalari mavjud. Macromedia Director, Macromedia Flash yoki Authoware Professional kabi paketlar yuqori darajadagi professional va qimmat vositalar hisoblanadi, shu bilan birga FrontPage, mPower 4.0, HyperStudio 4.0 va Web Workshop Pro ularning oddiyroq va arzonroq analoglari hisoblanadi. PowerPoint va matn muharrirlari (masalan, Word) kabilardan ham chiziqli va chiziqsiz multimediali resurslar yaratishda foydalanish mumkin. Borland Delphi ham multimediali ilovalar ishlab chiqish vositasi hisoblanadi. Sanab o‘tilgan vositalar oson o‘qish va tushunish mumkin bo‘lgan to‘liq hujjatlar bilan ta'minlangan. Albatta, yana ko‘plab boshqa ishlab chiqish vositalari borki, sanalganlar o‘rniga ulardan foydalanib ham bir xil natijaga erishish mumkin. Hozirgi kunda multimedia ilovalari yaratish texnologiyalarini o‘rgatuvchi avtomatlashtirilgan tizimlar juda kam, ularni topishning iloji ham yo‘q. Ushbu mavzuda darslar, kitoblar va maqolalar to‘plamiga ega bo‘lgan Internet tarmog‘i sahifalari ham shunday tizimlarga o‘xshaydi. Bunday saytlarning asosiy qismi “Multimedia elementlari yaratish uchun flash darslari” yoki Macromedia Directorda multimedia yaratish” mavzulariga yo‘naltirilgan.

Multimedia taqdimoti turlari Interfaol multimedia taqdimoti – iyerarxik tamoyil asosida tizimlangan va maxsus foydalanuvchi interfeysi orqali boshqariladigan multimedia komponentlari majmui.

Foydalanish maqsadidan kelib chiqib, interfaol taqdimotlar shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘linadi:

korporativ multimediali taqdimot;

multimediali katalog;

mahsulot taqdimoti;

o‘rgatuvchi yoki test dasturi;

erkin foydalanishga ruxsat berilgan kompyuterlar uchun multimedia qobig'i; elektron nashr yoki multimedali kitob.

Chiziqli multimedia taqdimoti – murakkab grafika, videoqo'yilma, ovoz jo'rligi ta'minlangan va navigatsiya tizimiga ega bo'lmagan harakatli rolik.

Chiziqli taqdimotlar mo'ljallanishiga ko'ra shartli ravishda quyidagi shakllarga bo'linadi:

stend shaklidagi multimedia taqdimoti;

elektron doklad yoki jo'rlikdagi taqdimot;

sales-taqdimot;

promo-rolik;

intro-rolik;

ekran himoya lavhalari (ScreenSavers).

Maxsus multimedia yechim.

Shakllantirilgan ssenariylar bilan multimedia taqdimoti Shakllantiriladigan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlarida ularni boshqarish bo'yicha foydalanuvchi imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. "ScenePro 2" tizimi yordamida taqdimotga quyidagi funksional imkoniyatlar joriy etilmoqda:

- multimedia taqdimotining daraxt shaklidagi to'zilasini

shakllantirish;

- ssenariylarni shakllantirish – daraxtning har bir bosqichi uchun

taqdimotning mazmuniy qism(modul)larini ko'rsatish ketma-ketligini tanlash;

- namoyish etish uchun tayyor ssenariylardan foydalanish;

- ovoz jo'rliklarini alohida boshqarish.

Shakllantiriladigan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlari o'z ichiga interfaol va chiziqli multimedia ilovalari imkoniyatlarini birlashtirishi mumkin.

Multimedia ilovalarini ishlab chiqish texnologiyasi

Hozirgi vaqtda ko'plab kompaniya va firmalarda seminarlar, uchrashuvlar, treninglar va boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun turli kompyuter texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Ma'lumot mazmunga boy, esda qoladigan va ko'rgazmali bo'lishi uchun ko'proq multimedia texnologiyalari ishlatiladi. Bular matn, grafika va ovoz kabi ma'lumotning turli shakllarini qayta ishlashga imkon beruvchi multimedia apparat vositalari bo'lish bilan birga amaliy dasturlar paketlari ham. Multimedia bir necha ta'rifga ega:

- Multimedia – turli ma'lumotlarni ishlab chiqish, ishga tushirish, qayta ishlash vositalarini qo'llash tartiblarini ta'riflovchi texnologiya;

- Multimedia – kompyuter apparat ta'minoti (kompyuterda kompakt disklar o'qish qurilmasi – CD-Rom Drive, uning yordamida ovozli va videoma'lumotni eshittirishga yordam beradigan ovoz va videoplata, joystick va boshqa maxsus qurilmalarning mavjudligi);

• Multimedia – bu bir necha ma'lumot taqdim etish vositalarining bir tizimga birlashishi. Odatda multimedia deganda matn, ovoz, grafika, multiplikatsiya, videotasvir va fazoviy modellashtirish kabi ma'lumot taqdim etish vositalarining kompyuter tizimidagi birlashishi tushuniladi. Bunday vositalarning birlashishi ma'lumot qabul qilishning yangi sifatli darajasini ta'minlaydi: inson passiv ravishda mahliyo bo'libgina o'tirmasdan, balki faol ishtirok etadi ham. Multimedia vositalari bilan ishlovchi dasturlar ko'pmodallidir, ya'ni ular bir necha sezgi organlariga bir vaqtda ta'sir qilgani uchun auditoriyaning qiziqishi va e'tiborini tortadi. Multimedia ilova mazmuni muallif tomonidan ssenariy tayyorlash paytida atroflicha o'ylanadi va texnologik ssenariyni ishlab chiqishda aniqlashtiriladi. Ta'limiy ma'lumot taqdim etishning an'anaviy shakli – matn va statik grafika ko'p asrlik tarixga ega bo'lsa, multimediadan foydalanish tajribasi yillar bilan o'lchanadi.

Illyustratsiya, jadval va chizmalar mavjud bo'lgan animatsiya elementlari va ovoz jo'rligida taqdim etilayotgan chiroyli bezalgan multimediali ilova o'rganilayotgan materialni qabul qilishni osonlashtiradi, tushunish va eslab qolishga yordam beradi, ta'lim oluvchining bilim olishga bo'lgan faolligini oshirib, predmetlar haqida aniqroq va to'laroq tushunchaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Sifatli multimedia ilovalari ishlab chiqishga yo'naltirilgan turli tuman, bir-biridan farqli texnologik usullar mavjud. Ushbu ilovalarni yaratish va ulardan foydalanishda bir qator asosiy texnologik tavsiyalarga amal qilish kerak.

Multimedia ilovalarini yaratish uchun asos sifatida materialni elementlarga bo'lish va iyerarxiya tarzida ko'rgazmali ravishda taqdim etishga asoslangan holda tizimlashtirish usulini o'zida mujassam etgan materialni qamrab olish modelini olish mumkin.

• Multimedia ilovasini loyihalashning boshlang'ich bosqichida materialni qamrab olish modeli quyidagilarga imkon beradi:

- material mazmunini aniq belgilash;
- mazmunni ko'rgazmali, aniq va ochiq tarzda taqdim etish;
- multimedia ilova komponentlari tarkibini aniqlash.

Kompyuter ekranidagi ma'lumotni vizuallashtirish usullarini ishlab chiqishda psixologiya yutuqlarini hisobga olish kerakligi bir qator umumiy tavsiyalarni shakllantirishga yordam beradi:

- ekrandagi ma'lumot tizimga keltirilgan bo'lishi kerak;
- vizual ma'lumot davriy ravishda tovushli ma'lumotga almashib turishi kerak;
- rang yorqinligi va/yoki tovush balandligi davriy ravishda o'zgarib turishi kerak;
- vizuallashtirilayotgan material mazmuni juda ham sodda yoki juda ham murakkab bo'lmasligi kerak.

Ekrandagi kadr formatini ishlab chiqishda va yaratishda ko‘rish maydonini tashkil etishni belgilovchi ob'yektlar orasida maqsad va munosabat borligini hisobga olish tavsiya etiladi. Ob'yektlarni quyidagicha joylashtirish tavsiya qilinadi:

- bir-biriga yaqin, ya'ni ko‘rish maydonida ob'yektlar bir-biriga qanchalik yaqin bo‘lsa, ular shunchalik katta ehtimol bilan yagona, yaxlit obrazni tashkil qiladi;
- jarayonlar o‘xshashligi, ya'ni obrazlarning o‘xshashligi va yaxlitligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, ular shunchalik katta ehtimol bilan uyg‘unlashadi;
- davom etish xususiyatlarini hisobga olgan holda, ya'ni ko‘rish maydonida tartibli ketma-ketlikning davom etishiga mos keladigan joylarda joylashgan elementlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, ular shunchalik katta ehtimol bilan yaxlit yagona obrazga birlashadi;
- ob'yektlar shakli, harf va raqamlar o‘lchami, ranglarning to‘qligi, matnning joylashishi va boshqalarni tanlashda predmet va fonni belgilashning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda;
- vizual axborotlarni ortiqcha detallar, yorqin va kontrast ranglar bilan bezamagan holda;
- xotirada saqlash uchun mo‘ljallangan materialning rangini o‘zgartirish, tagiga chizish, shrift o‘lchamini va stilini o‘zgartirish orqali ajratish.

Multimedia ilovalarini ishlab chiqishda turli rang va fonda tasvirlangan ob'yektlar insonlar tomonidan turlicha idrok qilinishini hisobga olish kerak. Vizual axborotlarni tashkil etishda predmetlarning fonga nisbatan kontrasti muhim rol o‘ynaydi. Kontrastning ikki turi mavjud: to‘g‘ri va teskari. To‘g‘ri kontrastda predmetlar va uning tasvirlari fonga nisbatan to‘qroq, teskari kontrastda esa ochroq bo‘ladi. Multimedia ilovalarida odatda har ikki turidan foydalaniladi, turli kadrlarda alohida va bitta kadr doirasida birgalikda. Ko‘p hollarda teskari kontrast ustunlik qiladi.

Multimedia ilovalarining to‘g‘ri kontrastda ishlashi afzalroq hisoblanadi. Bu holda yorqinlikning ko‘payishi ko‘rinishning yaxshilanishiga, teskari holatda esa yomonlashishiga olib keladi, lekin teskari kontrastda namoyish etiladigan harf va belgilar, kichik o‘lchamda bo‘lganda ham to‘g‘ri kontrastga nisbatan aniqroq va tezroq o‘qiladi. Tasvir qismlarining nisbiy o‘lchamlari qanchalik katta va uning yorqinligi yuqori bo‘lsa, kontrast shunchalik kichik bo‘lishi kerak. Ko‘rish maydonida yorug‘likning bir me'yorda taqsimlanishi orqali ekrandagi axborotlarni erkin qabul qilishga erishiladi. Kompyuter ekranidan axborotlarni o‘rganishni optimallashtirish uchun multimedia ilovalarini ishlab chiqaruvchilarga mantiqiy urg‘ulardan

foydalanish tavsiya etiladi. Ta'lim oluvchining diqqatini ma'lum bir ob'yektga jalb qilishga yo‘naltirilgan usullar mantiqiy urg‘ular deyiladi. Mantiqiy urg‘ularning ruhiy ta'siri ta'lim oluvchi tomonidan bosh ob'yekttni topishga sarflanadigan vaqtning kamayishi va diqqatni shu ob'yektga jalb qilish bilan bog‘liq.

Mantiqiy urg'ularni yaratish uchun aksariyat hollarda quyidagi usullar tez -tez ishlatiladi: asosiy ob'yektni yanada yorqinroq rang bilan tasvirlash, o'lchamini, yorqinligini, joylashuvini o'zgartirish yoki shu'la taratuvchi rang bilan ajratish. Mantiqiy urg'uni son jihatidan uning intensivligi bilan baholash mumkin. Intensivlik ob'yekt rangi va yorqinligining fonga nisbatan mutanosibligiga, ob'yektning nisbiy o'lchamlari tasvir fonidagi predmetlar o'lchamiga nisbatan o'zgarishiga bog'liq. Yanada yorqinroq yoki kontrastliroq ranglar bilan belgilash yaxshiroq hisoblanadi, o'lchamini yoki yorqinligini o'zgartirish, shu'la taratuvchi rang bilan ajratish unchalik yaxshi chiqmaydi.

6-Ma'ruza:O'qitishda multimedia texnologiyalari.

Internet tarmog'i va uning tashkil etilishi

Reja:

1. O'qitishda multimedia texnologiyalari
2. Internet tarmog'i. Internetga bog'lanish usullari

O'zbekiston milliy ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia vositalarini qo'llash tajribasi shakllanib bormoqda. Negaki bu ayni vaqtda zamon talabidir. Taraqqiy etib borayotgan informatsion vositalar jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanishining asosini belgilovchi an'anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashishi, intellektual faoliyati, mustaqil ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi. Katta hajmdagi ma'lumotni saqlash, uzatish, qabul qilish bilan bog'liq axborot yaratish jarayoni inson faoliyatini turli soxalarida kompyuter texnologiyalarini rivojlantirishlarini ko'zda tutadi. Inson tafakkuri shu qadar taraqqiy etib bormoqdaki, bunda texnikalashtirish va kompyuterlashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarishning turli soxalari, balki madaniyat va ta'lim soxalariga ham dadil kirib bormoqda. Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'tardi. Bu o'z o'rnida ta'lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko'rib chiqish uchun yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug'dirdi. Bugungi kunda jamiyatimizning turli sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislarning professionallik darajasi ularning kompyuter texnologiyalarini egallaganligi bilan ham belgilanadi. Bu hol zamon talabiga aylanib qoldi. Mazkur talabga javob berish uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonida, ya'ni ta'lim muassasalarida yetarli baza yaratilishi kerak. Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar deganda, an'anaviy va noan'anaviy

metodlar bilan bir qatorda ta'limni kompyuterlashtirish ham tushuniladi. Shu manoda tobora shakllanib borayotgan kompyuter-axborot madaniyati axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini xosil qiladi. Bunda inson inofrmation koinot bilan o'zaro muloqotga kirishadi. Telekommunikasiya (telefon, televideniye, radio) tarmoqlarining kompyuter tarmoqlari bilan birikishi yagona jahon axborot makonini-multimediani tashkil etadi. Ushbu makonning eng muhim qismi Internet tarmog'i ayniqsa uning giper-media xizmatlari (Vorl-Vide Veb), gipermediapochta, videokonferensiyalardir.

Multimedia ("ko'p muhitlik" degan ma'noni bildiradi)-zamonaviy axborotlar texnologiyasi bo'lib, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko'rinishlari-matn, jadval, grafika, nutq, animatsia, multiplikatsiya), video tasvir, musiqa yordamida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishash va uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia "mnson-kompyuter" interaktiv (diologig) muloqotning yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, unda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Multimedia vositalaridan xordiq chiqarish, ta'lim olish va reklama kabi sohalarda foydalaniladi. Multimedia vositalari asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim berish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahamiyatga ega. Unda beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqtni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan malumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning passiv tinglovchi sifatida ishtirok etishi qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tadbiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsional-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faolashtiradi. Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rttdan bir qismini, ko'rgan materiallarining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanganda esa bu ko'rsatkich 75 % tashkil etadi. Shu bois katta hajmdagi axborotni qabul qilish, tushunish hamda voqeyilikka nisbatan faol va ma'suliyatli munosabatni tarbiyalashning psixofiziologik va estetik xususiyatlarini hisobga oluvchi multimedia nazariyasini hususan multimedia pedagogikasini yaratishga intilish kerak. Multimediani qo'llash uchun quyidagi texnik vositalar kerak bo'ladi: kompyuter, lazer disklarni o'qiydigan SD ROM qurilmasi, SI-ovoz xaritasi, AS faol kolonka, SD- kompakt disk eng zamonaviy kompyuterlarda yuqoridagi qurilmalarning ba'zilar kompyuter ichiga joylashtiriladi. Ta'lim jarayonida multimediani qo'llashda o'qituvchiga hozircha dasturlovchi mutaxassis yaqindan yordam berishi kerak. Dastur tuzuvchilar tomonidan rus va chet tillarni tez va oson

o'rganishga yordam beruvchi dasturlar ishlab chiqilgan. Biroq o'zbek tilini o'rganish bo'yicha deyarli dasturlar mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari uchun DTS yaratilgan, o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda va davlat tiliga katta e'tibor berilmoqda. Ammo o'zbek tilini o'rganish bo'yicha mukammal multimedia dasturlari ishlab chiqilgan emas. Bunda o'zbek tilini o'qitish bo'yicha multimedia dasturlarini tuzish bir qator moddiy qiyinchiliklar bilan bog'liq. Biroq hajmi uncha katta bo'lmagan (masalan, darsning 10-15 minutiga mo'ljallangan) oddiy vositalar va bir dona shaxsiy kompyuterlar foydalanadigan multimedia dasturining ssenarisini yozishga urinib ko'rish metodist va boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dolzarb muammo va ayni vaqtda qiziqarli mashg'ulot bo'lishi kerak.

Umuman olganda, ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi usullari mavjud:

1. Multimedia darsligi.
2. Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar to'plami keltirilgan metodik tavsiyalar.
3. O'rganilayotgan mavzular bo'yicha nazariy bilimlar boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan qanday darajada o'zlashtirilayotganini tekshirishga mo'ljallangan test dasturi.
4. Bir tildan ikkinchiga yoki bir alifbodan ikkinchisiga o'tirish;
5. Elektron virtual kutubxona;
6. Har bir talaba usun amaliy topshiriqlarni tayyorlash va bosib chiqarish dasturi;
7. Distant uslubida o'qitish, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilar ma'lum masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimi.
8. Internet tarmog'iga ulangan multimedia kompyuterlari.
9. Printer (topshiriqlarini tayyorlash va test natijalarini chiqarish uchun).
10. Kompyuter ulangan proyektor yoki aqdim etish texnologiyasi.

Quyida biz shu usullardan biri, kompyuterlashgan darslarning eng oddiy turi mashg'ulotni taqdim etish texnologiyasi yordamida, ya'ni ko'rgazma sifatida o'tkazish haqida to'xtalmoqchimiz. Bu usulda dars o'tkazish uchun o'qituvchiga ovoz xaritasi va kolonkasi mavjud bo'lgan kompyuter, multimedia proyektori va MS Power Point 97 dasturi yordamida o'tilajak dars uchun kompyuterda slaydlar yaratiladi. Slaydlar ma'lum mavzuni yorituvchi matn, rasm, lug'at, grammatik

qoidalar bilan bog'liq bo'lgan jadvallar, animatsiya effektlari, o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun testlar, ovoz, video rolik va hokazolardan tashkil topadi. Ular muayyan mantiqiy ketma-ketlikda biriktiriladi. Slaydlarni almashtirishning vaqti (interval) belgilanadi. O'qituvchi tasvirni ko'radi, eshitadi.

Bunday dars o'tishning texnik jihatdan ikki usuli mavjud:

1-usul. Kompyuter tarmog'i bor bo'lsa har bir o'quvchi o'z monitorida ko'radi;

2-usul. Multimedia texnologiyasi asosidagi dars namunasini .

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ta'lim muassasasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'zbek tili fanini tanladik. Darsni rejalashtirishda, slaydlar tayyorlashda quyidagi omillarga alohida e'tibor berishimiz kerak. Ta'lim muassasasida esa mavjud bilimlar faqat takomillashtiriladi, ya'ni lisoniy bilimlar o'zbek tilining til sohalari bo'yicha emas, balki yagona maqsadga yo'naltirilgan ravishda nutqiy ehtiyoj zaruriyatdan kelib chiqqan holda kompleks beriladi. Natijada o'quvchilarda mavzu bo'yicha o'z fikrini o'zbek tilida mustaqil ifoda eta olish ko'nimalarini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Misol uchun, rusiyzabon o'quvchilar bilan o'tilajak bir turkum darslarning umumiy sarlavhasi-“O'zbekiston Respublikasining siyosiy hayoti”. Bu darsning mazmunini quyidagi mavzular orqali yoritish mumkin.

1.O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari (davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiya).

2.Mustaqil mamlakatimizning muhim siyosiy sanalari.

3.O'zbekiston Respublikasi Parlamenti.

4.Mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar va harakatlar.

1-slayd. Savollar: 1) Davlat ramziy belgilari tushunchasini izohlang. 2) O'zbekiston davlat mustaqilligining ramzlariga nimalar kiradi? O'quvchilar savollarga og'zaki javob beradi, o'qituvchi javobni baholaydi.

2-slayd. Sarlavha: O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i; O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ining tasviri; Qisqa matn; Qiyin so'zlarning o'zbekcha-ruscha lug'ati. Davlat bayrog'i haqidagi matnda ot+sifat birikmasi ko'p qo'llaniladi. Ushbu birikmaning ona tilidagi grammatik xususiyatlari tubdan farq qiladi. Shuning uchun eslatma sifati mayda shriftda o'zbek tillaridagi ot+sifat birikmasining qisqa qiyosiy karakteristikasi berilishi mumkin.

3-slayd. Sarlavha: O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi; gerb tasviri; matn; ushbu matnda gerbning har bir elementiga bkruvchi abzas boshida mazkur elementning tasviri keltiriladi; matn bo'yicha savollar.

4-slayd. Sarlavha: O'zbekiston Respublikasi madhiyasi; madhiya; uning mualliflari haqida qisqacha matn; madhiya matni; uning ijrosi. Madhiyani kompyuterda ijro etib bo'lingach faqat uning kuyi jaranglaydi. So'zini esa o'quvchilar kuylaydilar.

5-slayd. O'tilgan mavzu mustahkamlash uchun savollar (masalan Davlat ramziy belgilariga nimalar kiradi?) O'zbekiston Ruspublikasi davlat gerbi; davlat bayrog'i; madhiyasi; valyutasi qachon va kim tomonidan qabul qilingan yoki tasdiqlangan? Madhiya mualliflari kim? Hozirjavob o'quvchilar baholanadi.

6-slayd. Videotasvir (bunday videotasvirni O'zbekiston televideniyasining birinchi kanalida yozib olish mumkin).

O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi yangraydi. Uning fonida davlatimiz bayrog'ining turli mamlakatlarida bo'lib o'tadigan nufuzli anjuman va sport musobaqalarida ko'tarilishi, gerbning qo'llanilish o'rni, umuman, davlatimiz ramziy belgilarining dunyo miqyosida tanilib borishi haqidagi videolavha ko'rsatiladi. Ushbu slayd vatanparvarlik ruhida o'tkazilgan darsga yakun yasaydi. Eslatma: 4 va 6-slaydlarni tayyorlashda dastur tuzuvchi qo'shiqlar ijro etish uchun qo'llaniladigan MR3 va vidio lavhani kompyuterda o'tkazish uchun qo'llaniladigan MR4 formatlaridan foydalanish mumkin. Shu tariqa har bir mavzu yoki mavzular bo'yicha slaydlar yaratib, ko'rgazmalar paketini (majmuini) tayyorlab qo'yish va undan unumli foydalanish mumkin. Chunonchi grafik tasvir, jadval va diagrammalardan grammatik mavzuni yoritishda, ovoz yordamida talaffuzi qiyinroq bo'lgan so'zlarni o'rgatishda, animatsiya va vidio vositalaridan biror badiiy asarning parchasi ustida ishlashda sxema va fotosuratlardan o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish maqsadida foydalanish mumkin. Slayd yaratishda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim: slaydlardagi matn, rasim, videolavha va boshqalar mantiqan o'zaro bog'liq bo'lishi, bir-birini to'ldirishi kerak; animatsiya, ovoz, video kabilar o'quvchilarni asosiy matndan chalg'itmasligi kerak. Ketma-ket kelgan slaydlarda bir xil emas balki, turli texnologik vositalardan, ayniqsa o'quvchini o'ylantirib qo'yadigan, izlanishga, mustaqil fikr yuritishga va o'z fikrini o'zbek tilida bayon etishga undaydigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuni aytib o'tish kerakki, taqdim etish axborot texnologiyasining samaradorligi asosan o'qituvchining fantaziyasiga, topqirligiga, pedagogik va aktyorlik mahoratiga bog'liq.

Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonini tashkil etish metodikasi an'anaviy o'qitish usulidan tubdan farqlanib, u boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilar uchun:

o'quv materiallarini obrazlar ko'rinishida taqdim etish;

o'qitishning differensial va individual holatda bo'lishi;

o'qish va o'zlashtirish jarayonini baholab borish, teskari aloqa bog'lash;

o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilib borish va tuzatish;

o'rganilayotgan mazularni namoyish etish va ularning o'zaro aloqadorligini kuzatish;

boshlang'ich sinflarda o'tiladigan va o'zlashtiriladigan fan mavzularini animasiya, grafika, multiplikasiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun ko'nikmalar hosil qilish; o'quvchilarning mustaqil ishlashlari va mavzularni o'zlashtirishlari uchun yangi sharoit yaratish kabilar. Bu boradagi olib boriladigan ishlar ta'lim-tarbiya tizimidagi zamonaviy axborot texnologiyalarining multimedia imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya ishlarini tashkillashtirish va joriy qilish bilan bog'liqligi, ulardan maqsadli foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga olib keladi. Bu jarayonlarda multimedia vositasi boshlang'ich sinfdagi o'rganiladigan har bir fanga tatbiq etish orqali bu fanlarning o'zlashtirish qamrovini oshiradi. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari asosida multimedia imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'zlashtirish va o'rganish jarayoni ortib boradi. O'quvchilar kompyuter xotirasiga joylashtirilgan ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi fotosuratlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish ssenariylari, bu yo'nalishdagi materiallarga tegishli tayanch iboralar, atamalar va tushunchalarning mazmuni bilan tanishib boradi hamda ulardan foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Multimedia quyidagi xususiyatlarga ega:

- axborot turlarini matn, jadval, turli xil bezaklar, nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmdagi parchalar, animasiya ko'rinishidagi axborotlarni o'z ichiga oladi;

- turli xil axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prsessorning harakatchanligini, ma'lumotlarni uzatishning o'tkazish qobiliyatini,


tezkor hajmli va katta sig'imli xotirani, kompyuter kanallari bo'yicha almashish tezligini taxminan ikki baravar oshirish talab etiladi;

- "o'quvchi-komputer-o'qituvchi" interaktiv muloqotning yangi darajasini ta'minlanishi, muloqot jarayonida o'quvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni olishi.

Demak, multimediali texnologiyada ta'lim jarayoni quyidagicha kechadi. Kompyuterga o'rganiladigan materialni kiritish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga undaydi, o'quvchilarning ta'lim materiallarini xotirada saqlash darajasini oshiradi. Shu bilan birgalikda ta'lim materiallariga qiziqishini orttirib borib, kompyuterda ishlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarining zamonaviy jarayonida axborot texnologiyalaridan, jumladan, multimedia vositalaridan foydalanish quyidagi muhim muammolarni yechishda yordam beradi: Ta'lim jarayonini faollashtirish; o'quv faoliyatining samaradorligini oshirish; talabalarning mustaqil ravishda ishlash madaniyatini rivojlantirish; egallayotgan kasbiga ijodiy yondoshish ko'nikmasini hosil qilish; mustaqil ta'lim doirasini kengaytirish, xullas, yetuk mutaxxasislarni yetishtirish. Shu sababdan hozirgi paytda pedagog va dastur tuzuvchisi mutaxassislarning birlashib, turli fanlardan multimedia darsliklari yaratish ta'im samaradorligini oshirish uchun kutilgan natijalarni berishini unutmashimiz kerak.

Internet tarmog'i. Internetga bog'lanish usullari

Internet—bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya'ni "International Network" –



xalqaro tarmoq va "Interconnected networks" «tarmoqlararo» degan ma'noni anglatadi.

Internet tarmog‘ining rivojlanish tarixi.

1969-yili 4 tarmoqdan iborat AQSHning eng nufuzli tekshirish institutlarida joylashgan ARPANET tarmog‘i yaratildi. Boshida olimlarning tadqiqot ishlarida foydalanilgan tarmoq, keyinchalik ularning safsata sotishning sotishning kompyuterlashgan zanjiriga aylanadi. Ammo shunday tarmoq yaratishning uzi katta muvaffakiyat edi. 70-yillarda tarmoq ancha usdi. Endi tarmoqning tuzilishi unga xoxlagan kompyuterlarni ulash imkoniyatini berdi. Keyinchalik 1974- yilda tarmoqlarni birlashtiruvchi TCP/IP protokoli tuzildi va tarmoqning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Chunki tarmoqqa ixtiyoriy kompyuterni ulash imkoniyati paydo bo‘ldi. 1983-yilda ARPANET-INTERNET deb atala boshlandi va juda kuchli, bir-biri bilan boglangan kompyuterlar va tarmoqlar to‘plamidan iborat tizimsiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasidagi Internet tarmog‘ining rivojlanishi Respublikamizda milliy Internet-segmentini rivojlantirish bo‘yicha ishlar O‘zRVazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2002 yil 6 iyundagi 200-son qarori bilan tasdiqlangan “2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturiga” asosan amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda Respublikamizda Internet foydalanuvchilarining umumiy sonli 7,3 mln. kishidan ortdi, shundan 3,5 mln. kishi, ya‘ni 1000ta fuqarodan 111tasi aloqa liniyalari orqali Internetga shaxsiy kompyuterlari orqali ulanadi. Mobil Internet foydalanuvchilarining soni esa hozirgi kunda 3,8 mln. Kishini tashkil etadi. Respublikada .UZ domen zonasida ikkinchi darajali domen nomlarini ro‘yxatga olish bo‘yicha 7ta registratorlar faoliyat ko‘rsatadi: Tomas, Billur.com, Arsenal-D, Sarkor Telecom, VSS, TVInform va Simus. UZ Milliy domen zonasidagi domen nomlarining soni 11088 tani tashkil etdi, yil boshiga nisbatan bo‘lgan o‘sish 16%ni tashkil etdi. Internet tarmog‘iga ulash xizmatlarni taqdim etuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soni bugungi kunda 982tani tashkil etadi. Internetning asosiy tushunchalari: Web sayt - biror bir sohaga, faoliyatga, voqea va xodisaga bag‘ishlangan ma’lumotlarni o‘zida jamlagan Internet sahifalar majmui. Internet provayder - Internet tarmog‘i xizmatlaridan foydalanishni ta’minlab beruvchi yuridik shaxs. Lokal tarmoq Lokal tarmoq Foydalanuvchi Provayder Provayder Foydalanuvchi Yuqoritezlikkaega bo‘lganaloqa liniyasi Aloqa liniyalari Komunikatsion aloqa liniyalari modemlar Elektron pochta - Internet tarmog‘i orqali tezkor ma’lumotlar va xabarlar almashish tizimi Internet manzil



Tashki faks/modem



Simsiz modem




Ichki modem

(URL) - Internet tarmog'ida joylashtirilgan axborot resurslarining murojaat manzillari. Internet o'z – o'zini shakllantiruvchi va boshqaruvchi murakkab tizim bo'lib, asosan uchta tarkibiy qismdan tashkil topgan: Internet tarmog'ining texnik ta'minoti har xil turdagi kompyuterlar, aloqa kanallari hamda tarmoqning texnik vositalari majmuidan tashkil topgan. Internet tarmog'ining dasturiy ta'minoti tarmoqqa ulangan xilma-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida ishlashni ta'minlovchi dasturlar. Internet tarmog'ining axborot ta'minoti Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjatlar, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir, veb-sayt va hokazo ko'rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan. Modem tushunchasi va uning vazifasi Modem modulyator-demodulyator so'zlarining qisqartmasi hisoblanadi. Modem signalni (axborot) telekommunikatsiya kanallar bo'ylab uzatishni ta'minlaydi. Modem yordamida internetda oddiy analog telefon tarmog'i orqali bog'lanish mumkin. Bunday modemlarning nazariy jixatdan eng yuqori foydalanish tezligi 56 Kb/sek. ni tashkil etadi. Modem ichki va tashqi turlarga bo'linadi va har ikkalasi ham internetga yoki telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanish uchun xizmat qiladi.

Internet tarmog'ining vazifasi va undan foydalanish maqsadlari Internet tarmog'ining vazifasi internet tarmog'i abonentlariga veb-hujjatlarni o'qish, elektron pochta, fayl uzatish vaqabul qilish, muloqotda bo'lish, tarmoqda hujjatlarni saqlash va ular bilan ishlash xizmatini ko'rsatish. Internet tarmog'idan axborotlarni almashish, masofaviy ta'lim olish, konferensiyalar o'tkazish, veb-saytlarni tashkil etish, elektron pochta ni joriy qilish, muloqot o'rnatish va shu kabi maqsadlarida foydalaniladi. Mobil Internet – xarakatdagi abonentlar uchun mobil aloqa tarmoqlari orqali internet resurslaridan foydalanish texnologiyasi. Mobil Internetning qulayligi shulardan iboratki, bunda foydalanuvchining qayerda va qay holatda bo'lishidan qat'iy nazar u mobil aloqa tarmog'i orqali Internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatga ega. Mobil pochta–internet resurslaridan foydalangan holda abonentning mobil telefoni orqali shaxsiy elektron pochta xizmatidan foydalanish imkoniyati. Cimatfon (smartphone) inglizchadan tarjima qilinganda “aqlli telefon” ma'nosini anglatadi. Funktsionalligi hujjatidan cho'ntak shaxsiy kompyuterga olingan. Internet planshetlar – bu maxsus qurilma bo'lib, shaxsiy kompiyuterlarning klassik namunasidir. Planshetlar faqatgina ekrandan tashkil topgan bo'lib, boshqa qo'shimcha qurilmalar (sichqoncha klaviatura) virtual ko'rinishda tashkil etgan. WWW tushunchasi WWW (World Wide Web) – butun jahon o'rgamchak to'ri deb nomlanuvchi tarmoq. WWW – bu Internetga ulangan turli kompyuterlarda joylashgan o'zaro bog'langan hujjatlarga murojaat qilishni ta'minlab beruvchi tarmoq tizimidir. Aynan mana shu xizmat Internetdan foydalanishni soddalashtirdi va ommaviylashtirdi. WWW asosida to'rtta poydevor mavjud: –Barcha hujjatlarning yagona formati (shakli); –Gipermatn; –Hujjatlarni ko'rish uchun maxsus dasturlar (brouzer); –Yagona manzilni ko'rsatish tizimi (domen); Internet provayderlariva ularning vazifalari Internet provayder – Internet tarmog'I

xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotdir. Internet provayderlarining ikki turi mavjud: Internetga ulanish va ulanish kanallarini taqdim etuvchi provayder va internet xizmatlarini taqdim etuvchi provayder. Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provayderlar tomonidan www, elektron pochta, xosting (veb resursarni joylashtirish) kabi Internet xizmatlari ko'rsatilmoqda. Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi bir qancha Internet provayderlari xizmat ko'rsatmoqda, bular: – UzNet, – Sarkor Telecom, – Sharq Telecom, – TPS, – ARS Inform, – Cron Telecom va boshqalar. Internet tarmog'i xizmatlari va ulardan foydalanish Internet provayderlar quyidagi xizmatlarini taqdim etadi: WWW - Internet resurslarini tashkil etish E-mail - Elektron pochta xizmati Web hosting - Shaxsiy veb saytlarni Internetga joylashtirish Internet conference - Internet orqali video muloqot Searching - Internet qidiruv tizimlaridan foydalanish FTP - fayllarni almashish protokoli IPTV - Internet tarmog'i orqali raqimli televideniya IP telefoniya - Internet tarmog'i orqali telefon so'zlashuvlar URL, DNS va IP-adres DNS (ingl. Domain Name System — domen nomlar tizimi) - domenlar haqida ma'lumot olishga mo'ljallangan kompyuter taqsimot tizimi. Ko'pincha xost nomi bo'yicha IP-adres olish uchun, pochta markasining marshruti haqida ma'lumot olish uchun ishlatiladi. 1984 yilda ishlab chiqilgan. Domen (ingl. domain — soha) — nomlar daraxtidagi tugun (unga bo'ysunuvchi nomlar bilan birga (agar shunday nomlar mavjud bo'lsa)), ya'ni nomlar daraxtidagi nomlangan shox. Domenidagi nomlar strukturasi iyerarxiyadagi tugunlarning kelish tartibini aniqlaydi; domen nomi chapdan o'ngga qarab (kichik domendan yuqori sathdagi katta domenga qarab) o'qiladi (ahamiyati bo'yicha). Internet axborot muhitini tashkil etuvchi elektron ma'lumotlarning har biri kompyuterlarning IP adreslaridan boshqa o'zlarining takrorlanmas, unikal adreslariga ega. Bu adres URL (Uniform Resource Locator) - adres deb ataladi. Agar Internet tarmog'ida biror bir ma'lumot e'lon qilingan bo'lsa, u yagona takrorlanmas URL adresga ega. Kompyuterda bir nom bilan ikkita fayl mavjud bo'lmaganidek, internetda ham ikki elektron ma'lumot bir xil URL-adresga ega bo'lmaydi. URL-adresga misol <http://tuit.uz/kafedri/informatika/Kudratov/index.php> Amaliyotda internetning real, fizik bog'lanishlar orqali tashkil topgan tarmog'idagi kompyuterlar bilan virtual axborot fazoni tashkil etuvchi elektron ma'lumotlari har xil adreslar yordamida ifodalaniлади. Internet tarkibiga kirgan har bir kompyuter to'rt qismdan tashkil topgan o'z adresiga ega, masalan: 142.26.137.07. Ushbu manzil IP (Internet Protocol) - manzil deb ataladi. Internetga doimiy ulangan kompyuterlar o'zgarmas IP-adresga ega bo'ladi. Agar kompyuter foydalanuvchisi internetga faqat vaqtincha ishlash uchun ulanadigan bo'lsa, u holda ushbu kompyuter vaqtincha IP-adresga ega bo'ladi. Bunday IP-manzil dinamik IP-manzil deb ataladi. Tarmoqda mavjud bo'lgan ixtiyoriy kompyuter IP-adresini bilgan holda,

unga har xil ko‘rinishdagi so‘rovlar bilan murojaat qilishi mumkin bo‘ladi. Bu so‘rovlar o‘sha kompyuterda saqlanayotgan elektron ma’lumotlar, ma’lumotlar



bazasi yoki bo‘lmasa undagi biror bir dasturni ishlatishga, o‘sha kompyuter tarkibiga kirgan texnik resurslar imkoniyatidan foydalanishga oid bo‘lishi mumkin va hokazo. Internet domen nomlari Internet manzillarida ishlatilib, ular mamlakat nomlarini, tashkilot va korxonalar faoliyatini anglatadi.

II. Amaliy mashg'ulotlarining soatlar bo'yicha taqsimoti

1-Amaliy:Multimedia tushunchasi, multimedia vosita va texnologiya sifatida. Multimedia-axborot turlari. Multimedining texnik ta'minoti. Multimediadan o'yinlarda foydalanish.

Reja:

1. Multimedia tushunchasi, afzalliklari
2. Multimedia vositalari va ularning ahamiyati. Mikrofon, audiokolonka, raqamli fotoapparat, videokamera vositalarining ahamiyati. Audio va video materiallardan foydalanish.
3. Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari.

Multimediya vositalari – bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir.

- Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi avzalliklariga ega: Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- Ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ortadi.

Multimedia vositalari

Multimedia vositalari yordamida axborotlarni matnli, tasvirli, tovushli va animatsiyali ko‘rinishda namoyish etish mumkin. Multimediali axborot resurslari animatsiyasi, audio va video ma'lumotlardann tarkib topadi.

Multimedia vositalari bu:

- nutqli axborotni kiritish-chiqarish qurilmalari (mikrofon, kuchaytirgichlar, tovush kolonkalari);
- Animasion va video ma'lumotlarni kiritish va chiqarish qurilmalari (videokameralar, videoprojektor va ekranlar)
- tovushli va video ma'lumotlarni saqllovchi optik disklar



Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari

Video va audio axboroti bilan ishlashning zaruriyati ma'lumotlarning katta hajmi va ularni o'zlashning yuqori tezligi bilan bog'liq, ko'plab muammolarni yuzaga keltirdi. Bu, audio-video axborotning so'ngi texnologiyalarini rivojlantirish va katta sig'imdagi jamgaruvchilarning yangi namunalarini yaratishning boshlanishi bo'ladi. Masalan, 650 Mb sig'imli va 150 kb/s hisoblash tezligidagi CD-ROM optik kompakt disk shu jumladandir. Multimedia uchun zamonaviy CD-ROM texnologiyalar taqdimnomasi ilk marta

1987 yili Sietldagi konferensiyada bo‘lib o‘tdi va bu sana video va audioaxborotli to‘laqonli multimedaning paydo bo‘lishi boshlanishi deb hisoblanadi.

Multimedia tarkib topishining bundan keyingi qadami CD-I texnologiyasi (Compact Disk Interactive - interaktiv videodisklar) bo‘ladi, ular kompyuter yordamida lazerli video-murvatni

boshqarish yo‘li bilan kompakt diskdan axborotni ixtiyoriy tanlashni tashkil etishga imkon beradi.

Bu texnologiyani Philips Electronics firmasi ishlab chiqadi va u Sony, IBM va Microware firmalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Multimedia va internet

XIX asrda telegraf va telefonning ixtiro qilinish bilan boshlangan va insoniyat sivilizatsiyasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqqan axborot kommunikatsiya texnologiyalari erasi, bugungi kunda o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga chiqdi desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, rivojlanishning turli bosqichlarida, tarkiban kengayib, funksional jihatdan boyib bordi: Telegraf orqali matn jo‘natish bilan, qandaydir daqiqalar ichida manzilga yetkazilgan xabar yoki yangilik, o‘z vaqtida, oddiy qog‘ozli pochta jo‘natmasi bilan yuborilgan va manzilga yetgunicha, kamida bir, ikki hafta talab qilingan kommunikatsiya usulini qanchalik inqilobiy tarzda o‘rin almashtirgan bo‘lsa, uning faqat matn uzatishga moslashganligi singari kamchiliklarini, Bell ixtiro qilgan telefon apparati to‘ldirdi. Popov ixtiro qilgan radioto‘lqinlarni masofaga maqsadli uzatish texnologiyasi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari olamida yana bir o‘ziga xos burilish yasab berdi. Zvorikinning elektron nur trubkasi jamiyatni axborotlashtirishning eng samarali vositalaridan biri – televideniye davrini boshlab bergan bo‘lsa, XX asrning 60-70 yillarida EHMLarning rivojlanishi asnosida yuzaga kelgan, kompyuter va tarmoq texnologiyalari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyotining mantiqiy davomi sifatida yuzaga chiqdi.

Biz sanab o‘tgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining har biri, o‘z zamonasi uchun muhim ahamiyat kasb etgani rost. Ularning har biri jamiyat hayotiga chuqur singib, hattoki, ma‘lum bir ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga ham sabab bo‘lgan. Xususan, yuqorida biz sanoqdan chetda qoldirgan – matbuotning taraqqiy etishi, jamiyatdagi savodxonlikning ortishiga qanchalik hissa qo‘shgan bo‘lsa, radio va teletranslaytsiyalar orqali, aholi tezkor usulda muhim siyosiy, madaniy va ma‘naviy axborot olish vositasiga ega bo‘lgan edi.

Bizning o‘z zamonamizda, shundoqqina ko‘z o‘ngimizda startga chiqqan uyali aloqa vositalari va internet texnologiyalari taraqqiyoti esa, yuqorida sanab, qisqacha ta‘riflab o‘tilgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo‘shini qudratiga yanada

quvvat bag'ishladi. Ayniqsa internet global tarmog'i kelgusi asrlarda ham, bizning davrimiz uchun o'ziga xos tashrif qog'ozi sifatida namoyon bo'lsa ajab emas.

Zero, bugungi kunimizda internet – dunyodagi axborot almashinuvi va kommunikatsiya vositalari orasida eng ilg'or va ommabop bo'lib, u, o'sha telegrafdan boshlab ixtiro qilingan barcha axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mantiqiy mohiyatlari – matnli xabar uzatish, tovush uzatish, tasvir uzatish kabilarni, o'zida yagona va yaxlit tizimga mujassamlashtirgan mukammal axborot-kommunikatsiya vositasiga aylandi. O'z ajdodlaridan farqli ravishda, endi internet, bir tomonlama axborot uzatish vositasi bo'lib qolmasdan, interaktiv axborot kommunikatsiya vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Bu jihatlariga ko'ra, internetni, yozuv va kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan bir qatorda, insoniyat tarixidagi uchinchi axborot inqilobi deb qarasak ham yanglishmagan bo'lamiz.

...Endilikda internet va uning ilg'or texnologiyalari qo'llanilmagan, foydalanilmagan soha «qoloq» sifatiga mansub desak ajablanmang! Zero, internet taqdim etayotgan qulayliklar tufayli, bugun biz, faqat qo'shni viloyatdagi yaqinlarimizgagina emas, balki, boshqa materikdagi tanish-bilishlarimizga ham videoqo'ng'iroqlar qilishimiz, foydalanilgan xizmatlarga haq to'lashimiz, mahsulotlarga buyurtma berishimiz va sotib olishimiz - tobora oddiy kundalik holatga aylanib bormoqda. Internet bizlarga taqdim etayotgan eng oddiy interaktiv xizmat – elektron xat-xabar almashinuv (e-mail yoki, ijtimoiy tarmoqlar)dan boshlab, elektron kutubxona (e-Library), elektron masofaviy ta'lim (e-learning) kabi, hamda, elektron tijorat (e-commerce), elektron to'lovlar (e-Payment), elektron birja (e-Exchange) kabi ilg'or interaktiv xizmat turlari, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga jadallik bilan kirib kelib bo'ldi. Endilikda, tomonlardan birining (yoki ikkisining ham) shaxsan hozir bo'lishi talab etilmaydigan xizmat ko'rsatish sohalarida internetni joriy qilish, ham iqtisodiy ham ma'naviy jihatdan maksimal samaradorlik beradigan darajaga erishmoqda. Umumiy xulosa qilib aytganda, internet, axborot kommunikatsiya texnologiyalari olamidagi o'z ajdodlarining barcha yutuq va imkoniyatlarini o'zida jamlagan, va ulardan farqli ravishda, bir tomonlama axborot taqdim etish vositasigina bo'lib qolmay, balki, interfaol, ko'p qirrali kommunikatsion vosita sifatida yuksak samaradorlik potentsiali namoyon qilmoqda...

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Davlat boshqaruvi, yoxud, «Elektron hukumat»Maqolamiz muqaddimasi orqali, gapni uzoqdan boshlab, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xususan internetning muhim iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga allaqachon kirib kelib, o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsata boshlaganiga urg'u berdik. Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy soha va iqtisodiyotning turli bo'g'inlarini boshqarish, rivojlantirish va samaradorligini orttirish maqsadida, sohaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish – bugungi zamon talabi bo'lgan dolzarb masaladir. Bunday sharoitda, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kuchli potentsialidan nafaqat ijtimoiy yoki iqtisodiy sohalar, balki, siyosiy sohada ham foydalanish, uni davlat boshqaruvi, davlat va jamiyat munosabatlari hamda,

2. Gradient (bir rangdan ikkinchisiga silliq o'tish);
3. Naqsh yoki tekstura.



Matnni formatlash slayd-shou yaratishda muhim qadamdir. Ko'p narsa testning o'qilishiga bog'liq.

Tahrirlash uchun sizga kerak:

- kerakli matn qismini ajratib ko'rsatish;
- keyin asosiy vazifalar panelidagi asboblardan foydalaning.


Odatiy bo'lib, matndagi har bir yangi qator markirovka qilingan ro'yxat sifatida ko'rib chiqiladi. Bu asboblari paneli orqali o'zgartiriladi. Power Point-da shuningdek, maxsus effektlarni, matn yo'nalishini, qatorlar oralig'ini o'zgartirish va hokazolarni o'rnatish uchun tugmalar mavjud. Slaydning ish maydonida tanlanganda grafik tasvir, asboblari panelida Rasm asboblari yorlig'i paydo bo'ladi.

U erda siz o'zgartirishingiz mumkin:

- Yorqinlik;
- Kontrast;
- Ko'rsatish uslubi;
- Rang;
- Hajmi.


Video: 10 daqiqa ichida taqdimot Animatsiya

Ma'lumotlar bilan to'ldirilgan slaydlarga chiroyli vizualizatsiya berilishi kerak. Bu "Slayd dizayni" vazifalar panelidagi "Animatsiya effektlari" yordamida amalga oshiriladi. Effektlarning katta ro'yxatidan siz slayddagi har bir ob'ekt uchun istalganini tanlashingiz mumkin. Keyin namoyish paytida ular ekranda chiroyli tarzda paydo bo'ladi. Bitta slaydga bitta effekt qo'llaniladi, lekin siz "Barcha slaydlarga qo'llash" tugmasini bosishingiz mumkin va u taqdimotning barcha slaydlarida bo'ladi.




Shuningdek, siz slayddagi har bir obyekt uchun animatsiyani sozlashingiz mumkin:

- uni tanlang va sichqonchaning o'ng tugmachasini bosing, "Animatsiyani sozlash" -ni tanlang;
- yoki "Animatsiya" - "Animatsiya sozlamalari" menyusiga o'ting.



Keyin o'ng tomonda panel paydo bo'ladi, unda siz har bir ob'ektga alohida effekt qo'shishingiz, shuningdek uning tezligini, saundtrekini va paydo bo'lish vaqtini sozlashingiz mumkin.



О'tishlarni qo'shish


O'tish bir saytni boshqasiga almashtirishda ishlatiladi. Yangi slayd darhol yoki asta-sekin paydo bo'lishi mumkin. Asta-sekin ko'rinish taqdimotni yanada chiroyli va qiziqarli qiladi.

О‘tishni o‘rnatish uchun slaydni tanlang va quyidagi manzilga o‘ting:

- Animatsiya;
- Animatsiya sozlamalari:
- Keyinchalik, o'zingiz yoqtirgan o'tish effektini, uning ovozini va jarayonning tezligini tanlashingiz kerak. Avtomatik o'tish ham sozlangan (keyin uning vaqti o'rnatiladi) va sichqonchani bosish orqali. O'tish har bir slayd uchun alohida amalga oshirilishi mumkin yoki uni bir vaqtning o'zida butun taqdimot uchun sozlashingiz mumkin.

Tugallash

Taqdimot oxirida yoqimsiz daqiqalarni oldini olish uchun slayd-shouning parametrlarini sozlashingiz kerak. **Bu "Slayd-shou" - "Namoyish sozlamalari" bandida amalga oshiriladi:**



Barcha asosiy display parametrlari bu erda o'rnatiladi:

- slaydni boshqarish;
- slaydni o'zgartirish;
- Slayd raqamlari.

Vaqtinchalik ko'rsatishni istamaydigan, lekin o'chira olmaydigan slaydlarni Slaydlar ko'rsatish menyusida ham yashirishingiz mumkin.

Ko'rinish tugallangan ish "Boshidan" tugmasini bosish orqali:

1. Sifatida saqlash...;
2. Saqlash joyini tanlang;
3. Asar nomini yozing;
4. Saqlash.

Microsoft PowerPoint- kompyuterda taqdimotlar yaratish uchun arzon va oddiy dastur. Turli xil vizual effektlar va dizayn mavzulari sizga tezda o'zingizning original va noyob taqdimotingizni yaratishga imkon beradi ommaviy nutq yoki maktab topshirig'i.

>

Eng samarali va zamonaviy usullar har qanday sohadagi yutuqlaringiz haqida gapiring - taqdimot qiling. Va bu dasturiy ta'minotni talab qiladi. Cyclone-Soft-da foydalanuvchilarga Windows 7/8/10 uchun torrent orqali rus tilida taqdimot dasturini yuklab olish uchun bepul Microsoft Office PowerPoint 2007 taklif etiladi. Microsoft dasturchilariga rahmat, elektron yaratish uchun juda qulay va ishlatish uchun qulay

vosita mavjud. deyarli har qanday media-kontentni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan namoyishlar, masalan: rasmlar, audio fayllar, qisqa videolar va boshqalar.

Endi bu ilovadan universitet talabalari ham, maktab o'quvchilari ham sinfda va nufuzli kompaniyalar foydalanadi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki bu har qanday ma'lumotni tomoshabinlarga aniq va vizual tarzda etkazishning ajoyib usuli. Chiqarishning ofis to'plamining qulayligiga o'rganib qolganlar faollashtirishni talab qilmaydigan va ruscha lokalizatsiya bilan aniq interfeysga ega bo'lgan dasturni yuklab olishdan mamnun bo'lishadi. Bu mahsulot uchun ajoyib operatsion tizim Windows. Bundan tashqari, dasturning 32-bitli versiyasi ham, 64-bitli versiyasi ham dastur o'rnatuvchisiga kiritilgan.

Power Point dasturining xususiyatlari

Ilovaning imkoniyatlari tufayli siz hujjatda o'rnatilishi mumkin bo'lgan turli xil media fayllardan foydalangan holda kuchli, yorqin va rangli taqdimotlarni yaratishingiz mumkin va taqdimot faylini boshqa qurilmaga o'tkazishda ilova tashqi fayllarga havolani talab qilmaydi. . Microsoft Office Power Point 2007 dasturida dasturning oldingi versiyalarida mavjud bo'lgan barcha vositalar va sozlamalar mavjud, ammo yangi boshlanuvchilar uchun taqdimotlar yaratish jarayonini oson, moslashuvchan va vizual qilish uchun mo'ljallangan ko'plab yangi xususiyatlar qo'shildi.


Tizim talablari

Nisbatan zaif mashinalarning foydalanuvchilari uchun xafa bo'lish uchun hech qanday sabab yo'q. Turli effektlar va animatsiyalarning ko'pligiga qaramay yangi versiya mahsulot, tizim talablari sezilarli darajada oshdi. 500 MGts chastotali bir yadroli protsessor, 256 MB operativ xotira, 32 MB video adapter va qattiq diskda 1 Gb bo'sh joy etarli bo'ladi.

Albatta, deyarli hamma bunday kam quvvatli kompyuterni bizning davrimizda topish juda qiyin ekanligiga rozi bo'ladi. Ammo, ahamiyatsiz tizim talablariga qaramay, dastur ajoyib qobiliyatlarga ega va haqiqatan ham yuqori sifatli taqdimotlarni yaratishga imkon beradi.


Taqdimot qanday yaratiladi?

PowerPoint 2007 da hech qachon taqdimot yaratmaganlar uchun biz taqdim etamiz qisqacha ma'lumot qanday amalga oshirilganligi haqida. Dasturni ishga tushirganingizda, yangi fayl yaratish uchun shablon ochiladi. Asosiy oynada birinchi slayd mavjud bo'lib, uni to'ldirish kerak turli ma'lumotlar. Chap tomonda slaydlarning kichikroq versiyasi mavjud bo'lib, ular yuqoridan pastgacha birinchidan oxirigacha tartibda joylashtirilgan.



Slaydda nuqtali chiziqlar bilan o'ralgan mavhum konteynerlar ko'rinishidagi ba'zi bo'shliqlar allaqachon mavjud. Maslahat sifatida, "Slayd sarlavhasi" shaklida allaqachon yozuv mavjud. Ushbu matnni foydalanuvchi sarlavhaga mos deb bilgan har qanday boshqa matnga o'zgartirish mumkin. Bundan tashqari, pastki sarlavhalar uchun konteyner allaqachon mavjud. Albatta, bu har bir foydalanuvchi yangi elementlarni qo'shish yoki eskilarini olib tashlash orqali o'z xohishiga ko'ra sozlashi mumkin bo'lgan eng ibtidoiy shablondir.

Ilovaning yangilangan interfeysi tufayli siz qanday elementlarni qo'shish mumkinligini va qayerda, ularni qanday sozlashni osongina bilib olishingiz mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan vizual ravishda qisqartirilgan slaydlar ierarxiyasiga ega oyna, agar taqdimotda allaqachon 2 yoki undan ko'p bo'lsa, slaydlar o'rtasida tezda almashish uchun xizmat qiladi. Dasturning asosiy menyusi yashiringan yangi Office tugmasi turli xil buyruqlarni o'z ichiga oladi, ulardan biri "taqdimotni saqlash".



Bu o'zgartirilgan taqdimotda ma'lumotlar yo'qolishining oldini olish uchun kerak. Yangi slaydni qo'shish juda oddiy, siz shunchaki menyudagi "slayd yaratish" deb

nomlangan tugmani bosishingiz kerak. Bunday holda, siz kursorni tugma belgisiga olib borishingiz mumkin, shundan so'ng ixtiyoriy shablon avtomatik ravishda tanlanadi yoki siz "slyd yaratish" yozuvining o'ziga aniq ishora qilishingiz mumkin, buning natijasida dinamik oyna paydo bo'ladi. Yangi slyd uchun shablon.

5-Amaliy: Videokonferensiyalarni ta'minlab beruvchi kompyuter vositalari bilan ishlash.

Videokonferensiya Ta'lim tizimini isloh qilishdagi asosiy vazifalardan biri, Kadrlar tayorlash milliy dasturida ham ta'kidlanganidek, ta'lim tizimini zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilgan; ta'lim tizimining barcha darajalarini to'liq miqiyosida kompyuterlashtirish; ta'lim maskanlarida lokal hisoblash tarmoqlarini tashkil qilish va global tarmoqqa ulash va hokazo. 1998 yilda ishga tushirilgan Trans-OsiyoEvropa optik tolali magistrali yordamida, bizning mamlakat ham oxirgi vaqtlarda yuzaga kelgan axborot vaakumidan chiqishga erishdi. Bu optik tolali magistral jahon axborot tizimiga bog'lanish imkonini yaratdi. Bu Respublikamizning shu jumladan Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omillardan hisoblanadi. Ta'lim tizimini isloh qilishda, rivojlangan mamlakatlarning yirik univesitetlari bilan aloqani mustahkamlash kerak bo'ladi, o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etishda ularning ish tajribalarini o'rganish va bu yo'nalishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish zarur. Bizning respublikamizda dunyoning yetakchi universitetlari professor-o'qituvchilarining ma'ruzalarini eshitishni hohlovchi iste'dodli yoshlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Bunda ularga bu imkoniyatni yaratib berish, yetakchi universitet va ilmiy markazlarga o'qitishga, tajriba oshirishga yuborish moliyaviy jihatdan juda katta muammo hisoblanadi. Bunda masofadan o'qitish tizimi muammoni hal qilishda katta yordam beradi va moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi. Shunga ko'ra, Respublikamizda masofaviy o'qitishni video konferensiya ko'rinishda va boshqa metodlar yordamida o'tkazish kelajagi porloq. 1999-2003 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti va Navoiy davlat konchilik institutida yevropa ittifoqining TEMPUS-Tacis dasturi doirasida —O'zbekistonda masofaviy o'qitish xalqaro ta'lim loyihasi muvaffaqiyatli bajarildi. Ushbu loyihada yevropa ittifoqidan Gamburg-Xarburg texnika universiteti (Germaniya), Tventi univesiteti (Gollandiya) va Alborg univesitetlari (Daniya) ishtirok etishdi. O'zbekiston va yevropa ittifoqi davlatlari universitetlari hamkorligidagi masofaviy o'qitish loyihasi quyidagi maqsad va vazifalarni bajarishni o'z oldilariga qo'ygan edi:

- yevropa ittifoqi davlatlari universitetlarining yirik olimlari va mutaxassislari oliy ta'lim muammolari haqidagi ma'ruzalarini tashkil qili
- yevropa ittifoqi universitetlari yirik olimlari va mutaxassislari ishtirokida ilmiy va texnik muammolar haqidagi videokonferensiyalarni tashkil qilish;
- Seminar darslarini o'tkazish;
- Yig'ilishlar va konferensiyalar o'tkazish;
- Yangi texnologiyalar va texnik vositalarning taqdimotini va namoyishini o'tkazish;

- yevropa ittifoqi davlatlari va Respublika OO‘YU ilmiy-tadqiqot muammolariga bag‘ishlangan hisobotlar va montoringlar o‘tkazish;
 - Innovatsion texnik muammolarni hal qilishda birgalikda ishlash;
- Bu loyiha doirasida quyidagi uchta yo‘nalish bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayorlash ham ko‘zda tutilgandi:

- Telematika (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) O‘lchov texnikasi

- Kimyo texnologiyalari (gaz va neft mahsulotlarini qayta ishlash)

Bu loyihani ishga tushirish oliy ta‘limni isloh qilishga ko‘maklashishiga yo‘naltirilgan va bu quyidagi muhim ilmiy-amaliy vazifalarni yechishga imkoniyat yaratib berdi:

- Ochiq ta‘lim konsepsiyasini qo‘llash va ta‘lim jarayoni uchun zamonaviy texnologiyalarni sinash va ularni rivojlantirish;
- O‘quv jarayoniga innovatsiya texnologiyalarini qo‘llash;
- YAngi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda masofaviy o‘qitish tizimini takomilashtirish;

Masofadan videokonferensiya tizimini qo‘llash yordamida interaktiv o‘quv darslarini olib borish imkoniyati yaratildi, ya‘ni interfaol usulda ma‘ruzalarni o‘qish, seminarlar tashkil etish, savollarga javoblar va hokazo.

Interfaol forma – masofadan videokonferensiya o‘qitish tizimi, masofadan turib Internet yoki lokal tarmoq orqali o‘qitishdan farq qiladi, xuddi radiodan va televideniya bilan ma‘ruza o‘qish kabi.

asofadan videokonferensiya tizimi – matnli axborotlar almashish, fayllar almashish imkonini beradi. Tashqi elektron doska qo‘llashda o‘qituvchi doskaga yozadi va bu videokonferensaloqa ko‘magida boshqa auditoriya tinglovchilariga ko‘rsatiladi.

Elektron doskadan masofadan o‘qitish tizimi foydalanuvchilari bir xil foydalanishlari mumkin, ya‘ni bir doskaga chizilgan rasm boshqa auditoriyadagi

doskalarda ko‘rsatiladi. Dars olib borish jarayonida videokamera avtomat tarzda ma‘ruza o‘qiyotgan professor, talaba yoki savol beruvchi tomonga buriladi.

Darslarni masofaviy o‘qitishning videokonferensiya tizimidan foydalanish alohida talablar asosida tashkil etiladi. Birinchidan, o‘quvchilar uchun ham o‘qituvchi uchun ham alohidagi talablar qo‘yiladi. Efir vaqtini tejash maqsadida, o‘qituvchi avvaldan o‘tadigan mavzularini taqdimot materiallar ko‘rinishida tayorlab olishi talab etiladi. Masofaviy o‘qitishning videokonferensiya tizimida o‘qituvchi o‘zini xuddi sahnadagi aktyor kabi his etishi va tinglovchilar ham oldindan darsni o‘zlashtirish jarayoniga tayyor turishlari talab etiladi .

Tinglovchilarga ma‘ruza bilan oldindan tanishib chiqish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, masofadan o‘qitishning videokonferensiya tizimi o‘rnatilgan auditoriya maxsus jihozlangan bo‘lishi kerak: qorong‘ulashgan xona, oval formadagi tinglovchilar stoli va terminal kamera qurilmasi to‘liq xonani va elektron doskani ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Masofadan o‘qitishning videokonferensiya tizimidan foydalanish ishtirokchilar uchun axborot almashishda qulaylik yaratadi va ortiqcha xarajatlarni qisqartiradi. videokonferensiya – bu

shunday kompyuter texnologiyasiki, u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda ko‘radi, eshitadi va ma‘lumotlar bilan almashadi.

Videokonferensiya tarixi 1964 yil AT&T kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Videophone (real vaqtda ovoz va tasvirni almashish) qurilmasidan boshlanadi. Videokonferensiya o‘tkazish uchun asosan ikkita shartni bajarish lozim:

a) videokonferensiyaning amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kompyuter (texnik) qurilmalari;

b) videokonferensiyaning o‘tkazish talabiga javob beruvchi aloqa kanallaridan foydalangan holda, muloqotga chiquvchilar bilan bog‘lanish.

Videokonferensiya nima?

Videokonferensiyalar bu odamlarga biri-biri bilan muloqot qilish imkoniyatini beruvchi kompyuter texnologiyasidir. Oddiy kompyuter yordamida ma‘lumotlarni ko‘rish, almashish, birgalikda tahlil qilish mumkin. Bunda siz ko‘rish va eshitish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

Konferensiyada qatnashish uchun quyidagilar zarur:

☐ Kompyuterda maxsus videokonferensiyaning ta‘minlovchi qurilma va programmi ta‘minot o‘rnatilgan bo‘lishi shart.

☐ Videokamera

☐ Audiomikrofon

☐ Internet

Videokonferensiyalar nima uchun kerak? 100 marotaba eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan ma‘qul deyishadi. Haqiqatan ayrim vaziyatlarda suxbatdoshni eshitish yetarli bo‘lmaydi. Ilmiy tekshirishlar telefon orqali muloqot qilinganda ma‘lumotning 10 foizigina qabul qilinishini ko‘rsatdi. Suhbatdoshni ko‘rganda ma‘lumotning 60 foizi qabul qilinadi. Shuning uchun insoniyat qimmatli vaqtining aksariyatini safarlarga sarflaydi. Bunda vaqtdan va puldan yutqazadi. Bu muammoni videokonferensiyalar yengilgina hal etdi. Endilikda universitetlar, yirik-yirik korxonalar muzokara va turli anjumanlarni videokonferensiyalar yordamida amalga oshirmoqda.

Videokonferensiya quyidagi imkoniyatlarga ega:

☐ Bir paytning o‘zida dunyoning turli nuqtalaridagi mutaxassislarni virtual konferens xonaga yig‘ish.


☐ Turli — matnli, audio va videoli ma‘lumotlarni uzatish.

☐ Birgalikda ma‘lumotlarni ko‘rish.

☐ Boshqalarni ko‘rish va ularning fikrini eshitish va umuman muhokamada aktiv ishtirok etish.

☐ Operativ ravishda maslahatlar (konsultatsiyalar) berish yoki olish

Demak, videokonferensiya birgalikda ma‘lumotlarni interaktiv holda (bir paytning o‘zida) ko‘rish, eshitish va tahlil qilish imkoniyatini beruvchi Internet anjumanidir.



Hozirgi kunda bu anjuman o'qishda (masofadan o'qitish), meditsinada (telemeditsina), boshqarishda (elektron ofislar), ehtiyotlash tizimlarida va boshqa turli sohalarda juda qo'l kelmoqda. Faraz qilaylik, siz bir muammo bilan ishlamoqdasiz, va uni boshqa mamlakatdagi hamkasblar bilan muhokama qilmoqchisiz. Bir joyga yig'ilish uchun mablag' va vaqt zarur. Internet yordamida bu muammoni tezgina muhokama qilib hal qilish mumkin.

Konferensiyada quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Bog'lanish tarmog'i sifati va tezligi yuqori bo'lishi shart (64MbG'sek da ishlash mumkin, lekin 128 MbG'sek tavsiya etiladi). Odatda videokonferensiyalarni o'tkazish uchun 64 KbG's do 512 KbG's tezlikli ISND yoki 1-1.5 MbG's gacha bo'lgan IR tarmoqlardan foydalaniladi. Qoniqarli sifatli tasvirlar 200 KbG's tezlikda va yuqori sifatli tasvirlar 300 KbG's tezlikda olinadi.
- Audio va video ma'lumotlarni ishlash tezligi muammosi, ya'ni uzatilayotgan ma'lumotlarni kodlash va qayta tiklash tezligi. Agar kompyuter kelayotgan kadrlarni, ovozlarni qayta ishlashga ulgurmasa, video va audio ma'lumotlarda uzilish bo'ladi. Ya'ni ma'lumotlar to'la aks ettirilmaydi. Bunda videokonferensiya mazmuni yo'qoladi. Bu muammoni odatda maxsus kodek yordamida hal etish mumkin. Kodak maxsus qurilma bo'lib u kompyuterga o'rnatiladi. Kodekning vazifasi tarmoq uchun signalni siqib va ochib berishdir. Konferensiyalarni 2 nuqta (ob'ekt) va ko'p nuqtalar (ob'ektlar) o'rtasida o'tkazish mumkin. Maxsus

videoserverlar yordamida ko'p nuqtali videokonferensiyalarni o'tkazish mumkin. Buning uchun maxsus videoserverlardan ko'p nuqtali videokonferensiya qurilmasi -MSU (Multi Conference Unit) dan foydalaniladi. Bu qurilmalar videokonferensiya imkoniyatlarini oshiradi. Videoserver 3 va undan ortiq nuqtalarni bog'lash imkoniyatini beradi. Masalan, konferensiyada 10 nuqta ishtirok etishi mumkin, Kompyuter 9 nuqtadan kelayotgan ma'lumotlarni qabul qilishi va ularga uzatishi zarur bo'ladi.

Videokonferensiya qurilmalari.

Videokonferensiya nima uchun kerak degan savolga quyidagi sabablarni ko'rsatish mumkin. Insonlar kundalik hayotida olayotgan ma'lumotlarni 80-85% ni ko'rish orqali oladi. Shuningdek, boshqaruv ishlari, meditsina, masofaviy ta'lim va boshqa jabhalarda videokonferensiyani ahamiyati juda muhim. Minglab kilometr masofadagi shaxslarni real vaqtda muloqotini oshirish ham vaqt, ham iqtisodiy tejamkorlikka olib keladi.

Videokonferensiyani tashkil etish uchun qanday qurilmalar kerak ?

Videokonferensiyani amalga oshirishda ISDN, V.35, E1G'T1 aloqa kanallaridan va IP tarmoqdan foydalaniladi. ISDN aloqa kanali 256-512 kbitG's, IP tarmoq 512-1024 kbitG's tezlikka ega bo'lishi tavsiya etiladi. 200 - 300 kbitG's tezlikda tasvir tiniqligi va almashish o'rtacha holatda bo'ladi. Tasvir va ovozni almashish uchun maxsus videokodeklardan foydalaniladi. Videokodeklar PCI plata sifatida kompyuterga o'rnatiladi. Videokodeklar jo'natilayotgan ma'lumotlarni saqlaydi va kodlaydi, qabul qilayotganda esa asl holatiga qaytaradi. Agar aloqa tezligi past bo'lsa yoki videokodek ma'lumotlarni tahlil qilishda muammolar paydo bo'lsa, u holda tasvirda kadrlar tushib qoladi va ovoz kanalida uzilishlar paydo bo'ladi. Bu qurilmalardan tashqari videokonferensiyani tashkil etishda quyidagi qurilmalar lozim bo'ladi:

Ko'ptugunli videoserverlar (MCU, Multipoint Control Unit). Videoserverlar bir vaqtni o'zida bir necha tugunlarni o'zaro bir biri bilan bog'lab, tasvir va ovozlarni tez uzatishda qo'llaniladi.

Ko'ptugunli videoserverlar.

Videoserverlar asosan ikki holatda ishlaydi:

- a) ovoz aktivligi bo'yicha - bunda barcha ishtirokchilar bir vaqtda faqat gapirayotgan tomon bilan muloqotda bo'la oladi;
- b) ekran mayda bo'laklarga bo'lingan holda barcha ishtirokchilar bir-birlari bilan muloqotda bo'ladi.

2. Maxsus videokameralar. Bu qurilmalar tasvirni uzatish vositasi

hisoblanadi. Hozirgi paytda Canon, Genius, Axis, Sony kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan kameralar sifati va imkoniyati jihatidan alohida ajralib turadi.

Asosan kameralar vertikal bo'ylab 30 dan 90 gradusgacha, gorizonta bo'ylab

deyarli 360 gradus ko‘rish chegarasiga ega. RS-232 razyomi orqali ularni kompyuterga ulash bilan birgalikda, kameralar tarmog‘ini ham hosil qilish mumkin. Tasvirlar Motion-JPEG formatida bo‘lib, sekundiga 30 ta kadr almashiniladi. Foydalanuvchilar bu kameralarni kompyuter orqali yoki masofadan turib boshqarishlari mumkin. Boshqarish jarayonida tasvir tiniqligi, masshtabi, kamerani burish kabi amallarni bajarish mumkin.

3. Kolonkalar va mikrofonlar. Kolonkalar ovozni eshitish uchun mo‘ljallanib, stereo kolonkalardan foydalaniladi. Kolonkalar quvvati xona kengligiga qarab tanlanadi. Mikrofonlar sifatida yuqori sifatli yakka va tarmoqqa ulangan mikrofonlardan foydalaniladi. Tarmoqqa ulangan mikrofonlar ketma-ketligi umumiy va alohida boshqaruvga ega.

4. Modemlar. Modemlar ma‘lumotlarni uzatish va qabul qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Rad, Linksys, UsRobotics kompaniyalarning IDSL modemlaridan keng foydalaniladi. Modemlar juft holatda maxsus ajratilgan tarmoq orqali aloqani ta‘minlaydi.

c) Multimediali proektorlar va monitorlar. Bu qurilmalar tasvirni kattalashgan holatda ko‘rish imkonini beradi. Bir vaqtda multimediali proektor va monitorlarga oddiy kompyuter monitorini ulashimiz mumkin. Asosan 27 yoki 29 dyuymli monitorlardan foydalaniladi.

Videokonferensiya tizimini texnik qurilmalar va dasturiy vosita bilan ta‘minlovchi VCON, Polycom, RADVision, Avaya kompaniyalari mahsulotlaridan foydalaniladi.

Videokonferensiya respublikamizda tashkil etilganmi?

Toshkent davlat pedagogika universiteti VCON, Sanon, RADVision kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan videokonferensiya qurilmalari va UZNET provayderi aloqa kanalidan foydalangan holda, respublikamizning bir qancha OTMlari bilan videokonferensiya aloqasini amalga oshirmoqda. Jumladan, Toshkent axborot texnologiyalari, Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali, Guliston Davlat universiteti, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat instituti, Navoiy davlat konchilik instituti, Toshkent Davlat yuridik instituti kabi OTMlarni misol keltirishimiz mumkin.

Elektron konferensiyalar. Telekonferensaloqa

Masofaviy ta‘limda elektron konferensiyalar o‘rni haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Elektron konferensiyalar (ularni kompyuterli konferensiya deb ham ataladi) bu kompyuter monitorida bir-biridan turlicha uzoqlikda bo‘lgan «konferensiya» qatnashchilari tomonidan uzatilgan xabar yoki ma‘lumotlarning matnini (eng kamida) olish imkonini beradi, bunda ish joyining qurilmalar bilan jihozlanishi elektron pochta kabi bo‘ladi. Dasturiy ta‘minot elektron konferensiyadan foydalanish holatiga bog‘liq.

Yangi axborot texnologiyalarining telekonferensaloqa va videotelefon vositalari o'qituvchi va talabalar o'rtasida ikki tomonlama aloqani o'rnatish imkonini ta'minlaydi. Bunda bir vaqtning o'zida videotasvirlarning, ovoz va grafiklarning 2 tomonlama uzatilishi amalga oshiriladi. Bularning barchasini mijozning (o'qituvchi va talabalar) har bir monitori ekranida 3ta oynada bir vaqtda kuzatish mumkin. Katta auditoriyada guruhli mashg'ulotlar davomida monitordagi tasvirni katta ekranda suyuq kristalli yoki boshqa proeksiya qurilmalari yordamida namoyish qilish mumkin. Bitta ish joyining qurilmaviy-dasturiy jihozlanish talablari: kompyuter, monitor, printer, videokamera, mos dasturiy ta'minot, klaviatura, manipulyatorli sichqoncha, modem. Videotelefonlar videokonferensaloqadan o'lchamning chegaralanganligi va vizual axborotni namoyish etish sifati va kompyuter ilovalarini real vaqtda ishlatish imkoni yo'qligi bilan farq qiladi. Bu sinf yangi axborot texnologiyalarining didaktik xossalari tasvir, ovoz, grafikani real vaqtda uzatish imkoni va talabalarga o'quv maqsadlari uchun ko'rsatish imkonini o'z ichiga oladi. Bu xossalar o'qitishning an'anaviy shaklida tuzilgan ma'ruza, seminar va nazorat tadbirlarini o'quv jarayonida to'la holicha qo'llash imkonini beradi.

6-Amaliy:Ovozli ma'lumotlarni taqdim etuvchi fayl formatlar va asosiy tamoyillar. Ovoz kartasini o'rnatish va uni sozlash. Ovoz yozuvchi dasturlar bilan ishlash.

Kundalik turmushda ovozli(audio) yoki video ma'lumotlardan keng foydalanamiz. Ya'ni musiqa eshitamiz, kino, kliplar va biror bir dasturni, yangiliklarni tomosha qilamiz. Bunday axborotlar aniq bir ssenariy asosida audio va video tahrirlagichlar yordamida yaratilgandir. Shu singari chet tillarini o'qitishda, o'rgatishda yoki o'qitish jarayonini samarali olib borishda ham ko'pincha bunday ma'lumotlarga murojaat qilamiz. Chunki audio va video uyg'unlashgan holda yaratilgan materiallarni qo'llash ya'ni elektron resurslardan foydalanish til o'rganish va til o'rgatishda, umuman darsni tashkil qilish sifatini oshiradi.

Interaktiv vositalar axborotni taqdim qilishning turli xil vositalarini - tekst, statik va dinamik grafiklar, video va audio yozuvlarni bir butun majmuaga birlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu esa ta'lim oluvchini o'quv jarayonida faol ishtirokchi bo'lishiga yo'l beradi, modomiki, axborotlarni taqdim qilish ta'lim oluvchining harakatiga muvofiq javob sifatida yuz beradi.

Multimediadan foydalanish axborotni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishga imkon beradi, bu pedagog tomonidan ta'lim oluvchiga kompyuter vositasida o'quv axborotlarini etkazib berishda juda ham muhimdir. Yaratilayotgan ko'pchilik elektron ta'lim resurslari axborotlarning turli-tuman tiplari bilan ishlashga yo'naltirilgan. Ular fotosuratlar, tovushli fragmentlar va albatta, animatsiya va video bo'lishi mumkin.

Audio va video fayllarni yaratish yoki qayta ishlash ya'ni ularga ishlov berish uchun maxsus dasturlar(tahrirlagichlar) kerak bo'ladi. Hozirgi kunda bunday dasturlarning turi juda ko'p. Quyida biz ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Odatda audio fayllar - WMA Audio (.wma), WAVE Audio (.wav), MPEG-4 Audio (.m4a), Free Lossless Audio Codec (.flac), Digital Surround Audio (.dts), SUN AU Format(.au), Monkey's Audio Format (.ape), Apple Lossless Audio (.m4a), AIFF Audio (.aiff), AC3 Audio (.ac3), AAC Audio (.aac), OGG Vorbis Audio (.ogg), MP3 Audio (.mp3), MP2 Audio(.mp2) va hokazo kengaytmadan iborat bo'lishi mumkin. Maxsus dasturlar ("video convertor" lar yoki audio tahrirlagichlar) yordamida bir kengaytmadan boshqasiga o'tkasish mumkin bo'ladi.

WAVE (.wav) - juda keng tarqalgan ovozli fayl formatlaridan biri. Windows operatsion muhitida ovozli ma'lumotlarni saqlashda qo'llaniladi.

AU (.au, .snd) - Sun firmasi ishchi stansiyalarida (.au) va NeXT operatsion tizimida (.snd) qo'llaniladigan ovozli fayllar formati.

MPEG-3 (.mp3) - Bugungi kundagi eng ommabop ovozli fayllar formati. Inson nutqidan farq qiluvchi tovushlarni saqlash uchun yaratilgan. Musiqiy yozuvlarni raqamlashtirishda qo'llaniladi.


MIDI (.mid) - Musiqa asboblarning raqamli interfeysi (Musical Instrument Digital Interface). Bu standart 1980 yillar boshida elektron musiqa asboblari va kompyuterlar uchun ishlab chiqilgan

MOD (.mod) - alohida notalar uchun shablon sifatida ishlatish mumkin bo'lgan raqamlangan ovoz namunalari saqlanuvchi musiqali format.

IFF (.iff) - Interchange File Format - dastlab Amiga kompyuter platformasi uchun yaratilgan format.


AIFF (.aiff) - Audio Interchange File Format - ovozli ma'lumotlar almashish uchun format, Silicon, Graphics va Mac kompyuter platformalarida qo'llaniladi.

RealAudio (.ra, .ram) - Internetda ovozni real vaqtda ijro etish uchun Real Networks (www.real.com) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan format.



Ovozli fayllarga maxsus dasturlar yordamida ishlov berish uchun yuqorida keltirilgan kengaytmali fayllar mavjud bo'lish kerak. Agar mavjud bo'lmasa ularni yozish kerak bo'ladi. Masalan, Windows 7 muhitida ovozlarni yozishda o'zining standart dasturidan foydalanish mumkin. Uni “Пуск” - “Все программы” - “Стандартные” - “Звукозапись” ketma - ketlikni bajarib ishga tushiriladi. Ovozni yozish uchun “Начать запись” tugmasini yoki “Alt+S” tugmalarini bosish kerak bo'ladi. Agar shaxsiy kompyuterdan foydalansak unda ovoz yozish uchun mikrofon qurilmasidan foydalanish kerak bo'ladi. Agarda foydalanayotgan kompyuterimiz


Ketma - ketlik bajarilgandan so'ng, rasmdagi oyna hosil bo'ladi.



Noutbook bo'lsa, u holda uning mikrofonini o'zida joylashgandir. Yuqoridagi

vazifalarni bajarib yetarli ma'lumot yozib bo'lingandan so'ng rasmdagi oynadan “Остановить запись” tugmasini yoki “Alt+S” tugmalarini bosiladi.

Shundan so'ng 4-rasmdagi oyna ochiladi va yozilgan audio yozuv “. WMA” kengaytmasi orqadi ko'rsatilgan manzil va nom bilan saqlanadi.



Ovozli fayilga ega bo'ldik endi unga ishlov berish kerak, yani ayrim qismlarini olib tashlash, tovush balandliklarini o'zgartirish, sifatini oshirish, boshqa ovozlar qo'shish mumkin bo'ladi. Buning uchun maxsus audio tahrirlagichlar kerak bo'ladi. Ularning birnechtasi bilan tanishib chiqamiz:

- Windows muhitida:

A S Ableton Live S Acid Music Studio S Adobe Audition S Adobe Soundbooth S Ardour S Audio Units B S Band-in-a-Box S Bitwig Studio	C S Cakewalk Sonar D S Digital Performer F S FormatFactory S Free Audio Editor	G S GarageBand L S Linux MultiMedia Studio S Logic Pro S Logic Studio
M	S	V
S MAGIX Samplitude	S Schism Tracker	S Virtual ANS
S MiniLyrics	S Sound Forge	S Virtual Studio Technology
S Mp3DirectCut	S Sound Normalizer	S Vocaloid
S Music Construction Set	S SoX (п р о г р а м м а	3
N	S Steinberg Nuendo	S N-Track Studio
S Nero WaveEditor	S SunVox	S Propellerhead Reason
P	S SuperCollider	S Studio One
S Pro Tools	T	П
R	S Tracktion (DAW)	S Протокол опи
S Real Time AudioSuite	S Traktor DJ Studio	д и с к а
S REAPER	U	P
S Record (п р о г р а м м	S Utau	S Р е д а к т о р т а
S ReCycle		
S Rosegarden		

S ocenaudio v3.0.5	S Sionsoft QuickAudio 2.0	S Martin Pesch
S Audacity v2.1.2	S NCH Swift Sound WavePad 4.03	mp3DirectCut 2.12
S Wavosaur v1.1	S Steinberg WaveLab v5.01b	S Smasher v1.1.6
S Capriccio v1.2.5	S Dubstep	S Wave Editor
S AZ Audio PolyGrid v1.00 RC1	S Audiops Audio Pitch And Shift v5.1.0.2	S Audio Edit Magic 9.2.15 Build 795
S Mammut 0.59	S Audacity 1.3.14	S Acoustica Premium Edition v4.00.357
S Marek Dolleiser InTune 3.2	S Free Audio Editor v2010 8.3.2	S Sound Forge v.9.0
		S Adobe Audition 2.0
		S GoldWave v5.08

• iOS operatsion tizimida

S Audio Mastering S
[Traktor Dj](#) S
[GarageBand](#)


Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki audio fayllarga ishlov berish uchun dasturlarni tanlash imkoniyati keng ekan. Shu kabi dasturlardan biri Sound Forge - ovoz

- **Android operatsion tizimida**









tahrirlagichidir. Bu dasturdning imkoniyatlari juda keng bo'lib yaratilgan ovozli fayillarni yuqoridagi kengaytmalarning biriga keltirish mumkin bo'ladi. Hozirgi kunga kelib bu dastur ovozlar bilan ishlovchi ularni yaratuvchi dasturlar orasida yetakchi hisoblanadi. O'zining tarkibida ovozlarni qayta ishlash uchun hamma imkoniyatlarini mujassamlashtirgan. Quyida shu dastur bilan qisqacha tanishib chiqamiz:

L Oynaning umumiy ko'rinishi, yoki ish maydoni _____


ф Sound Forge Pro



2. Menyular paneli



3. Standart instrumentlar paneli




1 - o'qilayotgan faqat chap karnaydan eshitiladi; 2 - o'qilayotgan faqat o'ng karnaydan eshitiladi;
- musiqa tezligini o'zgartirish regulyatori



1 Quyidagi oynadan ko'rib turibdiki bu dastur bir nechta audio fayllar bilan bir vaqtda ishlash imkonini beradi. Agarda bir nechta fayllarni ustma - ust bitta ishchi oynaga qo'yilsa audio mikser hosil bo'ladi.



Audio fayllarga barcha ishlovlarni berish uchun “Вид” - “Панель инструментов” ketma ketlikni bajariladi va quyidagi oynadan keraklilari belgilanadi.



Videofayllar. Analogli va raqamli video

Hozirgi kunda video ma'lumotlarning ikki tipi mavjud: analogli va raqamli. Analogli video videosignallarni uzatishning dastlabki usuli bo'lib, analogli usuldagi birinchi video formatlardan biri kompozit videotsignal hisoblanadi. Kompozit analogli video barcha videokomponentlarni (yorqinlik, rang, sinxronlik va hk) bir signalga birlashtiradi. Bu elementlarni bir signalga birlashtirish hisobiga kompozit video sifati mukammal bo'la olmaydi. Natijada biz aniq bo'lmagan ranglar uzatilishiga, tasvirning yetarli bo'lmagan aniqligiga va boshqa sifat yo'qotish faktorlariga ega bo'lamiz. Shu sababli kompozit video turli video komponentlari mustaqil signallar sifatida namoyon bo'luvchi komponentli videoga tezda yo'l bo'shatib berdi. Gap shundaki, inson ko'zi yuqori yoritilganlikda ham aktiv va tayanch ranglar (R, G, B) ni qabul qiluvchi yorug'lik sezuvchan elementlardan tashqari deyarli to'liq qorong'ulikda ham aktiv va yoritilgan ob'ektnigina qayd qiluvchi elementlarga ega. Buning natijasida ranglar xususiyatidan ko'ra ob'yekt yorqinligi qabul qilish uchun muhimroq hisoblanadi. Bundan tashqari uzatilayotgan axborot hajmi ham qiymatga ega: hajm qancha kichik bo'lsa, uzatuvchi tizim ham shuncha arzon va sodda bo'ladi.

Analogli video haqida qisqacha ma'lumot

Analogli video - Televideniya qo'llaniladigan video tipi. Ekrandagi tasvir lyuminofo material bilan qoplangan, ma'lum to'lqin uzunligida, ya'ni aniq bir rangda nur tarqatuvchi ekran bo'ylab elektron nurlarning harakati davomida hosil qilinadi. Bu jarayon skanerlash deb ataladi va qatorlar (gorizontaliga) hamda kadrlar (vertikaliga) bo'yicha o'tkaziladi. Harakatli video hosil bo'lishi uchun sekundiga bir nechta kadrni skanerlash zarur. Televizorlarda kadrlar sekundiga bir necha o'nlab chastotada almashadi.

Television standartlar

Hozirgi kunda uchta asosiy rangli televidiniy standard mavjud:

- NTSC (National Television Standard Committee - milliy television standartlar

komiteti) amerika standard, kadrdağı satrlar soni 525, chastotota 60 GGs;

- PAL (Phase Alternation Line - o'zgaruvchan fazali satrlar) nemis standard, kadrdağı satrlar soni 625. chastota 50 GGs;

- SECAM (Sequentiel couleur avec memoire - xotirali ranglar ketma-ketligi) fransuz standard, kadrdağı satrlar soni 525, chastota 50 GGs.

Standartlar qo'llanilayotgan modulyatsiya va chastota qiymatlari bilan bir-biridan farq

qiladi.

Raqamli video haqida qisqacha ma'lumot

Raqamli video - ma'lumot raqamli ko'rinishda saqlanuvchi tasvir yoki tasvirlar to'plami. Unda raqamli signallar va xalqaro television va analogli videoda qo'llaniladigan tasvirni ekranga chiqarish standartlardan farq qiluvchi standartlar qo'llaniladi. Raqamli video analogli videoga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega: bu texnologiya tasvir namoyishidagi to'siq va buzilishlarni minimallashtirib, tasvirlardan nusxa olishdagi sifatni saqlaydi, sifatli ovoz yozadi, tasvirdagi piksellar miqdori ikki marta ko'proq bo'ladi, videoyozuvlarni tezkor va oson tahrirlash imkoniyatiga ega va hk.

Zamonaviy texnikalarda qabul qilingan videoni raqamlashtirishni 10 bitli raqamlash, 13.5 MGs chastotali yorqin signallar diskretizatsiyasi, 6.75 MGs chastotali ikkita xilma-xil rangli kanallar diskretizatsiyasi tashkil qiladi. Oxirgi vaqtlarda television va kompyuter videolarini birlashtirish tendensiyalari kuzatilmoqda. Analogli videotasvirlarni raqamli shaklga o'tkazish maxsus platalar yordamida amalga oshirilmoqda. Raqamli va analogli videoning bir-biriga yaqinlashtirilishi analogli signalarning multimedia kompyuterlari bilan o'rin almashishiga olib keladi. Dastlab video analogli formatdan raqamli formatga o'tkazilib, kompyuterning xotira qurilmalaridan biriga yoziladi. Bu qattiq disk, CD, DVD yoki ixtiyoriy boshqa qurilma bo'lishi mumkin. Bunda videoni kompyuterdagi dasturlar yordamida namoyish etish imkoniyati paydo bo'ladi. Raqamli videoga qo'yilgan oxirgi qadamlar ham aynan

raqamli va analogli videolar yaqinlashtirilishini ta'minlovchi DVD-Video va HDTV (High Definition TV - yuqori rezresheniedagi televidenie, bir qator davlatlar tomonidan ishlab chiqilayotgan yangi format) standartlarining yaratilishi bo'ldi.

Video-ma'lumotlarni saqlash formatlari

CD AVI (Audio Video Interleave - audio va video almashinuvi) - videoni saqlash va Windows muhitida namoyish etish uchun Microsoft tomonidan yaratilgan format, tasvir va ovozning bir vaqtda saqlanish imkoniyatini beradi. Bu formatdagi video yozilishida avval kadr, so'ngra shu kadrda mos ovoz navbatma-navbat yoziladi. Videokadrlarga bo'linishi tabiiy, lekin ovoz uzluksiz oqimga ega bo'lib, sun'iy ravishda kadrlarga mos fragmentlarga bo'lib olinadi. Agar ovozni ham videoni ham videokiritish qurilmasida yozilsa hech qanday muammo yuzaga kelmaydi, agar ovoz ovoz kartasi yordamida yozilsa, video bilan ovozning aniq sinxronligi buziladi, ba'zan ovoz tasvirdan "qochadi". Bu formatdagi videoyozuvlarda odatda turlicha formatdagi video siqishlar (kompresiya) qo'llaniladi: Microsoft Video (8- va 16-bitli ranglarda), Motion JPEG, Microsoft RLE (8-bitli ranglarda), Indeo va hk. Dastlab video olish va namoyish etish uchun Microsoft tomonidan yaratilgan Video for Windows dasturiy to'plami qo'llanilgan, lekin hozirgi kunda foydalanuvchida buning uchun juday qulay imkoniyatlar ham mavjud. Bu imkoniyatlarni hisobga olgan holda Microsoft kompaniyasi AVI formatni almashtirishga mo'ljallangan ikki yangi format ASF (Advanced Streaming Format - mukammallashtirilgan potoklar formati) va AAF (Advanced Authoring Format) formatlarni ishlab chiqish haqida qaror qildi. Bunda eski AVI formati ham qo'llanishda davom etib, AVI, ASF va AAF formatlarini bir-biriga aylantirish uchun vositalar yaratilishi rejalashtirilmoqda.

Quick Time Movie (.qt, .mov) - Adobe firmasi tomonidan Quick Time texnologiyalari asosida yaratilgan video yozish va namoyish etish uchun keng tarqalgan formatlardan biri. Turli videolarni ciqish formatini podderjka qiladi, shu jumladan MPEG va Indeo formatlarini ham, shuningdek, uzining xususiy kompressiya uslubiga ham ega. Mustaqil "yo'lakchalar"ga (video va audio) ma'lumot yozish imkoniyati mazkur formatning muhim jihati hisoblanadi. Videoma'lumotlar turli yo'lakchalarda

turli chastotalarga va razresheniyaga, audioma'lumotlar - turlicha formatga ega bo'lishi mumkin va hk.

MPEG (Motion JPEG)(.mpg, .mpeg, .dat) - Harakatli tasvirlar bo'yicha ekspertlar guruhi (MPEG - Moving Picture Expert Group) tomonidan video yozish va namoyish etish uchun ishlab chiqilgan format. O'zining xususiy kompressiya algoritmiga ega. Hozirgi kunda raqamli videolarni yozish uchun faol qo'llanilayotgan MPEG-4 algoritmi ishlab chiqilgan.

Digital Video (.DV) - Raqamli videokamera va videomagnitofonlar uchun yaratilgan format. Aslida bu format emas balki DV firmasi tomonidan ishlab chiqilgan siqish diapazoni, kodlash standarti kabi xususiyatlarni aniqlovchi spessifikatsiya. Signal tarkibiy qismli, MJPEG siqish metodi 5:1 koeffitsiyentli.

Videoma'lumotlarni siqish

Videoma'lumotlarni siqishning asosiy ko'rinishlari:

- oddiy, real vaqt rejimida;
- simmetrik va asimmetrik;
- sifat yo'qotish yoki yo'qotmaslik holatida;

Videopotokni siqish yoki kadrlar bo'yicha siqish.

1. Oddiy siqish (real vaqt rejimida).

Ko'pchilik tizimlar videoni raqamlashtirish bilan bir qatorda ularni siqadi ham. Bu operatsiyani sifatli bajarish uchun maxsus quvvatli prossessor talab qilinadi, shu sababli ko'pchilik kompyuterlardagi video kiritish/chiqarish platalari to'liq metrajli videolarni tahrirlash imkoniyatiga ega emas va ko'pincha kadrlarni o'tkazib yuboradi. O'tkazib yuborilgan kadrlar videotasvirlar silliqqligini buzadi. Bundan tashqari kadrlar o'tkazib yuborilishi ovoz va tasvir sinxronligini buzilishiga olib keladi. Shu sababli raqamlashtirishda qo'llanuvchi videoplata sekundiga 24 kadrda kam bo'lmagan tezlikni ta'minlashi va kadr o'tkazib yubormasligi zarur. Bu tasvir buzilishiga yo'l qo'ymaydi.

2. Simmetrik va asimmetrik siqish.

Farq videoni siqish va dekompressiya uslubi bilan bog'liq. Simmetrik siqish 640x480 razresheniya bilan sekundiga 30 kadr tezlikda videofragmentni namoyish etishni taqozo etadi, agar uni raqamlashtirish va yozish xuddi shu parametrlar bilan bajarilgan bo'lsa. Asimmetrik siqish - bu yetarlicha kattaroq vaqtda sekundiga videoni qayta ishlash jarayoni. Asimmetriklik darajasi odatda nisbat ko'rinishida beriladi. 150:1 nisbat siqilgan videoning bir minuti real vaqtdagi taxminan 150 minutga to'g'ri kelishini bildiradi. Asimmetrik siqish sifatli videoga va uning namoyishi tezligidagi optimallikka erishish uchun juda qulay va samarali uslub hisoblanadi. Lekin bu uslubda to'liq metrajli rolikni kodlash juda ko'p vaqt olishi mumkin, shu sababli ham bu kabi jarayonlar ixtisoslashtirilgan kompaniyalar tomonidan bajariladi.

3. Sifat yo'qotiladigan yoki yo'qotilmaydigan siqish.

Sifat yo'qotmasdan siqish usullari ko'p emas: ko'p uchraydigan baytlar kombinatsiyasi kichikroq bitlilariga yoki aniq qiymatlar ketma-ketligi kodlarga almashtiriladi. Siqish darajasi fayl tipi va uzunligiga juda bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy holatda ma'lumotlarga dekompressiya (manba ma'lumotlarini tiklash) uchun ma'lumotlar qo'shiladi. Shu sababli agar fayldagi ma'lumotlar tanlangan algoritmda yomon siqilsa, fayl hajmi hatto oshishi mumkin. Hatto muvaffaqiyatli holda ham sifat yo'qotishsiz kompressiyaning darajasi uncha yuqori bo'lmaydi. Ikki marta siqishning o'zi muvaffaqiyat. Shu sababli odatda video uchun sifat yo'qotish holati qo'llaniladi, go'yoki ko'zga sezilmas ma'lumotlar tashlab yuboriladi. Siqish koeffitsiyenti qancha yuqori bo'lsa, video sifati shuncha zarar ko'radi. Barcha siqish uslublari ba'zi sifat yo'qtishlarga olib keladi. Hatto ular ko'zga sezilarli darajada bo'lmasada, manba va siqilgan material orasida doim farq bo'ladi. Raqamli video bilan ishlashda professionallar siqish koeffitsiyentiga alohida e'tibor qaratishadi. Uni asimmetrik siqish koeffitsiyenti bilan chalkashtirmaslik kerak.

Bundan tashqari, video sifati faqatgina siqish algoritmiga bog'liq emas, sifat raqamli videoplata parametrlariga, kompyuter konfiguratsiyasiga va hatto dasturiy ta'minotga bog'liq bo'ladi. Videotasvirlarni raqamlashtirish uchun plata

tanlanayotganda raqamli video parametrlarini boshqarish imkoniyatiga alohida e'tibor qaratish kerak. Videolarni raqamlashtirish va siqish uchun mo'ljallangan yaxshi tizim videotizimning texnik va dasturiy qismlari uchun muhim parametrlari ustida amallar bajara olishi kerak. Ko'pchilik hollarda videoning namoyish etish tezligi (kadrlar chastotasi/s) hal qiluvchi qiymatga ega bo'ladi, lekin bunday hollarda to'liq ekranli rejimda ishlashni rad etishga to'g'ri keladi. Boshqa hollarda esa sekundiga 15 kadrli tezlik yetarli bo'ladi, lekin bunda kadrlar sifati ideal bo'lishi lozim. Videolarni raqamlashtirish va siqish qurilmalari va dasturiy ta'minoti bu operatsiyalarni boshqara olishi kerak. Siqish uslublari juda ko'pchilikni tashkil qilishiga qaramasdan videolarni siqishning faqat MPEG (MPEG-1, MPEG-2 va MPEG-4) xalqaro standard tan olingan.

4. MPEG texnologiyasida potokli video siqish uslubi qo'llaniladi, bunda har bir kadr alohida qayta ishlanmaydi, video fragmentlarning dinamik o'zgarishlari tahlil qilinadi va ortiqcha ma'lumotlarni yo'qotish amalga oshiriladi. Ko'pchilik fragmentlarda tasvir foni yetarlicha stabil qoladi, harakat esa oldingi fonda amalga oshiriladi. Shu sababli MPEG algoritmi siqishni manba (kalit) kadrini yaratishdan boshlanadi. Qolgan tasvirlarni tiklashda tayanch kadr vazifasini o'tagan holda ular navbati bilan har 10-15 kadrga ko'chirib boriladi. Faqat ular orasida joylashgan ba'zi tasvir fragmentlari o'zgarishga duch keladi. Aynan ana shu farq siqishda saqlanib qoladi. MPEG-texnologiyasini qo'llash natijasida ba'zi sifat yo'qotishga olib kelsada, 200:1 dan ham yuqori siqish koeffitsiyentiga ega bo'lish mumkin.

Videomontaj texnologik jarayonlari haqida

Shaxsiy kompyuterlarda videomontaj jarayoni hozirgi vaqtda uchta asosiy operatsiyani o'z ichiga oladi: raqamlashtirish, raqamlashtirilgan videoni qandaydir axborot tashuvchida saqlash va raqamlashtirilgan tasvirlarni dasturiy vositalar yordamida o'zgartirish.

Raqamlashtirish - bu analogli manba (masalan, videokamera) signalini raqamli shaklga aylantirish hisoblanadi. Raqamli videokameradan foydalanilganda bu operatsiyaga hojat qolmaydi, chunki bunda raqamlashtirilgan signalga ega bo'lamiz. Almashtirish aniqligi ikkita asosiy xarakteristika: raqamlashtirish darajasi va

diskretizatsiya chastotasiga bog'liq bo'ladi. Raqamlashtirish darajasi deganda kiruvchi signallar bo'linadigan amplitudalar bo'yicha darajalar soni tushuniladi. 256 darajaga bo'linganida ma'lumot yo'qotilmasligi aniqlangan. Diskretizatsiya chastotasiga raqamlanayotgan tasvir razresheniyasi bog'liq bo'ladi. Masalan, 720x576 razresheniyeda diskretizatsiya chastotasi 13.5 MGsni tashkil qiladi.

Ikkinchi amal - raqamlangan tasvirning qaysidir axborot tashuvchida saqlanishi bo'lib, texnik tomondan jarayondagi eng murakkab amal hisoblanadi. Buning uchun turlicha ma'lumotlarni siqish texnik-dasturiy uslublar qo'llaniladi.

Uchinchi amal - raqamlashtirilgan va siqilgan tasvir va ovozni dastiy vositalar yordamida o'zgartirish bo'lib, bu jarayon yakunida olingan natijani qiyinchiliksiz axborot tashuvchilarda saqlash mumkin bo'ladi. Bu amallar asosan kompyuter qurilmalari yordamida bajariladi.

- Windows muhitida:



Киностудия
Windows
(Movie Maker)



VirtualDub



Avidemux



ZS4 Video
Editor



Sony Vegas
Pro



VideoPad
Video Editor



Movavi Video
Editor



WOMBLE
MPEG VIDEO
WIZARD



Lightworks



Adobe
Premiere Pro



VSDC Free Video Pinnacle Studio Editor



Corel
VideoStudio
Pro



Avid Media
Composer




Edius

- Android operations tizimida

imkoniyat darajasi qiyoslash
ifodalangan:

Video tahrirlagichlarning nomlari	Kengaytmali fayllari qabul	U -S b	effektlar	zaxvat	£ — u	Foydalanish
Kinostudio Windows	QRT,RM,FLV	1	kam	+	720p	bepul
VirtualDub	MOV,RM,QT	1	Ko'p	+	1080p	bepul
Ilm	RM,QT	1	Ko'p	-	-	bepul
ZS4VideoEditor	MP4,MOV,QT,	1	kam	-	720p	bepul
SONY VegasPro	-	cheksiz	Juda	+	4K	pullik
VidePad	-	2	Juda	+	4K	bepul
EQ.	QT,RM,FLV	1	Ko'p	+	1080p	pullik
WOMBLE MPEG VIDEO WIZARD	QT,RM,FLV	1	kam	-	720p	bepul
Lightworks	QT,RM,FLV	1	kam	-	720p	bepul
	-	cheksiz	Juda	+	4K	pullik
^^VSDC Video Editor	RM,QT	1	ko'p kam	+	720p	bepul
PinnacleStudio	RM,QT	12	Ko'p	-	1080p	pullik
db	FLV	20	Juda	+	4K	pullik
AvidMedia Composer	RM,FLV	cheksiz	Juda	-	1080p	pullik
Edius	-	cheksiz	Juda	+	4K	pullik

Video fayllarga ishlov berish uchun maxsus dasturlar kerak bo'ladi. Windows operatsion tizimida o'zining standart Windows Movie Maker dasturidan foydalanish mumkin. Uni ishga tushirish 5 - rasmdagi ketma - ketlik ("Пуск" - "Все программы" - "Windows Movie Maker") orqali bajariladi:




Dastur ishga tushirilgandan so'ng uning ishchi maydoni hosil bo'ladi. Ishchi maydon quyidagi oynadan iborat: _____

■7^, Без имени - Windows Movie Maker

| i_i |

iTP |—



Перетащите файл мультимедиа на раскадровку, чтобы начать создание фильма.

Готово

“1. Запись видео” - mavjud video, rasm va ovozli fayllarni ish maydoniga joylashtirish;

“2. Монтаж фильма” - video effekt, kadrlar orasidagi animatsiyalarni va yozuvlarga animatsiyalarni joylashtirish;

“3. Завершение создания фильма” - tayyor bo'lgan materialni kompyuter xotirasiga, yoki ko'rsatilgan manzilda saqlash

Odatda Windows Movie Maker video tahrirlagich dasturida yaratilgan materiallar (.wmv) kengaytma bilan saqlanadi. Ushbu dastur .wav; .aif; .aiff; .aifc; .snd; .mp3 va hakazo kabi fayllar bilan ishlaydi. Ayrim .avi, .MPEG4, .mov, .HD kengaytmali video fayllarni qabul qilmaydi. Bu kengaytmali videodan foydalanish lozim bo'lsa, unda uning kengaytmasini maxsus video converter dasturlaridan foydalangan holda o'zgartirish kerak bo'ladi.

Video konverterlar.


Video konverterlarning asosiy vazifasi bu video yoki audio fayllarning kengaytmalarini o'zgartirishdan iboratdir. Uning uchun konvertorlarning birortasini

kompyuterga o'rnatish kerak bo'ladi. Shunday konvertorlardan biri Any Video Converterdir. Yuqoridagi oyna convertorning umumiy ko'rinishi bo'lib, undan foydalanish uchun quyidagi ketma - ketlikni bajarish kerak bo'ladi:

1 - qadam.



kengaytmasi o'zgartirilishi kerak bo'lgan video faylni tanlanadi:

1.1



- kerakli kengaytma tanlanadi:

Добавить видео




2 - qadam.

3 - qadam. Quyidagi oynadan ayrim sozlanmalarni: video o'lchamini tanlash, gengaytmasi o'zgartirilgan videoni istalgan nomini ham o'zgartirib saqlash joyini ko'rsatish, ovozlarini sozlash, kerak bo'lganda videoni qirqish va yozuvlar ham qo'yish imkonini beradi.

konverterlash tugmasi bosiladi. Va quyi oynadagi jarayon

Shu kabi boshqa konverterlarda ham ketma - ketlikni bajarib video faylning kengaytmasini o'zgartirish mumkin bo'ladi.





Endi Windows Movie Maker video tahrirlagich dasturidan qanday foydalanish haqida qisqacha tanishamiz.


Dasturda asosan barcha sozlanmalar “kadrlarni joylashtirish qatori” da bajariladi. Unda kadrlarni birlashtirish, filtrlar qo'yish, kadlar orasisiga effektlar, perexodlar joylashtirish mumkin bo'ladi.

5 | ^|^| 53 Отображение шкалы времени.





Tayyor materialga nom berish, kadrlarga matn qo'yish va tugatishni ifodalash kabi matnlar joylashtirish




Tayyor bo'lgan video materialni ushbu oyna orqali ko'rsatilgan manzilda kerakli nom bilan saqlash mumkin.

Windows Movie Maker dasturi yordamida video fayllar yaratish mumkinligini ko'rib chiqdik, ma'lum bo'ldiki uning imkoniyatlari qisman chegaralangan ekan. Shunday video fayllarni yaratishga to'g'ri keladiki, uning uchun professional video tahrirlagichlar kerak bo'ladi. Ma'ruzamizning yuqori qismida bunday tahrirlagichlardan bir nechtasini keltirib ular orasidagi farqlanish tafovutlarini ham sanab o'tdik. Shunday tahrirlagichlardan biri Corel Video Studio Pro video tahrirlagichi bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Corel VideoStudio Pro video tahrirlagichi

Corel VideoStudio Pro tahrirlagich video fayllarga ishlov berishga, yani video olish qurilmasidan zaxvat qilish, videolarni tahrirlash imkonini beradi. Dastur 100 dan ortiq effekt va filtrlardan, yozuvlarga animatsiyalar va sodda musiqalar bilan taqdim qilingan.

Corel VideoStudio Pro dasturini ishga tushiramiz. Buning uchun kompyuter ish stolidan Corel VideoStudio Pro yorlig'ini ikki marta bosish bilan, yoki "Пуск" tugmasidan dastur joylashgan qatorni tanlash oqali ishga tushiriladi. VideoStudio yuklanganidan so'ng tahrirlash ishlarini olib borish ish maydoni paydo bo'ladi:



1. Bosqichlar paneli. “Захват”; “Правка”; “Выпуск” bo’limlardan iborat bo’lib,

1 **Захват**

Правка

Выпуск

Bu bosqichda kompyuter, video tasvirga olgich yordamida tasvirga tushirilgan video fayllar to’g’ridan to’g’ri kompyuterning qattiq diskiga saqlanadi.

Bu bosqich barcha tahrirlas ishlari, videoga ishlov berish: qirqish, birlashtirish, effektlar, filtrlar qo’shish, yozuvlar va ularga animatsiyalar


berish imkonini beradi.

Bu bosqich tayyor bo’lgan proyektni kompyuter xotirasiga yoki to’g’ri DVD disklarga yozish imkonini beradi.

video materialni hosil qilish uchun bosqichma - bosqich ish olib boriladi.

2. Menyular paneli. “Файл”, “Правка”, “Инструменты” va “Параметры” menyulardan iborat bo’lib, har birida bir qancha buyruqlar jamlanmasi bor. Ular yordamida mavjud projeklarni ochish, saqlash, shablonlar yaratish, ishchi maydonni sozlash, nusxalash va hakazo.

3. Yaritilayotgan proyektni oldindan ko’rish paneli. Bu panel yaratilayotgan proyektni holatini tekshirish imkonini beradi. Bu esa, proyektni to’la qonli shakllanishiga imkon beradi.



1. **Yaratilayotgan video materialni oldindan ko'rish maydoni;**
2. **Sekin harakatlanuvchi navigator;**
3. **Qirqish marker;**
4. **Butun proyektni yoki belgilangan qismini ko'rish;**


5. Hosil bo’lgan proyektni ko'rishga ruxsat etish yoki to'xtatish;

6. Proyektni boshiga o'tish;

7. Bitta oldingi kadrğa o'tish; 8. Bitta keying kadrğa o'tish; 9. Projektni oxmga o'tish; 10. Projektni takroran ko'rish; 11. Ovoz sozlagichi; 12. Vaqtni belgilash; 13. Kattalashtirish; 14. Qirqish; 15. Bashlang'ich /tugash marker.

4.Kutubxona paneli. Bu panel mavjud video fayllardan foydalanish, effekt va filtrlardan, kerak bo'lganda rasm va audio fayllardan foydalanish imkonini beradi.

5.Instrumentlar paneli. Bu panel barcha tahrirlash ishlarini olib boorish imkonini beradi. Yani projektni o'zgartirish, projekt maydonini



kattalashtirish/kichiklashtirish imkonini beradi.

1. Yaratilayotgan projektning ssenariysini ko'rish; 2. Tahrirlash chizg'ichi; 3. Keyengi o'zgartirilgan tahrirni bekor qilish; 4. Bekor qilinganini qayta tilalsh; 5. Zaxvat qilishni sozlash;

6. Projekt ovozini sozlagich; 7. Musiqani avtomatik tarzda qo'yish, yani yaratilgan projekt davomiyligi bo'yicha musiqa davom etadi, yani projekt tugashi bilan musiqa ham to'xtaydi;

8. Proektning joylashuvini kattalashtirish va kichiklastirish; 9. Projektni oynaning o'lchamigacha kattalastirish; 10. Vaqt indikatori.

7-Amaliy:Flash dasturida ovozli ma'lumotlarni xosil qilish

FLASH DASTURIDA ISHLASH Kompyuter texnologiyasining rivojlanishi hozirgi zamonda ixcham va bejirim, foydalanuvchi uchun qulay bo'lgan harakatli dasturlar yaratilish imkoniyatini yaratmoqda. Bu yaratilgan dasturlar Netscape Navigatir (NN) bilan birga ishlashdan tashqari, Internet Explorer (IE) bilan ham ishlaydi. Micromedia kompaniyasi tomonidan shunday programmalardan biri Flash paket programmasi yaratilgan bo'lib, bu programma texnik WEBdizayn vositalarining to'liq imkoniyatidan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu programmaning imkoniyatlari juda keng bo'lib, bunda harakatlar va tovushlar 100 kb fayl hajmnigina egallaydi. Flash quyidagi imkoniyatlarga ega: Yaratilayotgan faylni hajmi kichikligi va Flash dasturining tarmoqdan tez yuklanuvchanligi. Flash da vektorli format qo'llanganligi sababli, unda fayllar siqiladi va shuning uchun fayl hajmi kamayadi; Brauzerlar orasidagi bog'liqlik, ya'ni Flash IE, NN lar bilan birga ishlaydi; Boshqaruv tilining qudratliligi. Micromedia Flashda maxsus dasturlash tili ishlatililib, bunda bajaruvchi o'z saxifasi uchun qulay imkoniyatlardan foydalanishi

mumkin, ya'ni massivlar, takrorlanish, formulalar va shartlardan to'liq foydalanish mumkin; Go'zalligi. Flashda oddiy shar yoki ixtiyoriy shakl ham juda chiroyli ranglar bilan tasvirlanishi mumkin. Qulayligi. Flashdan oddiy rasm chizishni bilgan har qanday o'quvchi foydalanishi mumkin; Bajaruvchilarning ko'pligi. Agar foydalanuvchiga grafikli, tovushli va kichik hajmli fayllar kerak bo'lsa, unda Flashning tengi yo'q. Flash interfeysi juda qulay va onson. Micromedia kompaniyasi tomonidan Flashning bir qancha versiyalari yaratildi. Biz Flash 8 misolida Flashda shlash va uning bir qancha imkoniyatlari haqida gapirib o'tmoqchimiz. Micromedia kompaniyasi Flashni yanada takomillashib uning yangi imkoniyatlarini yaratib berishmoqda. Flash dasturini yuklash uchun: Ochilgan oynadan yangi hujjat ochish uchun Flash Documentni tanlaymiz: Dastur oynasining umumiy ko'rinishi: vositalar panelidagi qurollardan foydalanish kerak. Flash 8 oynasi quyidagi ko'rinishga ega: Oynaning chap qismida vositalar paneli joylashgan. Vositalar paneli yordamida kerakli vosita quroli olinib, ishchi muxitini boshqarish va kerakli ranglarni tanlash mumkin; Oynaning o'ng tomonida esa, kerakli panel, ranglar, ob'ektni sozlash va dialog oynasi joylashgan; Oynaning o'rta qismida ishchi muxiti bo'lib, unda bajaruvchi o'z ijodini yaratishi mumkin; Panelning yuqori qismida esa vaqtlar shkalasi joylashgan (Time line). Flashda chizish juda onson. Buning uchun Flash fayllarini film (Movie) yoki «multik» deb atash mumkin. Chunki Flash da vaqt shkalasi mavjud bo'lib, undagi cheksiz imkoniyatlardan foydalanish mumkin va bu imkoniyatlar albatta vaqt bilan bog'liq bo'ladi. Bajaruvchi yaratilgan multikni ishga tushirishi, to'xtatishi, bir kadrda ikkinchi kadrda o'tishi, boshqa multiklarni ishga tushirishi va hakazolarni bajarishi mumkin. Flashda fayl quyidagicha yaratiladi. Flashda yangi yaratilgan fayllar .fla kengaytmali bo'lib, bu fayllarni translatiya qilishi natijasida yakuniy .shf fayli hosil bo'ladi. Shundan so'ng uni brauzerda ko'rish mumkin. Undan tashqari Flashda yaratilgan faylni bajariluvchi .exe fayli ko'rinishida ham tashkil qilish mumkin. Buning uchun yaratilgan Flashning faylini jackkodi bilan generatsiya qilish v O n kerak. Undan tashqari Flash faylini GIF tas iri ko'rinishida ham saqlash mumkin. Masalaan: Eng oddiy ko'p qirrali biz "oval" () va "ajratilgan e" () dan foydalanishimi z mumkin. Buning uchun quyidagi harakatlar ketmaketligini bajarilish kerak: «Овал» olinib, oynaning chap qismida aylana yoki oval chiziladi; «Выделение» tanlanib, chizilgan shakl chegarasi bilan ajratiladi. Buning uchun shaklni to'g'ri to'rtburchak ichiga olinadi. Bunda shakl () yordamida to'g'ri to'rtburchak ichiga olinib ajratiladi (sichqonchaning chap tugmasi bosib turiladi) yoki shaklga sichqoncha ko'rsatkichi keltirilib, chap tugma ikki marta bosiladi. Shaklning hamma qismi ajratiladi; qo'shish (qo'shish) menyusidagi symbolga aylantirish (belgiga aylantirish) belgilanib, dialog oynasidagi grafik tanlanadi va OK (Ha) tugmasi bosiladi (yoki F8 tugma bosiladi); masala bittaaylana chizib

olamiz: buning uchun uskunalar panelidan aylanani belgilab olib, ishchi sohada chizamiz. Vaqt shkalasida 1kadrda aylanacha qoraga aylanadi. F6 –yangi kadr yaratish F5kadrni uzaytirish Yangi kadr yaratish uchun klaviaturadan F6 tugmasini bosamiz. Bu tugma 1 kadrni nusxaladi. Ya'ni 1 kadrda nima bo'lsa ikkinchi kadrda ham shu narsa bor. Kadrni uzaytirish uchun uzaytiriladigan kadrda F5 tugmasi bosiladi. Qaysi kadr tanlansa o'sha kadrda nisbatan amallar bajariladi. Keraksiz kadrni uchirish uchun o'sha kadr belgilab olinib, sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi va Remove Frames tanlanadi. tanlaymiz: Tasvirimiz quyidagi ko'rinishni oladi: Oddiygina sakrab turgan tup kadrini tayyorlaymiz. Bizda bitta kadr bor, ya'ni doira tasviri chizilgan. F6 tugmasini bosib kadrni nusxalaymiz. Uskunalar panelidan ukazatelni olib aylana tasvirini belgilab olamiz va klaviaturadan 4 ta strelka yordamida pastga, tepaga, oldinga, orqaga harakatlantiramiz. Kadrni nusxalaymiz va tasvirni pastga va orqaga yoki oldinga sekin siljitamiz. Bu amalni kamida 20 marta takrorlaymiz (kadrlar soni ixtiyoriy sonda nusxalanadi). Har bir nusxalanganda tasvirni pastga, orqaga, oldinga siljitamiz. Tasvirni ya'ni to'pni o'lchamini o'zgartiramiz. Buning uchun uskunalar panelidan Free transform yoki klaviaturadan Q harfini Burchaklardagi markerlardan to'pni kichiklashtiramiz. F6 kadrni nusxalaymiz va to'pni yana kichraytiramiz. Bu amalni ham bir necha marta takrorlaymiz. 1 bosqich tugadi ya'ni to'p kelib tushdi. Endi orqaga qaytamiz. Buning uchun endi to'pni kattalashtirib, nusxalab (F6) 4 ta strelka yordamida orqaga qaytamiz. Ko'rish uchun klaviaturadan Ctrl+Enter tugmasi bosiladi. Bu dastur vektorli grafikaga asoslangan. Shuning uchun vektorli grafika rasmlarni import qilib (chaqirib olib) shu rasmlar ustida ham ushbu amallarni bajarsak bo'ladi. Yangi hujjat ochib, bir nechta kadr yaratib, har bir kadrda alohida shakl joylashtirib, Ctrl+Enter tugmasini bosib: Endi matnli kadrlar ustida amallar bajaramiz. Kadrlarga so'zlar yozilsa, so'zlar birinketin chiqib keladi. Masalan: Flashanimatsion dasturi. Buning uchun uskunalar panelidan A xarfi yozilgan uskunani olib kadr ishchi sohasiga chegarani belgilab olamiz va so'z yozamiz. Matnni formatlash uchun Properties oynasida yoki klaviaturadan Ctrl+F3 tugmasi bosilishi orqali ochamiz va ushbu bo'limda matn rangi, shrifti, shrift o'lshamlarini o'zgartirsak bo'ladi. Animatsion so'zini keying kadrda yozamiz. Dastri so'zini 3 kadrda yozamiz. Kadrlar uzoq vaqt ekranda chiqib turishi uchu kadrlar orasini klaviaturadan F5 tugmasini bosib kattalashtiramiz: Tayyor bo'lgan kadrni ko'rish uchun klaviaturadan Ctrl+Enter tugmasi bosiladi.

8-Amaliy: Video ma'lumotlarni hosil qiluvchi texnik vositalarni o'rnatish va sozlash.

Reja:

1. Audi-video texnik vositalar haqida tushuncha.
2. Ko'rsatuvchi TV va eshittiruvchi TV apparatlar.
3. Videokonferens aloqa va videokonferensiyalar

Zamonaviy telefon vositasining funksiyalari ko'p: avtojavob beruvchi, qo'ng'iroq qilayotgan abonentning raqamini aniqlovchi, telefon raqamini bilib olishdan iimoyalash va x.k.z,... Qog'ozli xujjatning normativ qiymati-adolatning muxim tarkibiy qismidir. Qog'ozli xabarlarni uzatish vositalari ko'p. Bunda oddiy telegraf aloqasi teletayp aloqasiga aylangan. Rivojlangan vositalardan biri-telefaks aloqasidir.

Faks (lotincha - faxsimile, uxshashini yarat) - xujjat originalini xuddi uziday aks ettiradi. Bunda, uzatishda xabar elementlarini skanerlash yuli bilan uzgartiriladi. Kabul kilish apparati katordagi ketma-ket signallarni kabul kilib, kogozdagi tasvirga aylantiradi. Matnni kogoqli tashuvchidan ajratib olish uchun ukish kurulmasi ishlatiladi.

Ofisdagi xujjatlarni kseroks yordamida nusxalash ommaviy tusga kirdi.

Elektron ofisga uzoq va yaqin bo'lgan turli manbalardan juda ko'p xabarlar keladi. O'z navbatida ofis xodimlari iim tashqi dunyoga o'zining axborot oqimlarini uzatadilar. Telefaks tarmog'i orqali qog'ozdagi xabarlar keladi. Lokal yoki global tarmoq vositalari orqali elektron xabarlar kompyuterga modem yordamida kiritiladiyoki chiqariladi. Ofisda kompyuterlar axborot oqimlariga ishlov berib, birlashtirish vazifalarini bajaradi.

Elektron pochta kompyuterlar yordamida olingan korrespondensiyani yuborish va ishlov berishda elektron usullarni ishlatadi. U orqali xujjatlar, jadvallar, grafiklar, chizmalar, rasm va fotografiyalar, ro'znoma og'zaki xabarlar olish mumkin. Elektron pochta—bu qog'ozsiz pochta, u telefon tarmog'i bilan kompyuterga ulangan. Elektron pochta-pochta, telegraf, faksimil aloqa imkoniyatlaring bir qismini o'ziga olib, o'zining tezkorligi tufayli yangi axborot xizmatlarini taklif etadi.

«Teleks» - axborot tizimi axborotning ulkan oqimlarini iim xil abonentga avtomatik ravishda tayyorlash va uzatish imkonini beradi. Matn tayyorlashning bu tizimida

yuqori sifatli displeylar bilan jixozlangan terminallar yordamida uzatilayotgan axborot massivi kompyuter xotirasida saqlanib qoladi. Keyin maxsus ma'lumotlarni uzatish apparatlari yordamida tayyorlangan massiv abonentga jo'natiladi yoki undan qabul qilinadi.

Televideniye xayotga uzokdan kurish sifatida kirib keldi va ommaviy xodisaga aylanib koldi. Dunyoda 4 mlrd.dan ortik telepriyomniklar ishlatiladi.

Televizor bu juda murakkab axborot kurulmasidir. Televizorni kurish goyasi quyidagicha:

v tasvir elementlarini uzgartirish yuli bilan elektr signallar ketma ketligiga aylantiradi (tasvir analizi);

v ularni aloka kanallari orkali nuktalardan kimirlaydigan rasmga teskari aylantirish (tasvir sintezi) amalga oshiriladigan kabul kilish punktiga uzatiladi.

Bu nazariya XX asr oxirida portugaliyalik olim A. Di. Payva va rus olimi P. N. Bexmetvev tomonidan ishlab chikilgan. Amaliy karorlarni ishlab chikish va foydalanishni boshlash V. K. Zvorkin va F. Fransuorti (AKSh) bilan boglik.

Televideniye orkali siyosiy, madaniy, ilmiy, ijtimoiy, iktisodiy axborotlar beriladi.

Televideniye ning keyingi boskichi rakamli televizion texnologiyalar asosidagi interaktiv televideniye dir.

“Telematn” axborot tizimi.

“**Telematn**” axborot tizimi foydalanuvchilarning kup guruxlari uchun doimo kizikarli bulgan dolzarb axborotni uzatish uchun yaratilgandir. “Telematn” - bu gazeta, jurnal, agentlik xizmatlaridan olingan matn varaklarini uzluksiz utkazib beradigan “elektron gazeta” yoki “elektron byulleten”.

Bu tizimning xususiyatlari:

v axborot varaklarini uzluksiz va ketma - ket ravishda utkazuvchi stansiya tomonidan tuplanadi, efirga oddiy televizor signallari bilan yoki kabel orkali uzatiladi;

v “telematn” axboroti uzluksiz yangilanib boriladi;

v kerakli axborotning varagini belgilash uchun televizorga kushimcha kurulma kerak;

v foydalanuvchi elektron gazeta varaklarini varaklash, bulimlardan sakrab utishi, ukigan varaklarga kaytib borish, videomagnitofonga yozib olishi mumkin. Lekin u matn mazmunini uzgartira olmaydi.

“**Videomatn**” axborot tizimi.

Bu axborot tizimi axborot kabul kilish va tanlash erkinligi imkoniyatini kengaytiradi, xamda telefon, kompyuter, televizor imkoniyatlarini birlashtiradi.

Telefon chakirigi tufayli telefon tarmogiga ulangan kompyuter va televizor orasida aloka urnatiladi.

Ma'lumotlar bazasi menyusi va bu ma'lumotlarni ishlov berish algoritmlari orkali foydalanuvchi (boshka kompyuterga) birovning axborotini shakllantirish, uzining telepristavkasi xotirasiga kuchirish buyrugini beradi. Foydalanuvchilar telematn menyusiga boglab kuyilgan emas.

Videokonferens aloka va videokonferensiyalar.

Insoniyat jamiyati ba'zi bir murakkab masalalarni yechish, odamlarni ma'lum bir jamoaga tuplanishini talab etadi. Bu maksadda mukammalrok tizimlar inson mulokotining urnini bosa olmaydi, lekin ular ishtirokining samarasini tashkil kilishga va ijodiy faoliyatni avtomatlashtirishga imkon yaratadi. **Videokonferensiyalar** masofadagi vizual gurux mulokotini tashkil etishda, majlis, ta'lim utkazishlarning eng yangi axborot texnologiyasidir. Bu texnologiya muassasa devorlari va masofalar bilan bir - biridan bulingan kuplab shaxslarni bir vaktning uzida mulokotiga imkon beradi.

Kundalik hayotimizda turli ko'rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli(audio), rasmlil, tasvirli(video) va boshqa axborotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Axborot texnologiyasi biror obyekt, jarayon yoki hodisaning holati haqidagi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiruvchi jarayondir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari–shaxsiy kompyuterlar va telekommunikasiya vositalaridan foydalanilgan holdagi zamonaviy muloqotni o'rnatuvchi axborot texnologiyasi hisoblanadi.

Har bir turdagi axborot bilan ishlash uchun har xil texnik tavsifnomalarga ega bo'lgan axborot qurilmalari kerak bo'ladi. Bu axborot qurilmalari zamonaviy axborot texnologiyalarining texnik ta'minotini tashkil qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy texnik vositalari sifatida hozirgi kunda kompyuterlar, hisoblash vositalari, audio va video qurilmalar, aloqa vositalari, teletayplar, telefakslar, telekslar, kseroks va boshqalar qo'llaniladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining dasturiy ta'minoti axborot texnologiyalari ishini tashkil qilish va boshqarishni amalga oshiradi.

Jamiyatimizda axborotlarni uzatish, kabul kilish, xamda axborotlarni tarkatish uchun turli xil kurilmalar kulllaniladi. Bu kurilmalarga Xisoblash texnikasi, telegraf, gramyozuv, magnitafon yozuvi, televideniye va radioni misol kilib olishimiz mumkin.

Bu kurilmalarda axborotlarni saklashda va uzatishda ma'lum bir kurinishidagi signallar yordamida amalga oshiriladi. Bu signallar uzluksiz va diskret signallarga bulinadi.

Radio va televideniya, xamda gramyozuvda, magnitafon yozuvda kulllaniladigan signallarning grafik kurinishi uzluksiz kiyshik chizik xolatida uzgaruvchan shaklda bulib, bunday signallarni uzluksiz yoki analog signallar deyiladi. Bunga karama-karshi telegraf va xisoblash texnikasidagi signallar impuls shaklida buladi va bunday signallarni diskret yoki rakamli signal deyiladi.

Biz xar bir texnikalaridan, ularda kandy signal kullanishidan kat'iy nazar imkoniyat darajasida foydalanishni istaymiz.

Informatika soxasida ishlayotgan xodimlar xech bulmaganda axborot vositalarida bir turdagi signalni kullanilishini istaydilar.

Shuning uchun sifatli bir shakldagi, uzluksiz yoki diskret signal kurilmalarini tanlash va yaratish muammosi payda buldi.

Uzluksiz va diskret signallarni uzaro takkoslash uchun ularning kuyidagi aloxida axamiyatli farklari: Uzluksiz signal katta uzgaruvchan kiymatlar tumlamidan iborat bulsa, diskret signallar esa ikkita kiymatga ega bulib "0" va "1" sonlari orkali ifodalanadi. Bundan kurinib turibdiki diskret signalning uzluksiz signalga nisbatan farki va imkoniyati katta.

Xulosa kilib aytadigan bulsak, birinchidan diskret signalda poydo bulgan xatoliklarni tugirlashning osonligi bulsa, ikkinchidan bu signal turida ishlovchi texnik vositalarning kulayligidir.

Shuning uchun xamma turdagi axborot texnikalarining diskret signalni kayta ishlovchi kurilmalarini yaratish va ulardan keng foydalanish zamon talabi bulib koldi. Natijada barcha rivojlangan davlatlarda axborotlarni diskret signal shaklda uzatuvchi va kabul kiluvchi radiopredatchik va radiopriyomnik, televizorlar xamda televizion uzatuvchi vositalar yaratilib, ulardan keng foydalanilmokda.

Agarda diskret televidiniya bilan oddiy televidiniyani solishtirsak, birinchisining imkoniyatlarini yakkol kurishimiz mumkin.

Masalan: Diskret televidiniya kuyidagi imkoniyatlar mavjud.

-kadr tasvirini tuxtatish;

-kurilayotgan tasvirni kerakli kismalarini kattalashtirish;

-tasvirni kitob varogiga uxshab varoklash;

-ranglarni uzgartirish;

-ekranda bir vaktning uzida bir necha tasvirlarni xosil kilish;

-tasvirga xarakatlanuvchi va xarakatlanmaydigan yozularni kuyish xamda xosil kilish;

-kadr burchagida kichik ulchamda vakt (soat, minut)ni kursatish.

Xozirgi kunda axborotlarni keng ommaga uzatishda va tarkatishda televidiniya, radio vositalaridan keng foydalaniladi. Bu vositalar yordamida biz mamlakatimizdagi va boshka mamlakatlardagi siyosiy, iktisodiy, texnikaviy uzgarishlar tugrisida, madaniyat, sport va boshka soxalardagi yangiliklardan xabardor bulamiz.

Xalk xujaligining turli soxalarida axborotlarni kayta ishlash va katta xajmdagi axborot tuplamlarini saklash uchun EXMlaridan keng foydalanilmokda.

EXMlar avval turli xil matematik xisob kitob ishlarini bajargan bulsa, xozirgi kunda axborotning turli shakllarini sifatli kayta ishlash imkoniyatiga ega.

Masalan:

-ilmiy va iktisodiy masalalarni yechish;

-turli xil grafik tasvirlarni chizish;

-texnologik jarayonlarni boshkari va boshkalar. **Axborot tizimlari ishida va unig texnologik jarayonida anik fark kilib turuvchi bir kancha boskichlarni ajratib kursatish mumkin:**

1. Ma'lumotlarning paydo bulishi -ya'ni xujalik operasialari natijalarini . boshkaruv obyektlari va subyektlari xususiyatlarini, ishlab chikarish jarayonlari parametrlarini, normativ va yuridik aktlar mazmunini kayd etuvchi boshlangich ma'lumotlarning yuzaga kelishi.

2. Ma'lumotlarning tuplanishi va tizimlashtirilishi - ya'ni kerakli ma'lumotlarni tezlik bilan topish va tanlash, ma'lumotlarni metodik jixatdan yangilash, ularning buzib kursatilishidan, yukolishidan saklash, darajasida ma'lumotlarni joylashtirish.

3. Ma'lumotlarni kayta ishlash-bu ilgarigi tuplangan ma'lumotlar asosida yanada tuldiruvchi, taxliliy, tavsiyalovchi, prognozli ma'lumotlarning yangi kurinishlari shakllanuvchi jarayondir.

4. Ma'lumotlarni aks ettirish-ma'lumotlarni inson kabul kilishi uchun foydali shaklda takdim etish. Eng avvalo-bu boskichga chikarish, ya'ni xujjatlarni kishi kabul kilishi uchun kulay xolatda tayyorlash.

Labaratoriya ishi

Мультимедиа маълумотлари структураси



Мультимедиа ресурслари таркибини ташкил этувчи маълумотлар турлари
ва уларнинг ўзаро боғлиқлик схемаси

LABARATORIYA ISHI-2.

MAVZU: Multimedia texnologiyalari haqida tushuncha.

Ishdan maqsad: Multimedia texnologiyalari haqida tushuncha ishlashni o'rganish va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Bilim va ko'nikmalarga talablar: Talabalar , Multimedia texnologiyalari haqida tushuncha. yaratilgan tasvirlarga o'zgartirishlar kiritishni bilishlari lozim.

Tajriba mashg'ulotni o'tkazish uchun kerakli jixozlar: kompyuter, printer, proyektor

ISH REJASI:

1. [Multimediya tizimlari](#), ularda fayllarni yaratish (tovush, matn, animatsiya).

2. Unigraphics dasturida multimediya fayllarini qayta ishlash. AdodeFlash dasturi texnik tizimdagi fayllarni dasturda taqdim etish va saytlarda, multimediya komplekslarida qo'llash.

3. MS VISIO dasturi yordamida multimediya fayllarini yaratish taxrirlash va qayta ishlash.

Tovushlar va videoelementlar (video) bilan ishlash multimedia vositalari deb ataladigan maxsus texnik va uskunaviy qurilmalar bilan amalga oshiriladi. Bunday texnik vositalar bilan jihozlangan komputer multimedia - kompyuter deb ataladi.

Multimedia atamasining lug'aviy ma'nosi multimuhitni anglatadi. Ammo multimedia tushunchasining aniq ta'rifi mavjud emas. Odatda multimedia deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Ayni vaqtda bu avvalo tovushlar, videoelementlarni qayta ishlovchi vositalardir. Shu bilan birga multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika hollarida ham multimedia haqida gapirish mumkin. Kelajakda multimedia vositalari ma'lumotning boshqa turlari, masalan, virtual voqelik bilan ishlash imkonini berishi ehtimoldan holi emas.

Informatsion ta'minotda multimedia.

Multimedia printsiplarida qurilgan elektron ma'lumotnomalar (spravochnik), entsiklopediyalar, tarjimonlar va lug'atlar kishini hayratga soladi. Tarix, geografiya, tibbiyot (meditsina), sport va boshqa sohalar bo'yicha turli entsiklopediyalar bor.

Ta'lim sohasida multimedia.

Ma'lumki, ma'ruzani talabalarning 25% iga yaqini o'zlashtiradi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida ham ma'ruzani eshitish, ham materialni kompyuter ekranida ko'rish va uni ekranga chiqarishni faol boshqarish o'zlashtirish sifatini oshiradi. Hozir multimedia o'quv dasturlaridan Math CAD, PLUS 6.0 kabi kuchli dastur mahsulotlari tarkibida foydalaniladi. Multimedia texnologiyalaridan foydalanadigan etarlicha jiddiy dasturlar hozircha yo'q. Asosiy muammo - professor-o'qituvchilarning multimedia imkoniyatlarini yaxshi biladigan programmistlar bilan birgalikda ishlashining tashkil etilmaganidir. Bunday o'quv dasturlarini ishlab chiqish va oliy

o'quv yurtlarida keng tarqatish lozim.

Dasturlash texnologiyasida multimedia

Bu zamonaviy dastur mahsulotlarini yaratishdagi yangi texnologiyadir. Bu professional bo'lmagan foydalanuvchini muloqot tavsiyanomalari, chiroyli tasvirlar, sintezlangan tovushlar, musiqa tovushlari, dinamik grafika-ning turli samaralari kabi dastur ob'ektlarini dasturlashtirishdek murakkab ishdan ozod qiladi.

Multimediaga mansub texnik vositalar mos ma'lumotni, masalan, tovush va videoelementlarni, taqlidli, uzluksiz shakldan kompyuter tushunadigan raqamli shaklga o'tkazadi. Shu bilan birga saqlangan va qayta ishlangan mos ma'lumotni inson adekvat qabul qila olishi uchun multimedia qiziqtirayotgan raqamlardan zarur obrazlar, masalan tovush va videoelementlar yaratadi.

Multimedia - kompyuterlarning zaruriy elementi, tovushni qayta ishlovchi tovush platasidir. [Tovush platasiga](#), tovush chiqarish vositasi, akustik tizimlar yoki yakka tinglagichlar, hamda audio ma'lumotlarni kiritish uchun xizmat qiladigan mikrofonlar ulanadi. Tovush platasiga shuningdek magnitofon, elektr musiqa qurollari kabi boshqa audiokomplektlar ham ulanishi mumkin.

Video bilan to'laqonli ishlash uchun videoma'lumotni kompyuterga mos shaklga va asliga qaytaruvchi moslama - videokarta zarur. Unga videoka-mera, videomagnitofon va televizor kabi moslamalar ulanishi mumkin. Ammo videoshakllarni kompyuterda qayta ishlash bilan odatda tor doiradagi mutaxassislar shug'ullanadi xolos. Aksariyat foydalanuvchilar uchun videoelementlarni monitorda ifodalay olish etarli bo'ladi. Bunday masalani hal etish uchun har qanday zamonaviy kompyuterda mavjud bo'lgan videoadapter va monitor etarlidir.

Tovushli (audio) va ayniqsa videoma'lumotni kompyuterda saqlash uchun taqqoslaganda nihoyatda kichik sig'implar kerak bo'ladi. Shu bois multimedia sifatiga ega bo'lgan dasturiy mahsulotlar (o'quv qo'llanmalari, ma'lumotnoma, entsiklopediya, hordiq chiqarishga mo'ljallangan turli dasturlar) odatda kompakt disklarda tarqatiladi. Bunday mahsulotlardan foydalana olishimiz uchun CD-ROM deb ataladigan jamlovchi zarur bo'ladi. U bo'lmasa kompyuterni muhokama etilayotgan ma'nodagi imkoniyatlari, kompyuter o'yinlari bilan chegaralanadi.

Tovush va video bilan ishlashni istagan foydalanuvchilar multimedia mahsulotlari kompyuter ma'lumotlari uchun mo'ljallangan doimiy xotiraga hamda SHKning mikroprotsessori, operativ xotirasi va videotizimga yuqori talablarni qo'yishini

bilishlari lozim. Bunday yuqori sifatlar ayniqsa videoma'lumotlar bilan ishlashda zarurdir. Tabiiyki kelajakda bu yo'nalishdagi talablar yanada ortadi.

Zamonaviy shaxsiy kompyuterlarning imkoniyatlari keng ekranli videoma'lumotlarni to'laqonli tasvirlash uchun etarli bo'lmagani uchun bu ma'lumotlarni zichlashtirishga majbur bo'ladilar. Bu amal oddiy ma'lumotlarni zichlashtirishdan farqli o'laroq, mos ma'lumotning to'laqonligini yo'qotadi. Videomagnitofonlarni zichlashtirish uchun texnik hamda dasturiy vositalar mavjud audioma'lumotlarni ham zichlashtirish mumkin, mos hajmlar katta bo'lmagani uchun bu amal unchalik dolzarb emas.

Tovush va video bilan ishlashga mo'ljallangan bir qator dasturiy vositalar mavjud.

CD Plaer dasturi vositasida tovushli kompakt diskni tinglash mumkin. CD-ROM turidagi jamlovchilarni yaratilishidan avval kuy, musiqiy va tovushli kompozitsiyalar kabi asarlar yozilgan kompakt disklar CD-ifodalovchi vositasida tinglanar edi. Hozirgi vaqtda o'zimiz yoqtiradigan musiqiy asarni asosiy ishimizdan chetlashmagan holda, bevosita kompyuterlarning o'zida tinglashimiz mumkin. Buning uchun kompakt disk jamlovchiga (disk yurituvchi) o'rnatiladi va Play klavishi bosiladi. Tovush balandligi yuzadagi paneldagi o'rnatuvchi bilan boshqariladi. Bunday o'rnatuvchi bo'lmagan holda dasturiy vositalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Yana yuzadagi panelda tovush platasi va akustik tizimdan yakka holda foydalanishga rejalashtirilgan maxsus tinglovchi moslama ulagichi mavjud bo'lishi mumkin. Tovush tinglashdagi minimal funktsiyalarni ta'minlovchi boshqa tugmalar yuzadagi panelda joylashgan, ulardagi belgilar standartlashgan bo'ladi va siz ular bilan quyida tanishasiz.

Tovushli kompakt diskni tinglashda kengroq imkoniyatlarni WINDOWS 95 turkumiga kiradigan **CD Plaer** lazerli dasturi yaratadi. Ushbu opreatsion tizim shunday tashkil etilganki, undagi **CD Plaer** dasturi o'ta xayrixohlik bilan o'z xizmatlarini taklif etadi va kompakt disk o'rnatilishi bilan muttasil tarzda faollanib boradi. Bu esa maxsus choralar ko'rmasdan faqat texnik vositalar bilan chegaralanganda tinglash imkonidan mahrum etadi. Maxsus choralardan biri kompakt disk o'rnatilishi bilan **Shift** klavishasiga bosish zaruratidan iborat. WINDOWS 95 audio kompakt diskni kompyuter diskari kabi qabul qiladi. Bunday sifat uchun aniqrog'i **Autoplay** funktsiyasi uchun tizim mualliflaridan minnatdor bo'lishimiz lozim. Agar **CD Plaer** dasturi ishga tushirilgan bo'lsa, zaruratiga ko'ra uni yopish kerak bo'ladi.

CD Plaer dasturini bosh tavsiyanomadan bevosita ishga tushirish esa **Programmi /Standartnie/ multimedia/ Lazerniy proigrovatel Programs/ [Accessories](#)/ Multimedia/ CDPlaer** buyrug'i bilan amalga

oshiriladi. Maksimal tarzda boshqarish imkoniyatlari va ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlagan **CD Plaer** darchasi CD ifodalovchining birlamchi panelini eslatadi. Uning dasturiy taqlidchisi oddiy CD ifodalovchiga nihoyatda yaqin. Bu dastur darchasining tuzilishi tavsiyanomaning **View** (Vid) bandidagi buyruqlar turkumi bilan belgilanadi.

CD Plaer dasturini funktsional imkoniyatlari bo'yicha o'ta zamonaviy, keng ko'lamli kompakt disklarni ifodalovchisi bilan taqqoslash mumkin.

Kompakt disklarni tinglash uchun amalda har qanday CD ifodalovchida mavjud tugmalar mazmunini aniqlab olishimiz zarur:

Play (Vosproizvedenie)- kompakt diskning boshidan yoki **Pause** (Pauza) klavishasini bosishdan to'xtatilgan joyidan boshlab tinglash;

Pause (Pauza)-kompakt diskni ifodalashda rejali uzilish. Rejani davom ettirish uchun shu tugmani qayta bosish kerak yoki **Play** (Vosproizvedenie) klavishasini bossa ham bo'ladi;

Stop (Stop)- ifodalashni to'xtatish. Bu holda **Play** (Vosproizvedenie) klavishasi bosilsa disk boshidan ifodalanadi;

Eject (Izvluch)- kompakt diskni CD-ROM jamlovchidan chiqarish yoki teskarisini joylashtirish. Ba'zi jamlovchilargina kompakt disklarni joylash-tirish va chiqarishni dasturiy ta'minlaydi;

Previous Track (Predidushaya zapis)- avvalgi asarga o'tish. Ammo bu tugma ilk bor bosilganda ifodalanayotgan asarning boshiga siljishi sodir bo'ladi;

Next track (Sleduyushaya zapis) - keyingi asarga o'tish;

Skip Backwods (Peremotka nazad)- kompakt diskni teskariga \altaklash (aylantirish);

Skip Forwods (Peremotka vpered)- kompakt diskni oldiniga g'altaklash (aylantirish);

Tasvirlangan bu tugmalarni bosish sichqonchani faol klavishasini mos holatda bosish bilan amalga oshiriladi. Ammo oxirgi ikkita g'altaklash tugmalarini ishlatganda jarayon tugamaguncha barmoqni sichqonchani klavishasida bosilgan holda saqlab turish lozim. Odatda jamlovchining holatiga ko'ra muayyan tugmani bosish imkoni

belgilangan bo'ladi. Tinglanadigan asarni almashtirish Play yoki Pause holatida amalga oshirilishi mumkin. Asarlarni almashtirish ketma-ket tarzda amalga oshirilishi ham mumkin. Aslida bunday almashtirishlarni diskret almashtirish deb atasa bo'ladi. Ifodalash, asarni almashtirish va g'altaklash jarayonlarini kuzatishda vaqt indikatorini va ma'lumotlar zonasi ko'maklashadi.

Shu kabi, ammo biroz cheklangan tugmalar majmui CD-ROM jamlovchisining yuza panelida joylashgan bo'lib, ular kompakt disklarni CD Plaer dasturisiz tinglaganda ishlatiladi. Bu dastur ishlatilganda real tugmalarni unutsa ham bo'ladi.

Vaqt indikatorini :

- muayyan asarni tinglashga ketgan vaqtni (**Track time Elepsed**-Proshlo vremeni (zapis));

- tinglanayotgan asarning tugashigacha qolgan vaqtni (**Track time Remaining**-Ostalos vremeni (zapis));

- kompakt diskni tinglab bo'lish uchun qolgan vaqtni (**Disc Time Remaining**-Ostalos vremeni (disk) ko'rsatib turishi mumkin.

Keltirilgan birinchi va ikkinchi holatlarda qo'shimcha tarzda tanlangan asarning tartib raqami ham ko'rsatiladi (raqamlash birdan boshlanadi). Vaqt indikatorining holatini o'zgartirish uchun tavsiyanomaning **View** (Vid) bandi yoki qurollar paneli-ning mos tugmalaridan foydalanish mumkin. O'z vaqtida bu tugmalarni tavsiyanomaning **View** (Vid) [bandidagi](#) **Panel instrumentov** (Instrumentlar paneli) buyrug'i bilan mos satrga chiqarsa bo'ladi.

CD Plaer dasturining darchasida ma'lumotlar zonasi mavjudligini tavsiyanomaning **View** (Vid) bandidagi **Disc Track info** (Svedenie o diske i zapisi) buyrug'i ta'minlaydi. Bu zonada:

- ijrochining nomi (**Artist**-Ispolnitel);

- kompakt diskning nomi (**Title**-Nazvanie);

- asarning nomi va tartib raqami (**Track**-Zapis)

aks ettiriladi.

Agar siz avvaldan asarlar ro'yxatini tuzmagan bo'lsangiz, ma'lumotlar zonasidan faqat foydalanilayotgan jamlovchining nomi va asarning raqami aniqlashingiz mumkin.

Kompyuterda bir nechta CD-ROM jamlovchilari mavjud bo'lganda, ulardan biriga **Artist** (Ispolnitel) nomli ro'yxatdan murojaat qilish mumkin.

Track (Zapis) ruyo'ati unga kiritilgan ixtiyoriy asarni tezda topish va tinglash imkonini beradi. Bu ro'yxat siz tomondan maxsus tuzilgan bo'lmasa, unda kompakt diskdagi barcha asarlar yozilgan bo'ladi.

CD Plaer dasturining qo'shimcha imkoniyatlari:

-(**Random Track Order**-Proizvolniy poryadok)- asarlarni tasodifiy tarzda ifodalash (eshittirish)

-(**Continuous Play**-Neprerivnoe vosproizvedenie) kompakt disklarni uzluksiz eshittirish - asarlarning bosh qismlarini eshittirish (**Into Play**-Rejim oznakomleniya);

- eshittirish lozim bo'lgan asarlar ro'yxati va mos ketma-ketlikni belgilash.

Bu imkoniyatlarning birinchi uchasi tavsiyanomaning **Parametrlar** bandining buyruqlari yoki «Qurollar paneli»dagi mos tugmalar vositasida amalga oshiriladi.

Asarlar ro'yxatini shakllash uchun tavsiyanomaning **Disk**(Disk) bandidan **Edit Play List** (Opisanie diska) buyru'idan foydalaniladi yoki bir xil nomli tugma bosiladi. Natijada muloqot darchasi ochiladi.

Bu muloqot darchasida quyidagilarni terish lozim:

1. Ijrochi (**Artist**-Ispolnitel) nomini ko'rsatish;
2. Kompakt disk (**Title**-Nazvanie) nomini ko'rsatish;
3. Kompakt diskdagi asarlar nomini belgilash yoki o'zgartirish.

Kompakt diskdagi barcha asarlar ro'yxati **Available Tracks** (Zapisi na diske) darchasida ifodalanadi. Asar nomini belgilash yoki o'zgartirish uchun uni avval ajratish, keyin **Track nn** (Zapis nn) darchasida mos o'zgartirish va **Set Name** (Zadat nazvanie) klavishasini bosish kerak.

Kompakt diskdagi asarlar ro'yxatini qayta ishlashni yakunlagach **Play List** (Spisok vosproizvedeniy) ro'yxatidan mantiqiy kompakt disk hosil qilish mumkin. Bu

ro'yxatda aslida tanlanadigan asarlar mos ketma-ketlikda ko'rsatilgan bo'ladi. **Play List** (Spisok vosproizvedeniya) ro'yxatini o'zgartirish uchun quyidagi buyruq tugmalaridan foydalanish mumkin:

LABARATORIYA ISHI-3

MAVZU: Multimedia-axborot turlari. Multimedaning texnik ta'minoti,

Ishdan maqsad: Multimedia-axborot turlari. Multimedaning texnik ta'minoti, ularning turlari ishlashni o'rganish va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Bilim va ko'nikmalarga talablar: Talabalar Multimedia-axborot turlari. Multimedaning texnik ta'minoti,, ularning turlari yaratilgan tasvirlarga o'zgartirishlar kiritishni bilishlari lozim.

Tajriba mashg'ulotni o'tkazish uchun kerakli jixozlar: kompyuter, printer, kerali asbob va jihozlar

ISH REJASI:

1. Grafik axborot – surat, rasm, fotosurat, chizma, sxemalar ko'rinishidagi axborot. Multimedida rang – axborotni [tasvirlashning asosi hamda](#), ekranda har bir pikselni xarakteristikasi hisoblanadi va son bilan kodlashtiriladi.
2. Tovushli – musiqaviy axborot – Bu ko'rinish uchun maxsus simvollardan foydalanib kodlashtirish usuli ixtiro qilingan. Bu usul axborotni grafik axborotga o'xshab saqlash imkoniyatini beradi; nutq va boshqa tovushlar.
3. Sonli – obyektlarni miqdoriy soni va xususiyatlari; matnli axborotga o'xshash bo'lib, uni tasvirlash uchun maxsus belgilar ya'ni raqamli kodlashtirish usullaridan foydalaniladi. Kodlashtirish sistemalari(sanoq) har xil bo'lishi mumkin.
4. Videoaxborot – filmlar, animatsiya.
5. Belgili – belgilar – nishonlar, [raqamlar](#), maxsus belgilar va so'zlar orasidagi probellar bilan taqdim etiladigan axborotdir.
6. Mantiqiy axborot – tipning mantiqiy xulosasini “ha-yo`q”, “katta-kichik” bilan tavsiflovchi axborot.

7. Semantik axborot – mulohazani o`zida mujassamlashtirgan va nutq birligining mazmuni orqali yuboriladigan axborot.

Multimediali sistemalarda barcha bu kabi analogli ko`rinishdagi axborot qayta ishlash muammosi quyidagilar: axborotni raqamli ko`rinishga aylantirish zaruriyati bo`lib, unda axborotning bir qismi yo`qoladi; katta hajmdagi axborotni saqlash qiyinchilig.

Bitiruv malakaviy ishimning I bobi 3 ta bo'limdan iborat. 1– bo'limda «Multimedia tizimlari va texnologiyalari» fanining asosiy tushunchalari, maqsad va vazifalari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari multimedia tizimlari va texnologiyalari bilan boyitilgan ta'limni oddiy ta'limdan farqi, afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. 2 – bo'limda «Multimedia tizimlari va texnologiyalari » fanini o'qitish tizimining texnik asoslari qanday bo'lishi, qanday texnik jihozlar kerakligi bu jihozlarning turlari afzalliklari va kamchiliklari texnika vositalaridan foydalanish tartibi tushuntirilgan. 3–bo'limda « Multimedia tizimlari va texnologiyalari» fanini o'qitish tizimining dasturiy tizimlari, [qanaqa turlari bor](#), qanday dasturlar mavjudligi va dasturlardan foydalanish tartib asosida tushuntirilgan. Bundan tashqari Multimedia tizimlari va texnologiyalarida qanday axborot turlaridan foydalaniladi, qanaqa axborotlar qayta ishlanadi yoki ishlab chiqariladi batafsil ma'lumot berilgan.

Bitiruv ma'lakaviy ishimning ikkinchi bobida .«Multimedia tizimlari va texnologiyalari »fanining ishchi o'quv dasturining tahlili: “Multimedia tizimlari va texnologiyalari” fanining maqsadi va vazifalari, fanlar bilan o`zaro bog`liqligi,fanning ta'limdagi o`rni,amaliy mashg`ulotlarning,laboratoriya mashg`ulotlarining va mustaqil ish darslarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari keltirilgan.2-bob 2-qismida esa LMS Moodle tizimida fanning qismlarini yaratish texnologiyalari: LMS Moodle tizimi haqida ma'lumot,uning [imkonyatlari](#) , kurs yaratish bosqichlari haqida to'liq ma'lumot berilgan.Bundan tashqari LMS Moodle tizimida ma'ruza,amaliy mashg`ulot,laboratoriya mashg`ulorlari,test yaratish,test turlari haqidagi bilimlar berilgan.

2.1.«MTT»fanining ishchi o'quv dasturi tahlili.

Mazkur fan dasturi bakalavriat yo'nalishi: 5111000 - Kasb ta'limi (5330200 - Informatika va axborot texnologiyalari) yo'nalishida tahsil olayotgan talabalaning o`zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlari va unga qo'yiladigan talablar asosida tuzilgan bo'lib, bo'lajak fan o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan ***quyidagi bilimlar va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi:***

- multimedia texnologiyalari
- multimedia-axborot [turlari](#)
- multimedaning texnik ta'minoti
- multimediali axborotlarni almashishni tashkil etish
- multimediali ilovalarni yaratish texnologiyasi

- ovozli va video ma'lumotlarni taqdim etuvchi fayl formatlar [va asosiy tamoyillar](#)
- ma'lumotlarni multimediali namoyish etish
- namoyishni hosil qilish va tahrirlashda foydalaniladigan dasturlar
- metodik qo'llanmalarni namoyish [dasturlari asosida yaratish](#),
- multimedia va internet.

IABARATORIYA ISHI-4

MAVZU: Multimediali axborotlarni almashishni tashkil etish

Ishdan maqsad: Multimediali axborotlarni almashishni tashkil etish, ularning turlari ishlashni o'rganish va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Bilim va ko'nikmalarga talablar: Talabalar Multimediali axborotlarni almashishni tashkil etish, ularning turlari yaratilgan tasvirlarga o'zgartirishlar kiritishni bilishlari lozim.

Tajriba mashg'ulotni o'tkazish uchun kerakli jixozlar: kompyuter, printer, kerali asbob va jihozlar

ISH REJASI:

Reja:

1. Multimedia sinflari
2. Multimediali trafik
3. IP texnologiya
4. IP-telefoniya
5. VoIP – texnologiyasi
6. Google tizimlari

1.Multimedia sinflari

Multimediani uzatish nuqtai nazaridan, real vaqtda uzatiladigan (Real-Time – RT) yoki real vaqtda uzatilmaydigan (Non Real-Time – NRT) sinflarga bo'linishi mumkin.

Birinchi turdagi multimedia (RT), paketlarni kechikishiga chegarani talab etadi, xuddi shu vaqtda multimedaning ikkinchi turi (masalan matn va tasvir) bunday chegaralanishni talab etmaydi lekin ularni uzatishda xatoliklar paydo bo'lmashligi uchun qattiq chegaralanishga ega.

Multimediali ma'lumotlarni uzatishda xatoliklarni nazorat qilish uchun ikkita asosiy yondashuv mavjud:

Birinchi, yo'qolgan yoki shikastlangan paketlarni uzatishda avtomatik takrorlash (Automatic Retransmission reQuest – ARQ). Bu yondashish transport satxidagi TCP (Transport Control Protocol) protokolida TCP/IP protokoli stekida qo'llaniladi.

NRT-axborotini xatolarsiz uzatishni talab qiluvchi ilova, odatda aynan shu protokolni talab etadi.

Ikkinchi yondashishda (Forward Error Correction – FEC), paketlarni qayta uzatmasdan xatoliklarni aniqlash va to'g'rilash imkonini beruvchi ortiqcha axborot uzatiladi. Bunday yondashuv transport satxining boshqa protokolida UDP (User Datagram Protocol), TCP/IP protokolining shu stekida qo'llaniladi. Multimediali ma'lumotlarni almashlovchi, xatoliklarga yo'l qo'yuvchi (RT kabi NRTda ham) ilova, odatda paketlarni uzatishda vaqtni yo'qotishdan xoli bo'lish uchun UDPni qo'llaydi.

RT, diskret (Discrete media – DM) va uzluksiz (Continuous media – CM) multimediyaga bo'linadi. Bu asosan ma'lumotlar diskret yoki uzduksiz oqimda uzatilishiga bog'liq. O'z navbaida SM xatoliklarga yo'l qo'yuvchi va xatoliklarga yo'l qo'ymaydigan turlarga bo'linishi mumkin.

Birinchi turdagi RT ga misol qilib ovozli va videokonferensiyalarni o'tkazishda qo'llaniladigan ovozli va video oqimlarni olish mumkin. Ikkinchi ilovaga misol qilib esa uzoqdagi kompyuterni ishga tushurishni tushunish mumkin.

1.Multimediali trafik

Multimediyali trafik deganda insonning sezgi organlari qabul qilib oladigan turli xil axborotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning raqamli oqimi (odatda tovushli va/yoki videoaxborot) tushuniladi.

Ma'lumotlarning multimediyali oqimlari uzoqlashtirilgan interaktiv xizmatlarni taqdim etish maqsadida telekommunikatsiya tarmoqlari bo'yicha uzatiladi. Tarmoq foydalanuvchilariga taqdim etiladigan multimediy xizmatlarining bugungi kunda eng ko'p tarqalganlari videotelefoniya, multimediyali ma'lumotlarni yuqori tezlikda uzatish hisoblanadi.

Taqdim etiladigan xizmatlarning turiga bog'liq holda multimediyali trafikning ikki asosiy turi ajratiladi:

1. Foydalanuvchilar o'rtasida real vaqt miqyosida axborotni uzatish uchun multimediyali xizmatlarni taqdim etadigan real vaqt trafigi.
2. Zamonaviy telekommunikatsiya tarmog'ining an'anaviy taqsimlangan xizmatlari bilan

tashkil etiladigan oddiy ma'lumotlar trafigi, jumladan, elektron pochta, fayllarni uzatish, virtual terminal, ma'lumotlar bazasiga uzoqlashtirilgan kirish va boshqalar. Real vaqt trafigini qo'llab-quvvatlovchi xizmatlarga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: IP-telefoniya, yuqori sifatli tovush, videotelefoniya, videokonferens aloqa, masofadan turib tibbiy xizmat ko'rsatish (diagnostika, monitoring, konsultatsiya), videomonitoring, keng eshittirishli video, raqamli televideniye, radio va televizion dasturlarni olib ko'rsatish.

2. IP texnologiya

Ethernet – kommutatorlarni ishlab chiqarishni jadal ravishda o'sishi, 100 Mbit/s, 1 va 10 Gbit/s portlarni xosil bo'lishi abonentga ulanishni o'tkazish oralig'ini sezilarli darajada oshirdi va keng polosali ulanish xizmatlarini ta'minlash imkonini berdi. Birinchi navbatda bu 50 Mbit/s gacha tezlikli trafik bitta axborotli foydalanuvchi oqimga generatsiyalanadigan audio va video oqimlarga taalluqli. IP tarmoq barcha axborotli oqimlarga xizmat ko'rsatish imkoniga ega. IP tarmoq orqali VoIP tovush signalini va barcha raqamli formatdagi video tasvirni uzatishi mumkin.

Bugungi kunda multiservisli tarmoq deganda faqatgina kanal satxidagi turli servislarni (FR, IP, ISDN, ATM, SDH xizmatlari) yoki tarmoq marshrutizatsiyalarinigina (VLAN yoki VPN) emas, balki axborotli servislarni (ISP, ASP va SSP) ham taqdim etish imkoniga ega. Operatorlik xizmati – bu, foydalanuvchi xizmatlari bilan shartnomali kelishuv va sifat kafolati. Shuning uchun umumiy foydalanishni multiservisli tarmoq operatori uchun xizmatlarni amalga oshirish mezonini ularni sifati va kafolati xisoblanadi. YA'ni sifatni nazorat qilishni samarali mexanizmlari va parametrlarni sozlash, abonent yozilgan barcha xizmatlar paketini kafolatli taqdim etishni mavjudligi.

IP-texnologiyasini keng tarqalishi uning bir qator xususiyatlari bilan aniqlanadi. Universallik. Xozirgi kunda IP protokollari barcha tarmoq segmentlarida qo'llanilmoqda, lokal tarmoqlardan magistral tarmoqlargacha. IP texnologiyasi ovoz va video axborot, ma'lumotlar uzatish uchun qo'llaniladi. IP asosida qayd etilgan va simsiz aloqa tarmoqlari quriladi.

Mashtablashtirish. Yirik mashtabli tarmoqlar onson rivojlanish imkoniga ega bo'lishi kerak. Ochiqlik. Internet tarmog'i ochiq tizim prinsipiga asoslangan.

3. IP-telefoniya

Mazkur servis tarmoqning ikki abonent o'rtasidagi tovush trafigini (nutqni) uzatadi, unda tarmoq trafigi sifatida IP protokol (Internet Protocol) dan foydalaniladi. «IP telefoniya» servisini tashkil etish uchun mahalliy, korporativ, global tarmoqlar, hatto Internet tarmog'i foydalanilishi mumkin. Umumiy foydalanishda qo'llaniladigan maxsus shlyuzlar yordamida telefon tarmoqlari abonentlari va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari abonentlari o'rtasida IP-telefon aloqasi ta'minlanadi.

Yuqori sifatli tovush. Yuqori sifatli tovush deganda shunday servis tushuniladiki, bu servis yuqori sifatli tovushni, masalan, musiqa, konsertlardagi chiqishlarni va h.k. larni uzatishni va eshittirishni amalga oshiradi.

Videotelefoniya. Mazkur servis ikki abonent o'rtasida insonlar nutqini uncha yuqori bo'lmagan sifatdagi uning tasviri bilan birga uzatishni amalga oshiradi. Mazkur servis mijozlari tegishli kommutatsion apparatura orqali real vaqt rejimida bir-birlarini eshitishlari va ko'rishlari mumkin.

Videokonferensiya. Mazkur servis abonentlar guruhi o'rtasida tovushli va videotrafikni uzatishni amalga oshirib, bunda tovush va videosignallar bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda (turlicha transport birikmalari bo'yicha) tarmoqda uzatiladi, ularning qabul qilishdagi sinxronlanishi transport darajasidagi tegishli protokol bilan ta'minlanadi.

Masofadan tibbiy xizmat ko'rsatish. Mazkur servis bemorlarni masofadan tibbiy tekshirish, tashxis qo'yish va maslahat berishni ta'minlaydi. Mazkur servis trafigi real vaqt miqyosida uzatilgan tovush va videoma'lumotlarni, tekshiruv natijalarini va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Videomonitoring. Mazkur servis xonalarning videokuzatuvini amalga oshiradi, turli vazifalarni bajaruvchi hududlarni qo'riqlash, turli xil noan'anaviy vaziyatlar to'g'risida tezkor xabardor qilish, odamlar to'planadigan joylarda doimiy monitoring (real vaqt rejimida) qilish uchun qo'llaniladi.

